

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

D.A.AXATOVA, H.A.AXATOVA, D.U.USMONOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA FANIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLAR

pedagogika ta'lif sohasi barcha bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun

O'QUV QO'LLANMA

NAVOIY-2022

UO‘K: 37.013(075.8)

KBK 74.00ya73

A 90

D.A.Axatova, H.A.Axatova, D.U.Usmonova

Umumiy pedagogika fanidan amaliy mashg‘ulotlar [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Axatova, D. A. Axatova, H.A., Usmonova, D.U.– Navoiy : NAVOIY, 2022. –232 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma pedagogika ta’lim sohasi barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u o‘z ichiga pedagogikaning uchta – pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat bo‘limlaridan amaliy mashg‘ulotlar mavzularini qamrab olgan. Qo‘llanma pedagogika ta’lim sohasining bakalavriat ta’lim yo‘nalishi DTS, o‘quv reja va o‘quv dasturlari asosida yaratilgan.

Mualliflar:

D.A.Axatova- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

H.A.Axatova- o‘qituvchi

D.U.Usmonova- o‘qituvchi

Taqrizchilar:

D.X.Narziqulova - Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc).

U.L.Yoziyeva - Qarshi davlat universiteti Magistratura bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

*O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2022 yil 09 sentayabrdagi 302-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.*

Reestr raqami №302-0766

© «NAVOIY» nashriyoti, 2022

© D.A.Axatova, H.A.Axatova, D.U.Usmonova Navoiy DPI.

ISBN 978-9943-8952-7-0

Annotatsiya

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekistan Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-sod buyrug‘i, o‘quv reja va Umumiy pedagogika fanining o‘quv dasturi asosida yaratildi.

Qo‘llanmada pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasiga kiritilgan "Umumiy pedagogika" fanining uchta – pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat bo‘limlaridan amaliy mashg‘ulotlarning mazmuni, unga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishning o‘ziga xosliklari va texnologiyasi yoritib berilgan.

Аннотация

Настоящее учебное пособие составлено на основании приказа Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан от 16 июля 2021 года «Об утверждении государственных образовательных стандартов высшего образования» за № 311, на основании учебного плана и учебной программы по общей педагогике.

В пособии освещено содержание, специфика и технология подготовки и проведения практических занятий по трем разделам дисциплины "Общая педагогика" – теория педагогики, история педагогики и педагогическое мастерство, включенных в учебный план образовательных направлений бакалавриата в области педагогического образования.

Annotation

This teaching aid was approved by the order of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan dated July 16, 2021 “On approval of state educational standards of higher education” No. 311, based on the curriculum and curriculum for general pedagogy.

The content of practical classes in three sections of the subject "General Pedagogy" - pedagogical theory, history of pedagogy and pedagogical skills, included in the undergraduate curriculum in the field of teacher education, is described in the textbook, its preparation and features and technology.

SO‘ZBOSHI

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

2020 yil qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ham uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilishdagi muhim omillardan biri bo‘lmoqda. Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida yigirmadan ortiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi qonunlari o‘rganilib, ularning ilg‘or tajribalari inobatga olindi. Qonunda davlat ta’lim standartlari va talablari, o‘quv jarayoniga o‘quv rejalari va dasturlarini, ta’lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni joriy etish bilan bog‘liq masalalar o‘z aksini topdi. Qonunning 36-moddasi esa: “Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o‘tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan”¹.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi kamchiliklarni ko‘rsatib, qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, “...umumta’lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qitish sifati bilan bog‘liq zamonaviy o‘quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas”²ligini ta’kidladi.

Prezidentimizning 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi №PQ-2909-son Qarorida oliy ta’lim tizimi ta’lim jarayonini o‘quv reja va dasturlarni yangi pedagogik texnologiyalar

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.-T,2020 y, 29 b

² Ш.М.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг ундалик қоидаси бўлиши керак.-Т., Ўзбекистон, 2017 й, 44

va o‘qitish usullarini keng joriy etish asosida yanada takomillashtirish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilishga alohida urg‘u berilgan.

Hozirgi kunda yoshlarni erkin fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, bunday vaziyatlarni to‘g‘ri baholab, ulardan chiqib keta oladigan sifatlarga ega qilib tarbiyalashimiz lozim.

Prezidentimzi S.M.Mirziyoyev ham bu masalaga katta e’tibor qaratib: “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb- hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu naqadar jiddiy masala ekani yanada yaqqol ayon bo‘ladi”³, yana “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”⁴, - deb ta’kidlaydi.

Shu talablardan kelib chiqib, biz ta’lim standartlariga asoslangan va ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosidagi o‘quv qo‘llanmani yaratishga harakat qildik.

³ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 1-жилд, , 2017. .88-896

⁴ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бир галикда барпо этамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2016 й, 13-14 б

KIRISH

Hozirgi vaqtda pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biri-bolajak pedagoglarni innovatsion ta’lim muhitiga tayyorlash, ularda ta’limiy innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirishga va amaliyotga joriy etish malakalarini shakllantirishdir. Mazkur muammoni hal etish uchun esa, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida oqitilayotgan fanlarning amaliyot bilan uyg‘unligini to‘liq ta’minlanishiga erishish, talabalar tomonidan egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish lozim.

Zero, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatadigan bo‘lg‘usi o‘qituvchilar ta’lim-tarbiyani samarali, optimal darajada tashkil etishni puxta bilishi lozim. Ularda pedagogik ko‘nikma va malakalarini, kasbiy kompetensiyani shakllantirishda Pedagogika fanining o‘rni muhimdir.

Pedagogika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi pedagogika instituti talabalarini ta’lim muassasalari, jumladan, umumiyo‘rta va o‘rta maxsus hamda professional ta’lim muassasalarida ishlash uchun o‘qituvchi- murabbiylilikka tayyorlashdan iborat.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichi uchun mo‘ljallangan “Umumiyy pedagogika” fani dasturi pedagogikaning uch mustaqil sohasini o‘zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi (pedagogikaning umumiyo‘asoslari, ta’lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi), pedagogika tarixi va pedagogik mahorat.

“Pedagogika nazariyasi” kursi pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim jarayoni qonuniyatları va tamoyillari, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatları, tamoyillari, tarbiyaning umumiyo‘ metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va

vositalari, ta’lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o‘z ichiga qamrab oladi.

“Pedagogika tarixi” kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko‘rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta’lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta’lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o‘zida aks ettiradi.

“Pedagogik mahorat” kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta’lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o‘qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o‘qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo‘llari, nutq madaniyati, o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi mahorati, o‘qituvchining tarbiyachilik mahorati, o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishslash, ilg‘or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi masalalar o‘rganiladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanining nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta’lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o‘rgatish.

Fanning vazifasi:

- talabalarni milliy va innovatsion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga o‘rgatish;
- o‘quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o‘quv-me’yoriy hujjatlar bilan ishslash hamda ta’lim olganlikni tashxis etish qoninuyat va tamoyillari bilan tanishtirish;

- o‘quvchilar bilan olib boriladigan korrektsion ish yo‘nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish mazmunini o‘zlashtirish;
- milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- global doirada ta’lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo‘nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o‘ziga xosliklardagi umumiyligi ko‘rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;
- talabalarni o‘qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o‘rnini, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘qituvchining muomala madaniyati, o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to‘liq o‘zlashtirishlariga erishish.

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba quyidagi kompetensiya (bilim, ko‘nikma, malaka)larga ega bo‘ladi:

- ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari; pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti, o‘quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo‘yilgan zamонавиyy талаблар; ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, yosh davrlarining o‘ziga xosliklari; yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish; tarbiya jarayonining qonuniyatları va tamoyillari; pedagogik menejmentning mohiyati va o‘ziga xosliklari, korreksion pedagogikaning asosiy yo‘nalishlari; pedagogik terminologiya haqida to‘liq **bilimga**;
- milliy g‘oya va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o‘quv-tarbiya ishlarini o‘tkazish; ta’limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo‘llash; ta’lim va tarbiya metodlari, vositalalarini amaliyotda qo‘llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlash; o‘quv va tarbiya jarayonida o‘quvchilar jamoasini samarali boshqarish; o‘quvchilar xulqi va faoliyatini rag‘batlash; pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan

bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish, aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish, jahon mamlakatlari ta'lim tizimi rivojiga doir ma'lumotlarni tahlil etish va tizimlashtirish, o'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlash, muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda **ishlash ko'nikmalariga**;

- psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishslash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish; samarali pedagogik tadqiqotlar o'tkazish; pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish; tarbiyaviy ishni rejallashtirish va amalga oshirish; guruh jamoasining psixologik muhitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish, istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejallashtirish, pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo'limgan yondashuvlarni izlab topish **malakasiga ega bo'lishi kerak**

Pedagogika fanlari tizimida amaliy mashg'ulotlarning o'rni

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga ma'ruza (leksiya), seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlari, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ishlari kabilar kiradi.

Ma'ruza (leksiya) – u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish. Ma'ruza o'qituvchi shaxsining bilimi va xususiyati: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda uning yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Ma'ruzaning didaktik maqsadi, o'qitish jarayonidagi o'rni va axborotlarni bayon qilish metodlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Oliy maktab o‘qitish tizimiga ma’ruza bilan bиргаликда амалий (mashq, seminar va laboratoriya) mashg‘ulot turlari ham kирадики, ular ta’limiy, tarbiyaviy hamda nazariyani amaliyot bilan bog‘lash funksiyalarini bajaradi.

“Amaliy mashg‘ulot” atamasi pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma’noda izohlanadi. “Amaliy mashg‘ulot” atamasi keng ma’noda mashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg‘ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg‘ulotlarning ma’ruzadan farqlanadigan asosiy me’yorlaridan biri o‘quv jarayoni qatnashchilarining bирgalikdagi harakatlarida o‘ziga xos xususiyat bilan namoyon bo‘lishidir. Ular vazifalariga ko‘ra ham farqlanadi. Agar ma’ruza ilmiy bilimlar asosida bayon qilinadigan bo‘lsa, amaliy mashg‘ulotlarda esa bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg‘ulotlar talabalar bilimini sinash uchun ham xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulot shakllaridan biri seminardir. Seminar mashg‘ulotlari quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan bo‘ladi:

- *ma’ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;*
- *fan bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;*
- *talabalarning ilmiy-tadqiqot va bilish qobiliyatlarini o’stirish;*
- *nazariy o‘qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotda tan olinishi.*

Oliy ta’lim tizimi taraqqiyotining zamonaviy jihatni talabalarning ijodiy va mustaqil idrok etish faoliyatini takomillashtirishni taqazo etadi. Ayniqsa, bu o‘rinda amaliy va seminar darslarining ahamiyati o‘ziga xosdir. Seminar va amaliy dars fanlardan o‘tilgan asosiy mavzularni umumlashtirish va mustahkamlash maqsadida ham dars vaqtida ham, darsdan tashqari vaqtarda o‘tkaziladi.

Munozarali seminar va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun xizmat qiladigan, tafakkurni rivojlantiradigan hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan dars turlaridan biridir. Mazkur dars shakl-shamoyili jihatidan ham, mazmuni jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Seminar mavzusini tanlashda muallimlar hamisha guruhning yo‘nalishi, talabalarning ongi va saviyasi hamda o‘zlashtirish qobiliyatlarini e’tiborga oladilar.

Amaliy-seminar darslarni quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. O‘qituvchining kirish so‘zi /5-7 minut/
2. Talabaning ma’ruzasi /8-10 minut/
3. Bahs-munozara, mashqlar bajarish, interfaol metodlar bilan ishslash /42-55 minut/
4. Axborot /7-10 minut/
5. Xulosalovchi so‘z /7-10 minut/.

Amaliy mashg‘ulotning kirish qismida o‘qituvchi guruhning mashg‘ulotga tayyorgarligini tekshiradi, mavzu va rejani elon qiladi, mavzuning muammoli tomonlarini ta’riflaydi, shuningdek, talabalarni darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiradi.

Talabaning ma’ruzasida amaliy mashg‘ulot mavzusining muammolari yoritiladi. Maruzachi talaba mavzuni qisqa, lo‘nda bayon qila olishi, ma’lum bir xulosa chiqara bilishi va beriladigan savollarga tayyor bo‘lishi kerak.

Talaba ma’ruzasining yakuni darsninig bahs-munozara va amaliy mashqlarni bajaridh qismi boshlanishini taqozo etadi. Bunda talabalar erkin munozaraga kirishadilar. Faqat mavzuni tayyorlashda rejadan chetga chiqmaslik lozim. Munozara erkin bo‘lgani sababli, unda talaba ixtiyoriy ravishda ishtirot etadi va muhokama qilinayotgan mavzu bo‘yicha o‘z mulohazalarini bildiradi. Bu turdagи bahs-munozaraning afzalliklari shundaki, shu usul bilan talabalarda o‘zganing fikrini tinglash, unga o‘z munosabatini bildirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Darsning axborot qismi kompyuter, videoproyektor kabi o‘qitishning texnik vositalari yordamida tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulotning xulosa qismida asosiy rol o‘qituvchiga tegishli bo‘ladi. Darsning bu bosqichi muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchi dars davomida erishilgan barcha yutuqlarni sanab o‘tishi, talabalarni baholashi, mashg‘ulotda faol ishtirot etganlarni alohida ta’kidlashi va dars mobaynida kuzatilgan barcha ahamiyatli jahatlarni tilga olishi lozim.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda aniqlanganki, talabalarning ko‘pchiligi biror narsani jamoa bo‘lib o‘rganishni, birgalikdagi izlanishni, faoliyatdagi o‘zaro yordamni ma’qul ko‘radilar. Talabalarga o‘rtoqlari tomonidan yetkaziladigan ma’lumotlarni tushunish va o‘zlashtirish yengilroqdir. Mashg‘ulotning noan’anaviy tarzda o‘tkazilishi esa ularni faol ishtirok etishga undaydi. Chunki bunda ular ma’lum vaqtgacha o‘qituvchi roliga kirishi, o‘rtoqlariga hali ular bilmagan yangiliklarni ma’lum qilishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar juda katta rivojlantiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlarga ham ega. So‘zlash jarayonida talabalarda o‘rtoqlari oldida o‘z mulohazalarini bayon etish va uni himoya qilish, boshqalarning fikrini tahlil qilish, o‘z tajribasidan, o‘qigan kitoblari va kuzatishlari natijalaridan misollar keltirish ko‘nikmalari shakllanadi. Qat’iyatlilik, o‘z-o‘ziga ishonish kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda ham bunday mashg‘ulotlarning samarasi salmoqlidir. Amaliy va seminar mashg‘ulotdagi o‘qituvchining roli uni tashkil etish va boshqarishdan, talabalarni to‘g‘ri fikrlashga yo‘llashdan, munozarani tashkil etishdan, talabalar faoliyatini baholash, yakunlash, xulosa sifatida haqiqatni ochishdan iboratdir.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi Umumiy pedagogika fanidan amaliy mashg‘ulot uchun 30 soat ajratilgan.

	Amaliy mash`gulot mavzusi	soat
1.	Davlat ta’lim hujjatlari va o‘quv- me’yoriy hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish	2
2.	Ta’lim mazmuni	2
3.	Ta’lim tamoyillari va metodlaridan umumiy ta’lim tizimida foydalanish imkoniyatlari	2
4.	Ta’limni tashkil etish shakllari	
5.	Tarbiyaning qonuniyatları, prinsiplari va metodlari.	2
6.	O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyasi	2
7.	Ta’lim muassasasi menejmenti	2
8.	Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta’lim (Inclusive Education)	2
9.	Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari	2
10.	Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq “ asrini o‘rganish va tahlil qilish	2

11.	Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lif tizimi va pedagogika fani rivoji	2
12.	Pedagogik qobiliyatni shakllantirish. Kommunikativ malakalar va ta'sir ko'rsatish	2
13.	O'qituvchi faoliyatida muloqat madaniyati va psixologiyasi	2
14.	Nutq texnikasi va madaniyati	2
15.	O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogik tajribani to'plash tizimi	2

I- BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI

I- BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

1-§. Davlat ta'lim hujjatlari va o'quv- me'yoriy hujjatlarni o'rghanish va tahlil qilish

Tayanch tushunchalar

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati, ta'lim hujjatlari, o'quv- me'yoriy hujjatlar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, ta'lim tizimi, ta'lim turlari, pedagogika fani, adabiyotlar bibliografiyasи.

Mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni:</i> 25-30 nafar	<i>Vaqti:</i> 2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none">1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning tuzilishi va mazmuni bilan tanishish2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati mazmunini o'rghanish3. Pedagogika fanlaridan adabiyotlar bibliografiyasini tuzish.4. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning turkumlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning tuzilishi, mazmuni va mohiyati bilan tanishish, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati mazmunini o'rghanish, Pedagogika fanlari bo'yicha adabiyotlar bilan tanishish, bibliografiya tuzishga o'rghanish, pedagogik tadqiqot metodlarini qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish

<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i>
Professor-o'qituvchi faoliyati: 1. Talabalarga O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etish va ularni bajarishga oid tushuntirish berish.	Talabalarning o'quv-bilish faoliyati: 1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi asosiy me'yoriy hujjatli - «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, umga asosan ta'lim tizimi, turlari va shakllarini yoritadilar «Ta'lim tizimi» va «ta'lim turlari»

	<p>2. O‘zbekiston Respublikasi-ning ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishi masalasi yuzasidan talabalarga zarur ko‘rsatmalar berish.</p> <p>3. Talabalarning kichik guruhlardagi ishini tashkil etish va boshqarish</p> <p>4. Pedagogika fanlaridan adabiyotlar bibliografiyasini tuzish bo‘yicha ko‘rsatma beradi</p> <p>5. Pedagogik tadqiqot metodlarini qo‘llash ko‘nikmlarini baholash</p>	tushunchalarining alovida mazmunga egaligini farklashadi; O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘ladilar
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>		2. Ta’lim sohasidagi siyosatning asosiy tamoyillarini tushuntirib beradilar.
<i>O‘qitish vositalari</i>		3. Talabalar kichik guruhlarda bajarilgan ishlar yuzasidan taqdimot qilishadi
<i>O‘qitish shakli</i>		4. Pedagogika fanlaridan adabiyotlar bibliografiyasini tuzib topshirishadi
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>		5. Pedagogik tadqiqot metodlarini qo‘llash ko‘nikmlarini namoyish etishadi
<i>Monitoring va baholash</i>		
Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlari	Jami: 5 ball 1. Bibliografiya tuzish va qisqacha konspektlash - 2 ball. 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish - 2 ball. 3. Kichik guruhlarda ishni bajarish - 1 ball.	

Darsning texnologik xaritasi

Ish jarayon- lari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1- bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mashg'ulotning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova)	Yozib oladi
	1.3. Talabalarga kichik guruhlarga bo'linishni taklif etadi. Kichik guruhlarda ishslash qoidalari bilan tanishtiradi (3-ilova).	Kichik guruhlarga bo'linishadi. Guruhlarda ish boshlaydilar
2- bosqich. Asosiy jarayon (65 daqiqa)	2.1. "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning tuzilishini «Klaster» (4-ilova) usulidan foydalangan holda tahlil etishni tavsiya etadi (5-ilova)	"Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning tuzilishini «Klaster» usulidan foydalangan holda yoritib berishadi.
	2.2. «O'zbekiston Respublikasi ta'lif tizimi va turlari» mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini hal qilishni topshiradi (6-7-ilova)	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini hal qilishadi
	2.3. Talabalar uyda tayyorlab kelgan adabiyotlar bibliografiyasini ular asosida tuzilgan qisqacha konseptlarni taqdim etishni so'raydi. Namuna berilgan (8-ilova)	Talabalar tayyorlab kelgan adabiyotlar bibliografiyasini taqdim etishadi.
	2.4. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari bo'yicha amaliy ishlar taklif etadi (9- ilova)	Guruhlarda ishlaydilar, amaliy ishlarni bajaradilar.
3- bosqich. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiylar xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarning va guruhlarning baholarini e'lon qiliadi	Tinglaydilar
	3.4 Mustaqil ish sifatida Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini Klaster metodi asosida tahlil etishni topshiradi (10-Ilova).	Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash ko'nmasiga ega bo'ladilar.

Davlat ta’lim hujjatlari va o‘quv- me`yoriy hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish

Mashg`ulot rejasi

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining tuzilishi va mazmuni bilan tanishish
2. O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati mazmunini o’rganish
3. Pedagogika fanlaridan adabiyotlar bibliografiyasini tuzish.
4. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini o’rganish va qo’llash.

Talabalarni mashg`ulot bo`yicha baholash mezonlari

Jami: 5 ball

1. Bibliografiya tuzish va qisqacha konspekt qilish - 2 ball.
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish - 2 ball.
3. Kichik guruhlarda ishni bajarish - 1 ball.

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari

- Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.
- Har kim faol, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.
 - Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.
 - Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.
 - Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.
 - Har kim boshqalarga o‘rgatib o‘zi o‘rganishni bilishi zarur.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

1. Katta varog' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha barcha fikrlar yozilaveradi;
5. Keltirilgan so'zlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Klaster tuzishda quyidagilardan foydalaning (boblardagi moddalarni ko'rsatishga harakat qiling)

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Ta'lim tizimi, turlari va shakllari

3-bob. Ta'lim tizimini boshqarish

4-bob. Ta'lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish

5-bob. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

7-bob. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish

6-bob. Ta'lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatları

9-bob. Ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash

8-bob. Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash

10-bob. Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

Topshiriq. Quyida keltirilgan jumlalarni davom ettiring.

1. O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'iy nazar...
2. Davlat ta'lim standartlari...
3. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:...
4. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:...
5. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:...

6. Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bulgan shaxslar...
7. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash....
8. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish...
9. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash...
10. Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul...

7- ilova

Topshiriq. «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari» mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi

Quyida keltirilgan jumlalar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning kerakli ustuniga yozing.

1. O'n bir bob, yetmish besh moddadan iborat.
2. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi.
3. Shaxs.
4. Ta'limni rivojlantirish jamg'armalari.
5. Fan.
6. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati
7. Ta'lim olish huquqi.
8. Bilimli bulishni va iste'dodni rag`batlantirish.
9. Ishlab chiqarish.
10. Xalqaro hamkorlik.
11. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.
12. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

“Ta'lim to‘g‘risidagi” qonun	Kadrlar tayyorlash milliy dasturi	Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar

8-Ilova

To 'rtiinchi masalada talabalarga Pedagogika fanlaridan adabiyotlar bibliografiyasini tuzish topshirilgan. Talabalar kutubxonadagi adabiyotlar hamda

internet manbalari asosida pedagogika fanlariga oid bibliografiya tuzishadi. Alfavit tartibida va talab asosida adabiyotlarni ketma-ket joylashtirishadi.

Umumiy pedagogika fanidan adabiyotlar bibliografiyasi (Namuna)

I.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident asarlari hamda me'yoriy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.-T., 2020 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. “O‘zbekiston” 2017

II.Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Xodjayev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: SANO-STANDART, 2017
2. Azizzxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil
4. M.H.Tohtahodjayeva, S.Nishanova, J.Hasanboev va boshqalar. Pedagogika. (M.H.Tohtahodjayevaning umumiy tahriri ostida.). –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.-400 b.

III. Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. —T.: O‘qituvchi 1993.
2. Sh.Abdullayeva, D.Axatova, B.Sobirov, S.Sayitov. Pedagogika. Ekspress-ma’lumotnoma.T., “Fan”,2005 yil
3. Ahmedov A. Ulug’bek Muhammad Tarag’ay. T.: “Fan”, 1991.

IV. Internet saytlar

1. www.bilim.uz.
2. www.ziyonet.uz
3. www.pedagog.uz

Topshiriq. Quyida keltirilgan misollar bilan tanishing va ularning qaysi imiy-tadqiqot metodiga tegishli ekanligini aniqlang.

1-misol. Siz mazkur ta’lim muassasasini tanlaganingizdan xursandmisiz? 1) qa, xursaidman; 2) juda xursand emasman; 3) yo‘q. 4) javob berishga kiynalamon.

2-misol. 2.1. O‘rganilayotgan fanlarni o‘zlashtirishga sizning ta’limning avvalgi bosqichidagi tayyorligingiz yetarlimi? 2.2. Sizning-cha, oliv ta’limda o‘qishning maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejidan farqi nimada?

3-misol. 3.1. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz? _____

3.2. Innovatsiya va yangilik tushunchalari o‘rtasida tafovut mavjudmi? O‘z fikringizni asoslang _____


4-misol. 4.1. Kerakli so‘zni topib qo‘ying. O‘zbekiston - ... davlat.

4.2. Savolga javob bering. Amir Temur qanday davlat tuzgan?

4.3. Gapni davom ettiring. 1999 yil Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Uning tavallud sanasi munosabati bilan ...

4. «Pedagoglik kasbini tanlashdan maqad»ni aniqlashga oid ochiq va yopiq javobli anketa tuzing

Topshiriq. Mustaqil ish sifatida Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlariga Klaster tuzing (Namunadan foydalaning)



Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari mohiyati:

«Shaxs -kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi». Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat tomonidan ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim jarayonida shaxs DTS da ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, ishlab chiqarish, fan, madaniyat sohasida faoliyat ko'rsatadi.

«Davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari bo'lib, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiradi».

«Uzluksiz ta'lim- malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini: maktabgacha ta'lim, umumiyo o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni, DTSni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi».

«Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi».

«Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi».

2020 yilda qabul qilingan “Ta'lim to‘g‘risidagi” qonun 11-bob, 75 moddadan iborat

1-bob. Umumiy qoidalar (1-5-moddalar),

- 2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari (6-22)
- 3-bob. Ta’lim tizimini boshqarish (23-28)
- 4-bob. Ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish (29-43)
- 5-bob. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy makomi (44-46)
- 6-bob. Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari (47-51)
- 7-. bob. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish (52-56)
- 8-bob. Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini (57-61)
- 9-bob. Ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash (62-66)
- 10-bob. Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik (67-69)
- 11-bob. Yakunlovchi qoidalar (70-75)
- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunining 1 bob 4-moddasida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar ko‘rsatilgan.

4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta’lim ustuvorligining tan olinishi; ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratii xususiyati;
- ta’limning uzlucksizligi va izchilligi;
- un bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rtalimga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqlashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning ragbatlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

“Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning 2 bobi “Ta’lim tizimi, turlari va shakllari” deb nomlanadi. Unga ko‘ra ta’lim turlari quyidagicha:

7-modda. Ta’lim turlari

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- mактабдан ташқари та’лим.

Xulosa qilib aytganda ushbu mashg‘ulotda talabalar “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun tuzilishi, mohiyati bilan tanishadilar, zaruriy, muhim moddalarni yod olisgadi. Pedagogika faniga oid bo‘lgan adabiyotlar bilan ishlab, adabiyotlar bibliografiyasini tuzishga va zaruriy holatlarda undan foydalanishga o‘rganadilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning oldingi (1997 yilgi) ta’lim qonunidan qanday farqli tomonlari bor?
2. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning tuzilishini aytib bering.
3. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?

4. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
5. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasiga katta e'tibor berilayotganligining sabababini nimada deb bilasiz ?
6. Uzluksiz ta'lim tizimining mohiyatini yoritib bering.
7. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarga sizning munosabatingiz.
8. «Mening ideal o'qituvchim» mavzusida esse yozing.
9. «O'qituvchi bo'lganimda ta'lim jarayonining qaysi jihatlariga alohida e'tibor beraman?» Ushbu faraziyaga o'z fikringizni bildiring.

II BOB. DIDAKTIKA – TA’LIM NAZARIYASI

2-§. Ta’limning mazmuni

Tayanch tushunchalar

Ta’lim qonuni, ta’lim ustivorligi, ta’lim mazmuni, ta’lim mazmunining tarixiy va sinfiy xususiyati, «formal ma’lumot», «moddiy ma’lumot» nazariyalari, umumi o‘rta ta’lim davlat standartlari, mutaxasislik, soxalar, fanlar, bloklar, o‘quv rejasi, o‘quv dasturi, darslik, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv adabiyotlari konsepsiysi, dastur va darslikni tuzishga qo‘yilgan talablar.

Mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25-30 gacha</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>Amaliy</i>
<i>Mashg‘ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ta’lim mazmuni va uni belgilashga turli yondashuvlar 2. Mutaxassislik bo‘yicha umumi o‘rta ta’lim DTSni o‘rganish, o‘quv reja, dastur va darsliklar bilan tanishish, ularni tahlil etish, fan bo‘yicha kalendor reja tuzishni mashq qilish. 3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g‘oyalalar mazmun-mohiyatini o‘rganish. 4. O‘zbekistondagi ta’lim mazmunini chet el (AQSh, Yaponiya va boshqa) ta’lim mazmuni bilan qiyoslab o‘rganish.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i>
1. Ta’limning mazmuni haqida umumi tushuncha, uning mohiyatini anglab olinishiga erishish.	1. Ta’limning mazmuni, uni belgilashga doir yondashuvlar haqida umumi tushunchaga ega bo‘lishadi
2. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlardan mazmuni va ular bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.	2. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o‘rganadilar, ular bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

3. Mutaxassislik bo'yicha umumiyl o'rta ta'lim DTSi bilan tanishtirish. Darslik va o'quv qo'llanmalarning ta'lim mazmunini yoritishdagi ahamiyatini aniqlashtirish.	3. Mutaxassislik bo'yicha umumiyl o'rta ta'lim DTSi bilan tanishib, darslik va o'quv qo'llanmalarning ta'lim mazmunini yoritishdagi ahamiyati haqida aniq xulosalarga kelishadi.
4. O'zbekistonidagi ta'lim mazmunini chet el (AQSh, Yaponiya va boshqa) ta'lim mazmuni bilan qiyoslashga o'rgatish.	4. Bir qator chet el (AQSh, Yaponiya va boshqa) davlatlari ta'lim mazmuni bilan tanishib, O'zbekistonidagi ta'lim mazmuni bilan qiyosiy tahlil qilishadi.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Aqliy hujum, Blits so'rov, FSMU, amaliy mashq
<i>O'qitish vositalari</i>	Komp'yuter texnologiyasi, amaliy mashg'ulot ishlanmasi, slaydlar.
<i>O'qitish shakli</i>	Individual va jamoa bo'lib ishslash
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Savol-javobli so'rov, o'quv topshiriqlari, darslik tahlili.
Baholash mezonlari	Jami: 5 ball 1. Adabiyotlar bilan ishslash va konspekt qilish. - 2 ball 2. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar bilan ishslash - 2 ball 3. FSMU tahlili uchun- 1 ball

Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (5 daqiqa)	1.1. Mashg'ulotning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, yozib oladi
	1.4. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2-ilova)	Tinglaydi
2-bosqich Asosiy jarayon (65 daqiqa)	2.1. Ta'lim mazmunini ya'ni o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq doirasini nima uchun bilish zarurligini "Aqliy hujum" usuli asosida yoritishni tavsiya etadi (3-ilova)	Aqliy hujumda ishtirok etib, o'z qarashlarini bayon etishadi. Blis-surov savollariga javoblari bilan ishtirok

	<p>2.2.Ta’lim mazmuni va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni aniqlashtirishga oid Blits-so‘rov savollarini beradi (4-ilova). FSMU jadvalini asosida “O‘zbekistonda ta’limning mazmuni takomillasjtirish lozim” (5-ilova) fikrini tahlil qilishni topshiradi</p> <p>2.2. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o‘rganishga doir amaliy topshiriqlar bajarishni topshiradi (6-8-ilova).</p> <p>2.3. O‘zbekistondagi ta’lim mazmunini chet el (AQSh, Yaponiya va boshqa) ta’lim mazmuni bilan qiyoslab o‘rganishni tashkil etadi (9-11-ilova)</p>	<p>etishadi.</p> <p>“O‘zbekistonda ta’limning mazmuni takomillasjtirish lozim”ligini FSMU metodi orqali yoritishadi</p> <p>Amaliy topshiriqlarni bajarish orqali me’yoriy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi</p> <p>Qiyosiy tahlilga o‘rganishadi.</p>
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1 Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalarning baholari e’lon qilinadi</p> <p>3.3 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va mustaqil ta’lim topshirig‘ini beradi (13-Ilova).</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Topshiriqlarni qabul qilib oladilar.</p>

Topshiriq va ilovalar

1-ilova

Mavzu: TA’LIMNING MAZMUNI

Reja:

1. Ta’lim mazmuni tushunchasi. Mutaxassislik fani bo‘yicha o’quv reja, dastur va darsliklar bilan tanishish, ularni tahlil etish.
2. Mutaxassislik bo‘yicha umumiy o’rta ta’lim DTSni o‘rganib, fan bo‘yicha kalendar reja tuzishni mashq qilish.
3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g’oyalar mazmun-mohiyatini yoritish.
4. O‘zbekistondagi ta’lim mazmunini chet el (AQSh, Yaponiya va boshqa) ta’lim mazmuni bilan qiyoslab o‘rganish.

Talabalarni mashg`ulot bo`yicha baholash mezonlari

Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konsept qilish. - 2 ball
2. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash - 2 ball
3. FSMU tahlili uchun- 1 ball - 1 ball

1. «Nima uchun o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq doirasini (ta'lim mazmunini) belgilab olish lozim?» mavzusida Aqliy hujumni o'tkazishga doir ko'rsatmalar

1. O'qituvchi savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muxokama kiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

Ta'lim mazmuni va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni aniqlashtirishga oid blits-so'rov savollari

1. Ta'lim mazmuni deganda nima tushuniladi?
2. Ta'lim mazmuni qanday talablar asosida tanlanadi?
3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ta'lim mazmunini belgilashdagi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?
4. Formal ta'lim nazariyasining asosiy g'oyasi nimadan iborat edi?
5. «Ko'p bilim aql o'rgata olmaydi» iborasini qanday izohlash mumkin?
6. Formal ta'lim nazariyasi tarafдорлари qanday falsafiy oqimga tayanadilar?
7. Moddiy ta'lim nazariyasining asosida qanday g'oya yotadi?

8. Qaysi pedagog olimlar formal va moddiy ta’lim nazariyasini birlashtirish g‘oyasini ilgari surdilar?

9. Pragmatik yondashuv asosini nima tashkil etadi?

5-ilova

FSMU jadvalini asosida “O‘zbekistonda ta’limning mazmuni takomillashtirish lozim” fikrini tahlil qiling

Savol	O‘zbekistonda ta’limning mazmuni takomillashtirish lozim
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

6-ilova

Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o‘rganishga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Umumiyligi o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta’lim muassasalarining tarmoq standartini quyidagi chizma asosida tahlil eting

Umumiyligi o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta’lim muassasalarini tarmoq standartining tuzilishi	Mazmuni
1. Qo‘llanilish sohasi	
2. Me’yoriy hujjatlari	
3. Standartning maqsad va vazifalari	
4. Ta’riflar	
5. Kasbiy tavsifnomasi	
6. Kasb-hunar tayyorgarligining majburiy minimumi	

7-ilova

2-topshiriq. Quyidagi sxema asosida o‘rta-maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasini tahlil eting

O‘quv jarayoni jadvali bo‘yicha:

O‘quv jarayonining tuzilishi	Haftalar soni
Nazariy va amaliy ta’lim	
Malakaviy amaliyotlar	
Bitiruv malakaviy ishi	
Joriy va davlat attestatsiyalari	
Ta’tillar	
Jami:	

O‘quv rejasini o‘rganish:

O‘quv fanlari, integrallashgan kurslar va bloklarning nomlari	Umu-miy o‘quv Yuklama	Jami	Naza-riy	Labora-toriya	Ama-liy	Semi-nar	Kurs ishi	Musta-qil ta’lim

8-ilova


3-topshiriq. Quyidagi chizma asosida biror bir fanning o‘quv dasturini tahlil eting.

Tushuntirish xati (tuzilishi va mazmuni)	Asosiy qism (tuzilishi va mazmuni)	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (tuzilishi va mazmuni)

9-ilova

O‘zbekistondagи ta’lim mazmunini chet el (AQSh, Yaponiya va boshqa) ta’lim mazmuni bilan qiyoslab o‘rganish. J.Yo‘ldoshevning “Xorijda ta’lim”, M.Abbasovaning “Razvitiye obrazivaniya v zarubejnih stranax. (1950-1990)”, “Fransiyada ta’lim tizimi” kabi asarlari va internet ma’lumotlari asosida qator rivojlangan davlatlat ta’lim tizimi va ulardagи ta’lim mazmuni o‘rganiladi va O‘zbekiston ta’lim tizimi bilan qiyoslanadi.

Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishing va O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qiyoslang!



10-ilova




Germaniyada majburiy ta'lim

- Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan bolalarga tegishli, ya'ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy mifikatlar ozroq. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang`ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar.

11-ilova

Hozirgi zamон Yapon ta'lim tizimi tarkibi:



12-ilova

4-topshiriq (mustaqil ish)

1. Mutaxassisliginigizga oid darslikdan birorta o'quv materialini tanlab, quyidagi ishlarni bajaring:

- o‘quv materialini o‘quv elementlariga ajrating;
- o‘quv elementlari bo‘yicha beriladigan savollarni belgilang;
- o‘quv materiali mazmunini hisobga olib kurgazma quroq yasang;
- mazmunga mos keladigan o‘quv topshiriqlari tiplarini aniqlang.

2. Darslikka qo‘yilgan talablar mohiyatini yoriting.

3. Mutaxassislik fani bo‘yicha darsliklar bilan tanishib chiqing. quyidagi savollar bo‘yicha uni ta’riflab bering: a) darslikda kitobning mazmuni, maqsad va vazifalari; b) kirish so‘zining mavjudligi; v) kitob bilan ishslash davomida o‘quvchilarni faollashtirish yo‘lida foydalilanigan usullar; g) kitobning ko‘rgazmali materiallari, ularning darslik matni bilan bog`langanligi; d) paragraf yoki bo‘lim oxirida rezyume yoki xulosalarning mavjudligi; j) kitobning tashqi ko‘rinishi (qog‘oz, shrifti, rasmlari, muqovasi).

Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Ta’lim mazmuni

- "Ta’lim to’g’risida"gi qonunda ta’kidlanishicha, ta’limning mazmuni har bir o’sib kelayotgan yosh avlodni hayotga va dunyoviy demokratik jamiyat baxt - saodati yo’llidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilanadi.

Ma’lumot mazmuni - yoshlarning ma’lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini mo’ljallab hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiylashtirishini didaktik ishlov berish yo’li bilan tanlangan bilimlar, ko’nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlardir.

Ta’lim mazmuni- yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko’nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur xodisalarini emotSIONAL baholashga doir munosabatlardir. Ta’lim mazmuni ma’lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta’lim mazmunini o’rgatish va o’zlashtirish yo’li bilan ma’lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, yoshlarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga qarab boriladi.

Ta’lim mazmunini tanlasning “Moddiy ta’lim nazariyasi va “Formal ta’lim nazariyasi” mohiyatlarini o’rganib, munosabat bildiring. Moddiy ta’lim nazariyasi XIX asrning keyingi choragida kirib keldi. (1879 y, F.Doerfeldning «Didaktik meterializm» kitobida). Moddiy ta’lim nazariyasi asoschilari maktabning vazifasi bolalarga imkoniyati yetguncha ko‘proq bilim o‘rgatishdan iborat deb hisoblardilar.

Formal ta’lim tushunchasi 1791 yili (E.Shmidtning «Empirik psixologiya» kitobida) ishlatalgan. Formal ta’lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko‘rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o‘zi istagancha, o‘z qobiliyatiga yarasha o‘rganadi.

Ta’lim mazmunini aks ettiruvchi me’yoriy hujjatlar

1. Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari
2. O’quv rejasи
3. Oquv dastiri
4. Darslik

Davlat ta’lim standartining maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’limning **malaka talablari** quyidagilardan tashkil topadi: bilim – o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko‘nikma – o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish; malaka – o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llayolish qobiliyati.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi keng ko‘lamdagи didaktik bilimlarga pedagogik mahoratga ega bo‘lishi bilan birga pedagogik me’yoriy hujjatlar bilan

ish olib borishni ham bilishi lozim. Bundan tashqari u rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimi va uning mazmunidan ham atroficha xabardor bo‘lishi talab etiladi. Shundagina o‘qituvchi hozirgi kun talablari darajasida ta’lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ta’lim mazmuni deb nimaga aytildi?
2. Ta’lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushiniladi?
4. Ta’lim mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering.
5. Ta’lim mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta’lim standarti nima va u qanday komponentlardan iborat?
7. Tayanch o‘quv rejasiga izoh bering.
8. O‘quv dasturida qanday masalalar o‘z aksini topadi?
9. O‘quv-metodik majmua nima va u o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
10. Mutaxassislik fani bo‘yicha umumiyl o‘rta ta’lim davlat standartlari bilan guruhda tanishib chiqib uning mohiyatini qisqacha izohlang.

3-§. Ta’lim tamoyillari va metodlaridan umumiyl ta’lim tizimida foydalanish imkoniyatlari

Tayanch tushunchalar

Tamoyil, prinsip, ta’lim prinsipi, metod, usul, uslub, vosita, ta’lim metodi, og’zaki bayon metodi, hikoya, suhbat, ma’ruza, illyustratsiya, demonstratsiya, ekskursiya, yozma mashq, laboratoriya ishlari, muammoli usul, reproduktiv usul, muammoli vaziyat yaratish, induktiv usul, deduktiv usul, o‘quv faoliyatini rag`batlantirish, tanbeh berish

Mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25-30 gacha</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>amaliy</i>
<i>Mashg‘ulot rejasি</i>	<p>1. Ta’lim qonuniyatлari va ularning mohiyatini o‘rganish.</p> <p>2. Ta’lim tamoyillarinig mohiyati va ularning o‘zaro bog‘liqligi.</p> <p>3.“T-chizma” va “Klaster” asosida ta’lim metodlarini tahlil qilish hamda ta’lim metodlariga oid topshiriqlar bajarish</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	talabalarning ta’lim jarayoni, uning qonuniyatлari va tamoyillari, ta’lim metodlariga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ta’lim qonuniyatлari va tamoyillaridan foydalanish, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i>
1.Talabalarning ta’lim qonuniyatлari va tamoyillarinig mohiyatini tushunganligini aniqlash	Ta’lim qonuniyatлari va tamoyillarinig mohiyatini o‘zlashtiradilar. «Qonun», «qonuniyat» va «tamoyil» tushunchalariga ta’rif beradilar. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatлarini izohlab, mohiyatini ochib beradilar
2. Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasining hozirgi kundagi ahamiyatini ochib berish yuzasidan topshiriqlar beradi.	Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasining mohiyati va ahamiyatini ochish yuzasidan topshiriqlarni bajarishadi.
3. Ta’lim metodlarini uzlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiradi 4.Ta’lim vositalarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanishga oid amaliy topshiriqlar beradi	Ta’lim metodlarini uzlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni bajarishadi Ta’lim vositalarining mohiyati, turlari va ulardan foydalanishga oid amaliy topshiriqlarni bajaradi. Didaktik tarqatma materiallar tayyorlash malakasiga ega bo‘ladilar
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	Amaliy topshiriqlar, “Klaster” T-chizma, chalkashirilgan mantiqiy zanjir
<i>O‘qitish vositalari</i>	Komp‘yuter texnologiyasi, O‘UM, amalaiy mashg‘ulot ishlanmasi, slaydlar.
<i>O‘qitish shakli</i>	Individual, guruhli va jamoa bo‘lib ishslash
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og‘zaki nazorat, savol-javobli

	so‘rov, o‘quv topshiriq.
Baholash	<p>Jami: 5 ball</p> <p>1. Adabiyotlar bilan ishslash va konspekt kilish. - 1 ball</p> <p>2. Ta’lim tamoyillari va metodlarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga doir amaliy topshiriqni bajarish - 2 ball</p> <p>3. Ko‘rgazmali vositani tayyorlash va taqdimot qilish - 2 ball</p>

Darsning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqtὶ	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma‘ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baxolash mezonlarini e’lon qiladi (2- ilova)	Tinglaydi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1.Ta’lim jarayoni va uning umumiy hamda xususiy qonuniyatlarini o‘rganishga oid topshiriqlar beradi (3-4-ilova) 2.2. Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar shaklida topshiriqni bajarishga beradi (5-ilova)	Ta’lim jarayonining umumiy va xususiy qonuniyatlarini o‘rganishga oid topshiriq bajaradi Ta’limning tamoyillarini aniqlashga oid vazifa bajaradi
	2.3. “Ta’lim metodlarining mohiyati, mazmuni va uning o‘ziga xosliklari masalasini Klaster usulida yoritishni topshiradi (6-ilova). Ta’lim metodlaribo‘yicha chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini yechishni taklif etadi (7-ilova) 2.4. Ta’lim metodlarini “T-Chizma”dan foydalangan halda yoritishni taklif qiladi (8-ilova). Ta’lim metodlarini qo‘llashga doir amaliy topshiriqlar beradi (9-ilova)	Klaster usulida ta’lim metodlari turlarini yoritishadi Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini yechishadi “T-Chizma” usulida tahlil qiladilar Amaliy topshiriqlarni bajarishadi
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Uyda tayyorlanib kelingan didaktik tarqatma materiallar, vositalar,	didaktik tarqatma materiallarni

	ko‘rgazmalarni nazorat qiladi, baholaydi (10-ilova)	namoyish etadi
	3.3 Navbatdagi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi va mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi	Tayyorgarlik ko‘rishadi.

1-ilova

TA’LIM TAMOYILLARI VA METODLARIDAN UMUMIY TA’LIM TIZIMIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Mashg‘ulot rejasi

1. Talim qonuniyatlarini o`raganing va ularning mohiyatini yoriting.
2. Talim tamoyillarinig mohiyatini yoriting va ularning o’zaro bog’liqligini ko`rsating.
- 3.“T-chizma va Klaster asosida ta’lim metodlarini tahlil qiling hamda ta’lim metodlarini o’rganishga oid bir qator topshiriqlarni bajaring

2-ilova

Baholash mezonlari

Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. - 1 ball
2. Ta’lim tamoyillari va metodlarini o’quv jarayoniga qo’llashga doir amaliy topshiriqni bajarish - 2 ball
3. Ko‘rgazmali vositani tayyorlash va taqdimot qilish - 2 ball

3-ilova

Ta’limning umumiyligi qonuniyatlariga doir topshiriqlar

1.1. Quyidagilar orasidan ta’lim maqsadini belgilovchi qonuniyatlarni aniqlang.

1) jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi; 2) ijtimoiy va ilmiy-texnik tarakkiyot sur’ati; 3) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 4) jamiyatning talablari va imkoniyatlari; 5) o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari; 6) pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari

1.2. Quyidagi qonuniyatlarni ta’lim jarayonining qaysi tarkibiy qismiga tegishli deb hisoblaysiz?

1) avvalgi bosqich maxsuldarligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; 2) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish; 4) o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatları va ta’lim vaqtı.

1.3. Ta’lim metodlari samaradorligi quyidagi qaysi qonuniyatlarni hisobga olish bilan bog’liq?

1) ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiyaga; 2) ta’limning ichki rag’batlariga; 3) ta’lim maqsadiga; 4) o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari; 5) ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minotiga.

1.4. *Quyidagi qonuniyatlardan qaysilari ta’lim sifatini ta’minalashga xizmat qiladi?*

1) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 2) ta’lim nazariysi va amaliyotining rivojlanish darajasi; 3) ta’limning ijtimoiy extiyojlari va maqsadlari; 4) avvalgi bosqich maxsuldarligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar.

1.5. *Ta’lim mazmunini belgilashda qaysi qonununiyatlarga amal qilish lozim?*

1) ta’limning ijtimoiy extiyojlari va maqsadlari; 2) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati; 4) o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlari; 4) ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiya; 5) ta’lim nazariysi va amaliyotining rivojlanish darajasi.

4-ilova

Ta’limning xususiy qonuniyatlariga doir topshiriqlar

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularni ta’limning qaysi xususiy (tashkiliy, sotsiologik, psixologik, kibernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

I. Ta’lim natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalariga; ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati hajmiga; bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo’llanilishiga; o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘zaro aloqador bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog’liq.

II. Ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darjasи, kuchi, jadallиги va o‘ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog`liq.

III. Ta’lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to‘g‘ri olib borilishiga; ta’lim sifati o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga oid axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog`liq.

IV. Individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo‘ladigan individlarning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi «intellektual muhit»ning mavjud holatiga, o‘zaro bir-biriga o‘rgatishning jadalligiga; o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog`liq.

V. Ta’lim natijasi o‘quvchining o‘quv mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatlariga munosabatiga; o‘quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o‘quvchilarning aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg‘ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog`liq.

5-ilova

Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar

Quyida keltirilgan ta’limning tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko‘ra ikki tur (mazmunli va tashkiliy-metodik)ga ajratng.

1. Insonparvarlik. 2. Tabiat bilan uyg‘unlik. Ko‘rgazmalilik. 3.Onglilik, faollik, ijodiylik 4. Madaniyat bilan uyg‘unlik. 5.Tushunararlilik, 6. Ilmiylik. 7. Ta’limning amaliyot bilan uyg‘unligi. 8.Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik. 9. Tarbiyalovchi ta’lim. 10. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish. 11. Odilona talabchanlik bilan ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

Ta’limning mazmunli tamoyillari	Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari

6-ilova



7-ilova

Ta'lim metodlaribo'yicha chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini yechishni taklif etadi

- 1.Suhbat.
- 2.Tushuntirish.
- 3.Ma'ruza.
- 4.Mashq.
- 5.Illustratsiya.
- 6.Demonstratsiya.
- 7.Didaktik o'yin.
- 8.Kitob bilan ishslash.
- 9.Videometod.
- 10.Hikoya.
- 11.Amaliy.
- 12.Laboratoriya.

Topshiriqni bajarishga doyr kursatma:

- 1) chalkashtirilgan holda berilgan ta'lim metodlari bilan tanishing;
- 2) metodlarni jadvalda mos ustunga yozib chiqing.

Og'zaki metodlar	Amaliy metodlar	Ko'rgazmali metodlar

8-ilova

Ta'lim metodlari bilan atroflicha tanishiladi hamda ularni solishtirib o'rghanish maqsadida quyidagi shakldagi "T-Chizma"dan foydalanamiz (uning mohiyati va qo'llanish qoidalari oldingi mavzularda berilgan)

Ta'limning og'zaki metodlari		Ta'limning amaliy metodlari		Ta'limning muammoli metodlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchilligi	Afzalligi	Kamchiligi

9-ilova

Ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Mutaxassislik fanningiz bian bog'liqlikda quyidagi metodlarni har birini qo'llashga doir bittadan misol yozing.

1) suhbat; 2) o‘quv munozarasi; 3) mashq; 4) kitob bilan ishslash.

2-topshiriq. Kichik guruhlarga bo‘lining va og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy metodlardan birini tanlab olib, biror mavzu misolida metodni amaliyotda qo‘llab ko‘rsating

10-ilova

Mutaxassislik fani bilan bog‘liqlikda ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga oid zaruriy ko‘rsatmalar:

- 1) mutaxassislik faningiz bo‘yicha biror mavzuni tanlab oling;
- 2) mavzu mohiyati bilan bog‘liq chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
- 3) ko‘rgazmali vositani izohlashsga doir tavsifnoma yozing.

Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Ta’lim jarayoni qonuniyatları. Pedagogikada qonuniyatlar – bu qonunlarning aniq sharoitdaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta’lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko‘rib bo‘lmaydi

Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob’yektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik **ta’lim qonuniyati** deb ataladi

Ta’limning umumiyligi qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

ta’limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog‘liqlikda aniqlashtiriladi;

ta’lim mazmunini belgilashda ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati; o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgibosqichda erishilgan natijalar; o‘rganilayotgan material xususiyatiga hajmi; o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish: o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqtiga bog‘liq;

ta’lim metodlari samaradorligi ta’lim maqsadiga; o‘quvchilar- ning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlariga; ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minotiga bog‘liq;

ta’limni boshqarish samaradorligi ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta’sir ko‘rsatishning asoslanganligiga bog‘liq;

ta’limda rag’batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Ta’limning xususiy qonuniyatları:

gnoseologik: ta’lim natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalariga; ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati hajmiga; bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo‘llanilishiga; o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘zaro aloqador bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq;

psixologik: ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darjasasi, kuchi, jadalligi va o‘ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog‘liq;

kibernetik: ta’lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to‘g‘ri olib borilishiga; ta’lim sifati o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog‘liq;

sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo‘ladigan individlarning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi “intellektual muhit”ning mavjud holatiga, o‘zaro bir- biriga o‘rgatishning jadalligiga; o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog‘liq;

tashkiliy: ta’lim natijasi o‘quvchining o‘quv mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatlariga munosabatiga; o‘quvchining ishchanlik qobiliyatiga;

o‘quvchilarning aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg‘ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog‘liq.

Ta’lim tamoyillari o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang‘ich qoidalardir

Ta’lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg‘unlik; madaniyat bilan uyg‘unlik; ilmiylik; ta’limning fundamentalligi va amaliy yo’nalganligi; ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi.

Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta’limning tizimligi va izchilligi; ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik; ko’rsatmalilik; ta’limning o‘quvchilarga mos bo’lishi; ta’limda bilim ko’nikma va malakalarni puxta va mustahkam o’zlashtirish tamoyili; tushunarlik.



Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallahsga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig’indisi tushuniladi.

Ta’lim usuli – o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarining bilim saviyasi, o‘zlashtirish qobiliyati, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

- ta’limning og‘zaki metodi;
- ta’limning amaliy ishlar metodi;
- ta’limning ko‘rgazmali metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- o‘qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;
- o‘qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o‘qitishda rag’batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o‘qitishda nazorat va o‘z-o‘zining nazorat qilish metodi.

Ta’lim vositalari. Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birlgilikda qo‘llaniladi. Ta’lim vositalari – bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob’yekt. Bu vositalari katta ahamiyatga ega. Ta’lim vositalari ta’lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

An’anaviy ravishda qo‘laniladigan ta’lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o‘quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriylar, didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ta’lim samarali bo‘lishida ta’lim tamoyillarining o‘rnini qanday tushunasiz?
2. Ta’lim tamoyillaridan qay biriga yetakchilik, ustunlik rolini bergan bo‘lardingiz, nima uchun?
3. Qanday hollarda suhbat usuli qo‘llaniladi? Uni qo‘llashda qanday qoidalarga amal qilish lozim?
4. O‘quv informatsiyasini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qanday?
5. Ko‘rgazmalilikning qanday turlari mavjud?
6. O‘qitishning amaliy metodlariga misollar keltiring.
7. Ta’lim vositalari nima?
8. Didaktik vositalarga nimalar kiradi?

4-§. Ta’limni tashkil etish shakllari

Tayanch tushunchalar

Ta’lim shakli, dars, sinf-dars tizimi, Yan Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari, darsga qo‘yilgan talablar, darsning xil (tip)lari, seminar va amaliy tajriba ishlari, noan’anaviy shakllar, noan’anaviy dars.

Mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25-30 gacha</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>Amaliy</i>
<i>Ma’ruza rejasi</i>	<p>1.Ta’limning assosiy shakli-dars va unga qo‘yilgan talablarni aniqlashtirish.</p> <p>2. Darsning xil (tip)lari va ularning tuzilish shakllari bilan tanishish.</p> <p>3. An’anaviy va noan’anaviy dars turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish</p> <p>4. Mutaxassislik bo‘yicha bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash va uni taqdimot qilish.</p>

<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Talabalarda o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi, dars strukturasi, elementlari va tiplari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish hamda darsni tashkil etish va o‘tkazishga doir ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish</p>	
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijsasi:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘quv jarayonini tashkil etish haqidagi tushunchalarni boyitish. 2. Dars va unga qo‘yiladigan talablarning o‘zlashtirilishi-ga erishish. 3. Darsning turlarini farqlay olish va ularning tuzilishidagi o‘ziga xosliklarni ajrata olishga o‘rgatish. 4. An’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishadi. 5. Mutaxassislik bo‘yicha bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash va uni taqdimot qilishni topshiradi 	<ol style="list-style-type: none"> 1.O‘quv jarayonini tashkil etish haqida tushunchagalari kengayadi. 2. Dars va unga qo‘yiladigan talablarni bilib olishadi 3. Darsning turlarini farqlaydilar hamda ularning tuzilishini o‘rganadilar. 4. An’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishadi. 5. Darsni loyihalash va rejalashtirishni o‘zlashtiradilar, taqdimot qilishadi.
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	“Klaster”, B-B-B texnikasi, Insert
<i>O‘qitish vositalari</i>	Komp‘yuter texnologiyasi, «Umumniy pedagogika” fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmua), slaydlar.
<i>O‘qitish shakli</i>	Individual va jamoa bo‘lib ishslash
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Savol-javobli so‘rov, o‘quv topshiriqlari.
<i>Baholash mezonlari</i>	<p>Jami: 5 ball</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Adabiyotlar bilan ishslash va konsept qilish. - 1 ball 2. An’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish - 2 ball 3. Bir soatlik dars ishlanmasini tuzish - 2 ball

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Mashg‘ulotning mavzusi, rejasini e’lon qiladi (1-ilova)</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi (2-ilova)</p> <p>1.3. O‘tilgan nazariy mavzu yuzasidan Blits so‘rov savollarini e’lon qiladi (3-ilova)</p>	<p>Tinglaydi</p> <p>Yozib oladi Blits so‘rov savollariga javob berishadi</p>
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	<p>2.1. “Ta’limni tashkil etish turlari”ni «Klaster» usulidan foydalangan holda tahlil etishni topshiradi(4-ilova)</p> <p>2.2. Ta’limni tashkil etish shakllari va sinf-dars tizimiga oid amaliy mashqlar tavsiya etadi (6-ilova)</p> <p>2.2. “Dars strukturasi, elementlari va ularga qo‘yiladigan talablar” bo‘limini yoritishda «Kichik guruhlarda ishslash» orqali amalga oshirilishini e’lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (7-ilova). Qo‘srimcha ma‘lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e’tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi va umumlashtiradi.</p>	<p>“Ta’limni tashkil etish turlari”ni «Klaster» usulida tahlil qilishadi Amaliy mashqlar bajarishadi.</p> <p>Savollarga javob beradilar, erkin bahsmunozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.</p>
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1 Mavzu bo‘yicha umumiylar xulosa qilinadi.</p> <p>3.2. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi (8-ilova)</p> <p>3.3 Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va “insert” usulida jadvalga mustaqil ta’limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi (9-Ilova).</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Javob yozadi</p> <p>”Insert” usulida jadvalni to‘ldiradi.</p>

1-ilova

Mavzu: **Ta'limni tashkil etish shakllari**
Reja:

1. Ta'limning asosiy shakli-dars va unga qo'yilgan talablarni aniqlashtirish.
2. Darsning xil (tip)lari va ularning tuzilish shakllari bilan tanishish.
3. An'anaviy va noan'anaviy dars turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish
4. Mutaxassislik bo'yicha bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash va uni taqdimot qilish.

2-ilova

Baholash mezoni


Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. - 1 ball
2. An'anaviy va noan'anaviy dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish - 2 ball
3. Bir soatlik dars ishlanmasini tuzish - 2 ball

3-ilova

Blits so'rov

1. Zamonaviy ta'limning asosiy turlarini sanab bering.
2. Dastlab ta'lim qanday shaklda tashkil etilgan?
3. Sinf nima?
4. Dars nima?
5. Sinf-dars tizimining asoschisi kim?
6. Sinf-dars tizimi qachon yuzaga kelgan?
7. "Buyuk didaktika" asari muallifi kim?
8. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
9. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?
10. Darsning qanday tip(tur)lari mavjud?
11. Darsga qanday maqsadlar qo'yiladi?
12. Noana'naviy ta'lim markazida kim turadi.



Topshiriq. Quyidagilar nimani bildiradi va u qayerda keltirilgan?

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash

Quyidagilarni mosi javobi bilan juftlang

<u>Ta'limning yazifasi</u>	aniq maqsadni ko‘zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagи o‘quvchi, yoshlar bilan o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg‘ulotlardir. U - o‘z oldiga qo‘yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat
<u>Darsning maqsadi -</u>	yoshi va bilim darajasi bir xil bo‘lgan o‘quvchilar guruhi tushuniladi.
<u>Sinf</u>	o‘qituvchining rejalshtirgan aniq bir mavzusini o‘quvchilarga bildirishi va o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirib ko‘rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish

<u>Darsning mazmuni</u>	uni o‘qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma’noga ega matn tashkil etadi. Uni o‘quvchilar ongiga singdirish jarayonida manba, xulosa va hikoyalardan foydalanadi
<u>Dars</u>	yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

7-ilova

Darsga qo‘yilgan didaktik, tarbiyaviy va tashkiliy talablarni mos ravishda quyidagi jadvalda belgilang:

1. Har bir dars aniq maqsadni ko‘zlagan holda puxta rejalashtirilmog‘i lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya’ni qanday tamomlash, ko‘rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

2. Har bir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyat bilan bog‘lanmog‘i, ko‘rsatmali vositalar bilan jihozlanmog‘i lozim.

3. Darsda o‘rganiladigan o‘quv materiallari bo‘yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish

4. Har bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalangan holda tashkil etilishi lozim.

5. Nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish

6. Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

7. Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faol munosabatda bo‘lishi lozim, o‘quvchi-talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.

8. Dars uchun puxta o‘ylangan konspekt yoki reja tuzish;

9. Darsning logikasiga (dars etaplarining o‘zaro bog‘liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar; o‘quv topshiriqlarining o‘zaro aloqadorligiga) rioya qilish;

10. Dars uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish;

11. Mashg‘ulotlar butun sinf bilan va har bir o‘quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda olib borilishi kerak.

12. Dars tempini o‘quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish

Didaktik talablar	Tarbiyaviy talablar	Tashkiliy talablar

8-Ilova

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Mutaxassislik fani bo‘yicha dars maqsadini qo‘yish va vazifalarini belgilashga o‘rganish
2. Darsning texnologik xaritasini tuzishni o‘rganish.
3. Mutaxassisligingizga oid darslikdagi biror mavzu asosida noan’anaviy shakldagi mashg‘ulot uchun ishlanma tuzing (Turli interfaol usullardan foydalanib). Darsni loyihalashtirish. Texnologik xarita tuzing.
4. O‘qituvchining darsga tayyorlarligi. Dars tahlili, uning turlari va vazifalari. Dars tahlilidan namuna tayyorlang
5. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim shakllariga munosabatingizni yozma bayon eting. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim shakllarini «T- CHIZMA» METODI asosida tahlil qiling.

Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Ta’limni tashkil etish **shakli** – bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma’lum rejimda tashkil etiladigan o‘quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasıdir.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli **ta’limning individual shakli** hisoblanadi. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va sur’atini to‘la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi; 2) aniq bir masalani hal	1) vaqtning tejamli emasligi; 2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi (o‘qituvchining vazifasi o‘quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan

etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.	iborat); 3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi); 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.
--	--

Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning xizmatlari katta, uni sinf - dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

A.Ya.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil etish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtida boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishi, guruhdagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plash, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; 2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; 3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsiyal ta'sir ko'rsatishi; 4) ta'limning emotsiyonalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhibilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi; 5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish	1)tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi; 2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; 3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzagakelishi; 4) turli yoshli o'quvchilar

sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.	o‘rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.
--	--

Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari. Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);
- c) yangi mavzuni bayon qilish;
- d) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- e) o‘quvchilarni baholash;
- f) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) yangi mavzuni bayon qilish;
- c) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) uy vazifasini berish.

O‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilgan mavzularga doir savol-javob o‘tkazish;
- c) o‘rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
- d) o‘quvchilarni baholash.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o‘tkazish;
- g) uy vazifasi (o‘rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) laboratoriya ishini o‘tkazish;
- g) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Darsga qo‘yilgan tashkiliy talablar:

- ▶ Dars uchun puxta o‘ylangan konspekt yoki reja tuzish;
- ▶ Darsning logikasiga (dars etaplarining o‘zaro bog’liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar; o‘quv topshiriqlarining o‘zaro aloqadorligiga) rioya qilish;
- ▶ Dars tempini o‘quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish;
- ▶ Dars uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish;
- ▶ Darsda ongli intizomni tashkil etish.

Darsga qo'yilgan didaktik talablar:

1. Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi.
2. Har bir dars aniq g'oyaviy mafkurafiy izlanishga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim.
3. Har bir dars matabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyat bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali bo'lmog'ilozim.
4. Har bir dars xarakteriga mos usul va vositalardan samarali foydalangan holda tashkil etilishi lozim.
5. Dars uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor
6. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faol munosabatda bo'lishi lozim, o'quvchi-talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi lozim.
7. Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilishi kerak.

Darsga quyilgan tarbiyaviy talablar:



Dars quydagilar asosida tiplarga ajratiladi

1. Darslarning asosiy maqsad va mazmuniga qarab turlariga bo'lish.
2. Darslarni o'qitish jarayonining tahliliga qarab turlarga bo'lish.
3. Darslarni tuzilishiga qarab turlarga bo'lish.

Dasrlarni turlarga ajratishda birinchi qoida eng ob'ektiv va ma'quldir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Hozirgi vaqtida ta’limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
2. Ta’limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
3. Sinf-dars tiziminining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Ma’ruza-seminar tizimining o‘ziga xosligini izohlang.
5. Dars deb nimaga aytildi?
6. Darsning qanday turlari mavjud?
7. Darsga qo‘yiladigan talablarni tushuntirib bering.
8. O‘quvvachining darsga tayyorgarlik ko‘rishi qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
9. Ta’limni tashkil etishning noana’naviy shakllariga misollar keltiring.
10. Aralash darsning tuzilish tarkibini tushuntirib bering.

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI

5-§. Tarbiyaning qonuniyatları, prinsiplari va metodlari

Tayanch tushunchalar

Tarbiya, tarbiya nazariyasi, tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatları, tarbiya tamoyillari, tarbiya metodlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash usuli, ijtimoiy ongi shakllantirish usuli, mashq va o‘rgatish usuli, rag`batlantirish va jazolash usuli

Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir.

(Abdulla Avloniy)

Mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25-30 gacha</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>amaliy</i>
<i>Mashg‘ulot rejasি</i>	<p>Tarbiya jarayoni uning maqsad va vazifalarini o‘rganis</p> <p>2. Tarbiya jarayoni qonuniyatları va tamoyillariga oid mashqlar bajarish</p> <p>2. Tarbiya metodlari, ularning klassifikatsiyasi bilan tanishish.</p> <p>4. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘quv yili rejasida ko‘rsatilgan biror bir tarbiyaviy soatlar yoki tadbirlarni tabiya metodlaridan foydalangan holda ssenariysini ishlab chiqish.</p> <p>5. Tarbiya jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan turli xil pedagogik muammolarni ishlab chiqish</p>

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

Ta’limiy maqsad: ijtimoiy tarbiyaning maqsad, vazifalari va mazmunini yoritib berish, pedagogik mahoratni shakllantirish, hamda jamiyatning tarbiya oldiga quyayotgan talablari to‘g‘risida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: Tarbiya qoidalarini o‘rganish orqali ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, o‘quvchilar shaxsini hurmatlash kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash; tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli; mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishda tarbiya jarayonining ahamiyati.

Rivojlantiruvchi maqsad: tarbiya qoidalari va metodlarini tarbiya jarayonida to‘g‘ri tanlab bilishni o‘rgatish, o‘zlashtirishi past bo‘lgan talabalarga alohida topshiriqlar berib, ularni faollashtirish.

Pedagogik vazifa:	O‘quv faoliyatining natijasi:
<p>1.Tarbiya jarayoni va uning mohiyati haqidagi bilim va ko‘niknalarni hosil qilish</p> <p>2.Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari, ularning inson faoliyatidagi ahamiyatini tushuntirish.</p> <p>3. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlay olishga o‘rgatish hamda tarbiya metodlari tasnifining o‘zlashtirilishiga erishish.</p> <p>4. Shaxs ongini shakllantirish metodlarini amaliyotda qo‘llay olish tajribasini hosil qilish.</p> <p>5. Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish.</p> <p>6. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlarini to‘g‘ri qo‘llash mahoratini tarkib toptirish.</p> <p>7. Tayyorlab kelingan tarbiyaviy tadbirlar bilan tanishish va baholash</p>	<p>1.Tarbiya jarayoni va uning mohiyati haqida umumiy bilim hosil bo‘ladi</p> <p>2.Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari, ularning inson faoliyatidagi ahamiyatini haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladi</p> <p>3. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlaydilar hamda tarbiya metodlari tasnifini o‘zlashtiradilar.</p> <p>4. Shaxs ongini shakllantirish metodlarini amaliyotda qo‘llash tajribasiga ega bo‘lishadi.</p> <p>5. Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini egallaydilar.</p> <p>6. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlarini to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganadilar</p> <p>7. Tayyorlab kelingan tarbiyaviy tadbirlar ssenariylarini havola etishadi</p>
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	Blits so‘rov,, “Klaster”, Insert, Esse
<i>O‘qitish vositalari</i>	Komp‘yuter texnologiyasi («Umumiy pedagogika” fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmua), slaydlar.
<i>O‘qitish shakli</i>	Individual va kichik guruhli
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og‘zaki nazorat, savol-javobli so‘rov, o‘quv topshiriq.
<i>Baholash mezon</i>	Jami: 5 ball 1. Tarbiya tamoyillari va metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish - 3 ball 2. Tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini tuzish- 2 ball

Darsning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (5 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baxolash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova)	Tinglaydi
2 bosqich. Asosiy jarayon (70 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha blits so'rov o'tkazadi (3-ilova)</p> <p>2.2. "Tarbiya turlarini tarmoqlarga ajrating?" Klaster asosida (4-ilova)</p> <p>2.3. Insert metodi asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni belgilashni topshiradi (5-ilova)</p> <p>2.4. «Bizning oilada qanday tarbiya metodlari qo'llaniladi?» mavzusida erkin esse yozishni topshiradi. Esse yozish qoidasini tushuntiradi (6-ilova)</p> <p>2.5. Tarbiyada ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, faoliyat jarayonida xulq-tajribalarni shakllantiruvchi hamda rag'batlantirish va jazolash metodlarni o'rganishga oid topshiriq mashqlarni topshiradi (7-9-ilova) Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi va umumlashtiradi.</p> <p>2.6. Tarbiyaviy tadbir ssenariylarini nazorat qiladi va baholaydi (10 ilova)</p> <p>2.7. Turli xil pedagogik muammoli vaziyatlarni tavsiya etadi.(11-ilova)</p>	<p>Blits savollarga javob beradi.</p> <p>Tarbiya turlariga oid Klaster tuzadi</p> <p>Insert metodi asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni belgilaydi</p> <p>Erkin esse yozish qoidasi bian tanishadilar, Berilgan mavzuda erkin esse yozadilar</p> <p>Tarbiyada ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, faoliyat jarayonida xulq-tajribalarni shakllantiruvchi metodlarni o'rganishga oid topshiriq mashqlarni bajaradilar</p> <p>Tarbiyaviy tadbirlar ssenariylarini havola etishadi</p> <p>2.7. Muammoli vaziyatlarga munosabat bildirishadi</p>
3 bosqich. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	<p>3.1 Mavzu bo'yicha umumiyl xulosa qilinadi.</p> <p>3.2.Talabalarning ishlarini baholaydi</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Tinglaydilar</p>

4-Mavzu: TARBIYANING QONUNIYATLARI, PRINSIPLARI VA METODLARI.

Amaliy mashg`ulot rejasি:

1. Tarbiya jarayoni uning maqsad va vazifalarini o`rganis
2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va tamoyillariga oid mashqlar bajarish
2. Tarbiya metodlari, ularning klassifikatsiyasi bilan tanishish.
4. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'quv yili rejasida ko'rsatilgan biror bir tarbiyaviy soatlar yoki tadbirlarni tabiya metodlaridan foydalangan holda ssenariysini ishlab chiqish.
5. Tarbiya jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan turli xil pedagogik muammolarni ishlab chiqish.

Baholash mezoni

Jami: 5 ball

1. Tarbiya tamoyillari va metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish - 3 ball
2. Tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini tuzish-2 ball

Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalari yuzasidan blits-surov savollari

1. Tarbiya deganda nima tushuniladi?
2. Tarbiyaning tor va keng ma'nolardagi ifodasini izohlang.
3. Tarbiya jarayoni deb nimaga aytildi?
4. Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining qanday o'rni bor?
5. Tarbiyaning samarali bo'lishi nimalarga bog'liq?
6. Tarbiyadan ko'zlangan maqsad nima?
7. Tarbiyaning umumiy vazifalariga nimalar kiradi?
8. Tarbiya mazmuni deganda nimani tushunasiz?
9. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?



Insert metodi asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni belgilash

Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma.

Quyida berilgan ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan tanishing. Insert belgilari asosida ular orasidan yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni belgilab oling:

«+»- yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatga tegishli ekanlikni;

«-» - tegishli emaslikni;

«?» - aniq tasavvurga ega emaslikni ifoda etadi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar majmui.

- 1.Insonparvarlik. 2.Oliyjanoblik. 3.Saxiylik. 4.Rostgo`ylik.
- 5.Mas’uliyatlilik. 6.Tartiblilik. 7.Ozodalik. 8.Halimlik. 9.Mehnatsevarlik. 10. Mexribonlik. 11. Hamdardlik. 12.Ochiqko‘ngillilik. 13. Mehmondo‘stlik. 14. Halollik. 15.Mag`rurlik. 16.Do‘stlik. 17.Sabrlilik. 18.Qanoatlilik.
- 19.Xushchaqchaqlik. 20.Xushmuomalilik. 21.Orastalik. 22.Iboli bo‘lish.
- 24.Kamtarlik. 25.Kamsuqumlilik. 26.Adolatparvarlik; 27.Iqrorlik. 28.Tolerantlik.
29. Oqillik. 30. Odillik.

«Bizning oilada qanday tarbiya metodlari qo'llaniladi?» mavzusida erkin esse yozish topshirig‘i

Topshiriq: «Bizning oilada qanday tarbiya metodlari qo'llaniladi?» mavzusida o‘n daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to`xtovsiz bayon eting.

Erkin esse yozish ustida ishlashga doir ko`rsatma:

1. Talabalardan o‘n daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so`raladi.
2. O‘n daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi mahlum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tugiladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to`rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytiganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo`lsa bildirishlarini so`raydi.

Ongini shakllantiruvchi metodlarga oid amaliy topshiriqlar

1 -topshiriq. Quyida keltirilgan tushunchalardan qaysilari shaxs ongini shakllantirish metodlarini o‘zida ifoda etadi?

- 1) pedagog obro‘s; 2) etik suhbat; 3) hikoya; 4) ma’ruza; 5) ijtimoiy fikr; 6) jazolash; 7) musobaqa; 8) ochiqlik; 9) izohlash; 10) tushuntirish; 11) o‘git; 12) nasihat; 13) topshiriq; 14) ko‘rsatma berish; 15) namuna; 16) adolatlilik; 17) notatsiya; 18) nazorat; 19) munozara; 20) nutq so‘zlash.

2-topshiriq. Quyida ko‘rsatilgan talablardan qaysilari etik suhbat, izohlash va o‘git uchun tegishli ekanligini aniqlang.

- 1) tarbiyalanuvchi tajribasiga muvofiq bo‘lishi; 2) illyustratsiya; 3) tarbiyachining mahorati; 4) tarbiyachi obro‘s; 5) tinglovchilarining hayratlanishi; 6) nasihat qilish; 7) o‘z vaqtida amalga oshirish.

8-ilova

Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlariga doir amaliy topshiriq

Topshiriq. Quyidagi metodlar orasidan shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil qilish metodlarini ajratib ko'rsating.

- 1)ma'ruza; 2)suhbat; 3) mashq; 4) munozara; 5) pedagogik talab;
- 6)o'rgatish; 7)rag`batlantirish; 8)nasihat; 9)izohlash; 10)namuna;11)topshiriq;
- 12)iijtimoiy fikr; 13)munozara; 14)tarbiyalovchivaziyat; 15) hikoya; 16)musobaqa;
- 17)jazolash.

9-ilova

Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag`batlantirish metodlariga oid amaliy topshiriq

Topshiriq. Qaysi guruhdada rag`batlantirish metodlari to‘g‘ri tasnif etilgan?

1. Hikoya, tushuntirish, hikoya, namuna
2. Rag`batlash, jazolash, musobaqa, sub'ekti-pragmatik
3. Mashq, rag`batlash, o'rgatish, talab, topshiriq berish
4. Suhbat, ogohlantirish, tarbiyalovchi vaziyat, nazorat

10-ilova

Tarbiyaviy tadbirdan namuna

E'tiboringizga 3-sinfga mo'ljallangan, insonparvarlik mavzusiga bag'ishlangan ertalikdan namuna havola etamiz. Ertalik uchun maxsus devoriy gazeta chiqariladi, sindf xonasi ertak qahramonlari aks etgan rasmlar bilan bezatiladi. Tadbirga bag'ishlab «Ertak kitoblar» ko'rgazmasi ham tashkil qilinadi.

Ertalikni boshlovchi olib boradi.

Boshlovchi: - Do'stlik, o'rtoqlik, yaxshilik insonning eng» ko'r kam fazilatidir. Hozir namoyish etiladigan ertagimiz mazmunida shu xususiyatlar yoritiladi. (Bir necha o'quvchi «Illooning ishi zahar solmoq» ertagini rollarga bo'lib ijro etishadi).

Boshlovchi: - Bir cho'pon ariq yonidagi qamishzorga yong'in tushganini ko'ribdi. Qarasa, qamisli ichida bir katta ilon olovda kuyayotgan emish. Cho'pon

uzun tayoqning uchiga xalta bog'lab ilon tomon uzatibdi. Ilon jon holatda o'zini xalta ichiga uringdi. Cho'pon tayoqni tortib olib, xaltani ochibdi, ilon xaltadan chiqishi bilaii cho'ponning oyog'iga yopishibdi

(O'quvchilar o'z rollari asosidi ertak mazmunini rivojiantiradilar),

Cho'pon (hayron bo'lib):

- Nima qilmoqchisan?, - deb so'rabdi. Ilon:
- Men seni chaqaman, - deb javob biribdi.

Cho'pon:- Seni o'limdan qutqazdim-ku, senga yaxshilik qilgan, hayotingni aqlab qolgan xaloskoringni chaqasanmi?

(Ilon bari bir chaqishini aytibdi. Cho'pon o'yga tolibdi va uzoq mulohaza qilibdi).

Cho'pon: - Oldin odamlardan yaxshilikka yomonlikmi? deb so'raylik. Agar yaxshilikka yomonlik deb javob berishsa, mayli, chaqsang ham roziman.

Boshlovchi: -Ilion rozi bo'libdi. Chopon yo'l yuribdi. Yo'lda sigir va olma daraxtiga duch kelibdi. Ulardan: «Yaxshilikka yaxshilikmi yoki yomonlikmi», - deb so'rabdi.

Sigir ham, olma ham: «Albatta, yaxshilikka yomonlik», - deb javob berishibdi va hayotda yaxshilik qilib javobiga yomonlik olayotganliklarini aytibdilar.

Cho'pon odamlardan so'ramoqchi bo'libdi. Yo'lda uning oldidan bir tulki chiqib qolibdi. Cho'pon tulkiga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Tulki voqea jarayonini boshidan takrorlab ko'rsatishlarini so'rabdi. Cho'pon xaltaga ilonni solibdi. Tuiki esa bor kuchi bilan xaltani yerga urgan ekan, ilon shu zahoti til tortmay o'libdi. Tuiki cho'ponni hiyla bilan ilon changalidan qutqarib olibdi. Cho'pon tulkiga minnatdorchilik bildiribdi.

Boshlovchi: -Biz ertaklar asosida bir necha sahna ko'rinishi namoyish qildik. Endi esa tushunchalaringiz yuzasidan sizlarga savollar bermoqchimiz.

(Savloini o 'qituvchi beradi).

1. Qaysi ertak sizga ko'proq ma'qul bo'ldi?
2. Ertakdag'i qaysi qahramonlar yoqdi va nima uchun?

3. Ilon cholning yaxshiligiga qanday javob bermoqchi bo'ldi?

4. Nima uchun «Ilm afzal» deyishgan?

5. Sizningcha, ilm yaxshimi, molu dunyo?

6. Nega insonlar ilm olishga, o'qishga intiladi?

7. Yigit nima uchun otasini toqqa olib bordi?

8. U nima sababdan otasini toqqa tashlab kelmadi?

O'quvchilar savollarga javob bergach, o'qituvchi yakunlovchi fikrini bayon etadi. «Ertaklarni o'qib» she'ri bilan tadbir yakunlanadi.

11-ilova

Tarbiya jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan turli xil pedagogik muammolarni ishlab chiqish. O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlar ekan, ta'limgar tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan turli xil pedagogik muammolarga, vaziyatlarga duch kelib qolishi mumkin. Yosh pedagoglar bunday vaziyatlarga oldindan tayyorlanib borsalar foydadan xoli bo'lmaydi. Shu o'rinda bir pedagogik muammoli misol:

Muammoni yeching!

1-vaziyat. Siz rahbarlik qiladigan sinfda ikkita o'g'il bolaning hattiharakatlari, tartib-intizomi sinf jamoasiga ham sizga ham yoqmaydi. Chunki sinf sha'niga dog' tushirishga ulgurishgan. Lekin har ikkalasining otasi siz o'tkazadigan tadbirlarning homiyligiga rahnamolik qilib turishadi. Siz bu muammoni qanday yechgan bo'lar edingiz.

2-vaziyat. Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi yerda g'ijimlangan qog'oz parchasi yotganini ko'rib, bir o'quvchiga «qog'ozni ol», deb murojaat qildi. O'sha o'quvchi sekin partadan turib «men tashlamaganman, nega olarkanman» deb, yana joyiga o'tirdi.


O'qituvchi nima qilishi kerak? Sinfning ta'sirlanishi qanday bo'ladi va bu nimaga bog'liq?

3- vaziyat. O'qituvchi o'zini-o'zi darsdan chiqarib yuborgan holni eshitganmisiz? Bunga quyidagi voqeа sabab bo'lgan edi: o'qituvchi dars o'tish uchun sinfga kirsa, tanaffusda navbatchilar sinfni darsga tayyorlamagan, doska

o'chirilmagan, latta yo'q, bo'r yo'q. O'qituvchi : «Shunday oddiy masalani hal qila olmagan yomon o'qituvchi dars o'tishi mumkin emas», - deb sinfdan chiqib o'qituvchilar xonasiga ketdi. Uch minutdan keyin esa sinf o'quvchilaridan vakillar borib, o'qituvchidan kechirim so'rab, uni sinfga qaytishini iltimos qilishdi.

Vaziyatni tahlil qiling. O'qituvchi to'g'ri yo'l tutdimi? O'quvchilarda ongli intizomni tarbiyalash usullari qaysi hollarda samara beradi?

Foydalanish uchun materiallar



Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

- A) o'quvchingning qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish rejalashtiriladi .
- B) Shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlab topiladi.
- V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlashni rejalashtiriladi.

Tahlil qiling!

Tarbiya jarayonining xususiyatlari

Ko'p qirrali jarayon	uzoq muddat davom etadi	yaxlit holda va konsentrifik asosda amalga oshadi	Ikki tomonla -ma xususiyat,bola ning faolligi	Qarama -qarshiliklar ko'pligi
-----------------------------	--------------------------------	--	--	--------------------------------------

Axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab tarbiya usullari quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1. So'z orqali ifodalash usuli
- 2. Ko'rgazmalilik usuli
- 3. Amaliy, namuna usuli

So'z orqali ifodalash usuli

- Maslahat berish
- Ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish
- hikoya
- suhbat
- ma'ruza

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi.

Metod- yunoncha atama bo'lib- aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalik usuli.
3. Amaliy, namuna usuli.
4. Rag`batlantirish va jazo usuli.

Yuqoridaq metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Brinchi guruh- so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullarga;

Ikkinchı guruh- kinofil'mlar, tasviriy san'at, bad'iy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullarga;

Uchinchi guruh- tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'mnak ko'rsatish, boshqalarni amaliy mehnatini misol qilib ko'rsatish;

To'rtinchi guruh- o'quvchi-talabalarining yaxshi bajargan ishlarini, o'rtoqlari oldida yoki ota-onalar majlisida ma'qullah, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy yordam, stipendiyalarini oshirish, maqtov yorliqlari topshirish. Suratlarini hurmat taxtachasiga yopishtirish, va boshqa og'zaki, "rahmat", "barakalla" kabi rag'batlantirish usullarini kiritish mumkin.

Tarbiyachining rag'batlantirish usuli ikkiga bo'linadi:

- Siz buyurgan ishga burch va mas'uliyat bilan yondashganligini rag'batlantirish.
- Siz buyurgan ishga qiziqishini va uni uddalay olganligini rag'batlantirish.

Jazo- bu bolaning noto'g'ri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish.

Agar bola siz ogohlantirmsasingizdan yoki tushuntirmsasingizdan oldin o'z xatosini tushungan bo'lsa-yu, sizga qilgan xatosini aytolmay izza chekib turgan bo'lsa, uni jazolashga zaruriyat yo'q. Siz unga yana bir marta imkoniyat bering. Ammo keyingi gal xato qilsa va uni tan olmasa, unday hollarda qo'yidagi jazo turlari qo'llaniladi:

1. Tushuntirish.
2. Tanbeh berish.
3. Ogoohlantirish.
4. Qattiq ogohlantirish.
5. Uyaltirish.

Yuqoridagi jazo turlarini o'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz hech kimning guvohisiz qo'llaydi. Ammo guruhdosh o'rtoqlari yoki sinfdoshlari oldida izza qilay deb bolani uyaltirsa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Tarbiya usullari

- 1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar,**
- 2) faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari,**
- 3) o'z - o'zini tarbiyalash usullari,**
- 4) rag'batlantirish usuli va jazolash usullari.**

Xulosa. Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham, uning qoida va usullari ham takomillashib boraveradi. Tarbiyaning samarasi bu qoida va usullarning to‘g‘ri qo‘llanishiga, bu vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o‘rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog`liqdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jamiyat rivojida tarbiyaning ahamiyati qanday?
2. Tarbiya qonuniyatlariga nimalar kiradi?
3. Tarbiya prinsiplarini sanab bering
4. Tarbiya metodlari qanday guruhlanadi?
5. Tarbiyada namuna, ibrat metodining ahamiyatini yoriting.
6. Rag'batlantirish va jazolashga qanday talablar qo‘yiladi?

6-§. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi

Tayanch iboralar

Axloq, axloqiylik, axloqiy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, komil inson, ma’naviy sifatlar, inson komilligi mezonlari, odob, xulq, madaniyat, nazokat, ma'naviyat, oila,

Mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25-30 gacha</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>amaliy</i>
<i>Ma’ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish. 2. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid g‘oyalarini o‘rganish va tahlil etish. 3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarish. 4. «Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar» mavzusida insho yozish
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsad va vazifalarining O‘zlashtirilishiga erishish. 2. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalarining ahamiyatini asoslash. 3. Talabalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish. 4. Talabalarda zamonaviy sharoitda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy zaruriyat ekanligiga oid qadriyatli yondashuvni qaror toptirish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar. 2. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalaridan foydalanishni o‘rganadilar. 3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. 4. Zamonaviy sharoitda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy zaruriyat ekanligiga oid qadriyatli yondashuv qror topadi
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	“Klaster”, Blits so‘rov, Esse, FSMU texnikasi, amaliy topshiriq bajarish
<i>O‘qitish vositalari</i>	Komp`yuter texnologiyasi («Umumiy

	pedagogika” fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmua), slaydlar.
<i>O‘qitish shakli</i>	Individual va jamoa bo‘lib ishlash
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og‘zaki nazorat, savol-javobli so‘rov, o‘quv topshiriq.
<i>Baholash mezoni</i>	Jami: 5 ball 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish. - 1 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish - 2 ball 3. «Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar» mavzusida insho yozish - 2 ball

Darsning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vagti	Faoliyat mazmuni	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1 bosqich. Kirish (5 daqiqa)	1.1. Ma‘ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1- ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.4. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi (2- ilova)	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (70 daqiqa)	2.1. Reja bo‘yicha “axloq” tushunchasiga «Klaster» tuzish topshiriladi (3-ilova) «Mening tasavvurimda ma’naviy-axloqiy yetuk inson obrazsi» mavzusida esse yozishni topshiradi. Tartibi beriladi (4-ilova) 2.2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘yivha blits-so‘rov tashkil etadi (5-ilova)	“Axloq” tushunchasiga «Klaster» tuzishadi «Mening tasavvurimda ma’naviy-axloqiy yetuk inson obrazsi» mavzusida esse yozishadi
	2.3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish bo‘yicha amaliy topshiriqlar topshiradi (6-7-ilova). Bajarilgach kichik guruhlar taqdimotini tashkil etadi 2.4. Shaxs ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishninig pedagogik xususiyatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (8-ilova).	amaliy topshiriqlar topshiradilar, kichik guruhlar taqdimot qilishadi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarda topshiriqlar ni

		bajaradilar
3 bosqich. Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiylar qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalar va kichik guruhlarning baholarini e'lon qiladi	Tinglaydilar
	3.3 Navbatdagi mashg'ulotda ko'rildigani mavzuni e'lon qiladi va topshiriqlarni beradi.	Yozib oladilar.

1- ilova

5-Mavzu: O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI

Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish.
2. Sharq mutafakkirlarining mahnaviy-axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarini o'rganish va tahlil etish.
3. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. «Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar» mavzusida insho yozish


2- ilova

Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishslash va konspekt qilish. - 1 ball
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish - 2 ball
3. «Yoshlarning mahnaviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar» mavzusida insho yozish - 2 ball

3- ilova

”Axloq” so‘ziga Klaster tuzishda quyidagi sxemadan foydalanish tavsiya etiladi.



4-ilova

«Mening tasavvurimda ma-naviy-axloqiy yetuk inson obrazi» mavzusida esse yozish topshirish

Topshiriq: «**Mening tasavvurimda ma-naviy-axloqiy yetuk inson obrazi**» mavzusida o‘n daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O`ylagan fikrlaringizni hech qanday to`xtovsiz bayon eting.

Esse yozish bo‘yicha ko‘rsatma:

1. Talabalardan o‘n daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.
2. Vaqt tugagach, vaqt tugaganligi ma’lum qilinadi, biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt nafar talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshaamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini suraydi.

5-ilova

2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya bo‘yivha blits-so‘rov savollari

1. «Axloq», «axloqiylik», «etika» tushunchalariga ta’rif bering.
2. Mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farq nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Axloqiy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
4. Maktab, kollej va oliy ta’limdagi o‘qituvchilar sizning tarbiyangizga qanday ta’sir ko‘rsatishgan (ko‘rsatishmoqda)?
5. Siz kelajakda o‘z o‘quvchilaringizni qanday tarbiyalashni tasavvur qila olasizmi?
6. Siz kelajakda uz farzandlaringizni qanday tarbiyalashni xohlaysiz?
7. O‘zingizni tarbiyali inson deb ayta olasizmi? Nima uchun?
8. O‘zingizni axloqli inson deb hisoblay olasizmi? Nima uchun?
9. O‘zingizda qanday sifatlarni rivojlantirishni xohlaysiz?
10. Qanday inson axloqiy yetuk hisoblanadi?

11. Bugungi kunda tengdoshlaringizni axloqiy yetuk insonlar deb ayta olasizmi?

6-ilova

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish bo‘yicha amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. «Kerakli so‘zlarni topib qo‘ying» treningini o‘tkazish.

Treningning maqsadi: talabalarda guruhdoshlariga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish.

Treningning borishi:

I. O‘qituvchi talabalarga bir varaq qogoz olib, doskaga yozilgan quyidagi gaplardagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni topib yozishni so‘raydi.

1. Men ko‘prok insonlardagi ... qadrlayman.
2. Men o‘z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilaman.
3. Men o‘z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilmayman.
4. Men o‘zimda ko‘proq fazilatlarni aks ettirishni xohlayman.
5. Mening hayotdagi eng asosiy maqsadim - bu ...
6. Men istalgan qarorni chiqarishda ... asoslanaman.

II. Talabalar individual tarzda gaplardagi kerakli so‘zlarni yozib bo‘lishgandan sung, dastlab juftliklarda va so‘ngra guruhlarda o‘z fikrlarini birlari bilan o‘rtoqlashdilar.

III. Guruhlarda muhokama qilish uchun ajratilgan vaqt tugagach, o‘qituvchi doskaga quyida ko‘rsatilganidek, «Toifalash jadvali»ni chizadi va uni guruhlarda to‘ldirishni so‘raydi.

Biz qadr-laymiz....	Biz hurmat qilamiz...	Biz hurmat qilmaymiz....	Biz eri-shishni istagan fazilatlar....	Bizning maqsadimiz...	Biz tayanadigan asoslar...

IV. Har bir guruh o‘q toifalash jadvallarini to‘ldirib bo‘lishgach, alohida-alohida tahdimot qiladilar.

2-topshiriq. Muammoli savollar.

Quyida keltirilgan muammoli savollar bilan tanishing va ularni hal eting.

1. Uchinchi sinf o‘quvchilari shuhratparastlik va manmanlik tushunchalarining mazmuni bir xil yoki boshqacha ekanligi to‘g‘risida bahslashib qoldilar. Nima uchun bolalar bu masalani tushunib olishlari qiyin? Ularga qanday qilib yordam berish mumkin?
2. «Uning vijdoni toza emas», «Bu - vijdonsiz kishi», «Bu ishni kilishga mening vijdonim yo‘l qo‘ymaydi» degan gaplarni siz qanday tushunasiz? Vijdonna kishini axloqiy tarbiyasiga qandaydir aloqasi bor? Bu qanday aloqa?
3. Televideniye orqali namoyish etilayotgan chet el seriallarining yoshlari tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta’siri bor deb uylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildirishda ota-onalar qanday yo‘l tutishlari lozim deb hisoblaysiz?
4. Siz insonlarda qadrlaydigan, ulug`laydigan axloqiy fazilatlar qaysilar va siz «axloqsizlik» deb qaraydigan sifatlar nimalar?

FSMU Jadvalini to‘ldiring

Savol	Komil inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Axloq, xulq va atvor so‘zlari arabcha bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida ishlatiladi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy qoida bo‘lib,

bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq- ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalaring yig‘indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo‘lgan munosabatlarda axloq namoyon bo‘ladi.

«Har kim axloq ilmini bilib amal qilsa, bu dunyoda aziz, oxiratda sharofatlik bo‘lur»

«Agar bir kishining o‘zidan, ishidan, so‘zidan boshqa kishilar ozor topmasalar, yaxshi xulq deyulur. Agar ozor topadurgan bulsalar yomon xulq deb atalur»⁵

«Axloq- insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur»

«Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lib, «yaxshi xulqlar», agar tartibsiz o’sib, yomon ishlar qiladurg‘on bo‘lib ketsa, yomonlikka tavsif bo‘lib, «yomon xulqlar» deb atalur»⁶

«Axloq- insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur»⁷, deydi Abdulla Avloniy.

Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi kategoriyadir.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo‘lgan ijobiy axloqiy sifat majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamolat darajasi odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o‘rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to‘xtalib o‘tish joizdir.

Odob - har bir insonning o‘zi bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotida hamda yurish - turishida o‘zini tuta bilishidir.

⁵ Qори Низомиддин бин мулла Насан. «Илми ахлоқ». Тошкент: «Ёзувчи», 1994 . 3- бет.

⁶ Abdulla Avloniy. —Turkiy guliston yoxud axloq|| – Т.: G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999 yil 5-бет.

⁷ Abdulla Avloniy. —Turkiy guliston yoxud axloq|| – Т.: G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999 yil 5-бет.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq - odob normalari majmui.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobili yutuqlar majmuasi.

Ma’naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobili, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Axloqiy tarbiya mazmuni quyidagilarda o’z ifodasini topadi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko‘paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.
2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi.
3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat Shaxsning jamoatchilik, ko‘pchilik manfaatini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yishidir.
4. Shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu o‘quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullar qo‘llaniladi:

- dars, ta’lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo‘sib olib borish;
- ahil, inoq uyushtirilgan intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
- to‘g‘ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;
- Maktabda ijobili emotSIONAL sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, navro‘z bayrami;
- Barcha o‘quvchilarning maktabdagagi umumiyligini va yagona tartib qoidaga rioya qildirish orqali;
- Turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag’batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali;
- Tarbiyaviy soatlar, «Tarbiya» darslari saviyasini oshirish orqali;

- Mehnat ilg‘orlari, ilm-fan xodimlari, mehnat faxriylari, hojilar bilan uchrashuvlar uyushtirish orqali;
- Maktabda turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o‘tkazish, turli axloqiy-ma’rifiy tele-radio eshittirishlaridan foydalanish;
- Dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an’analalarimiz aks etgan asarlarni o‘qib-o‘rganish orqali.

«Komillikning asosiy belgilari» mavzusini «Aqliy hujum» usulidan foydalangan holda muhokqma qiling

Bunda M. Mahmudovning fikrlarini e’tiborga olishingiz lozim. U birinchi prezidemtimiz Islom Karimovning «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin» asarida komil inson shaxsi kontekstida qaraladigan yuzdan ortiq deskriptor⁸ mavjudligini aytib, ularni qisqartirilgan holda keltiradi. Bular: 1) o‘zini anglash; 2) o‘zligini anglash; 3) an’analarni anglash; 4) xalqning orzu-istiklarini bilih; 5) jamiyat oldidagi maqsadni tushunish; 6) yagona milliy bayroq ostida birlashish; 7) xalq va davlat xavfsizligi to‘g‘risida qayg‘urish; 8) vatanni sevish; 9) el-yurtga sadoqat; 10) insonparvarlik hissi; 11) odamiylik fazilatlari; 12) o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi vorislik; ulug’ ajdodlar merosini egallash; 14) milliy qadriyatlarni bilih; 15) umumbashariy qadriyatlarni egallash; 16) yurt birligi to‘g‘risida qayg‘urish; 17) o‘z oldiga maqsad qo‘ya bilih; 18) ta’lim-tarbiya birligi; 19) ta’lim-tarbiyaning ongni o‘zgartirishi; 20) ong, tafakkurning jamiyatni o‘zgartirishi; 21) mustaqil fikrlash; 22) ijtimoiy-siyosiy iqlim o‘zgarishi; 23) insonning hayotda o‘z o‘rnini topishi; 24) iymoni butunlik, 25) sog‘lom fikrlilik; 26) zehn-zakovatli yoshlarni tarbiyalash va shakllantirish⁹.

«Komillik- mehr-muruvvat,adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlarning majmuidir»¹⁰.

⁸ Дескриптор-(лотинча «descripto») ёзаман, тавсифлайман

⁹ Миллий истиқдолғоюси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Тошкент:«Янги аср авлоди», 2001.. 131- бет.

¹⁰Махмудов М. Комил инсон шахси ва ижтимоий тажриба// «Педагогик маҳорат».2002, 4-сон, 6-10- бетлар.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi bo‘lmaydi. Komil inson g‘oyasi azal-azaldan o‘zbek xalqimizning ezgu orzusi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib kelgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Odob nima? Sizningcha qanday inson odobli hisoblanadi?
2. Axloq nima? Mutafakkirlar qarashlari bilan izohlang.
3. Ma’naviyat nima?
4. Fazilat nima?
5. Siz insondagi qaysi fazilatni bиринчи o‘ringa qo‘yasiz va nima uchun?
6. Ma’naviy-axloqiy tarbiya nima? Uning mohiyati haqida so‘zlab bering.
7. Axloqiy tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat?
8. Axloqiy tarbiya mazmuni nimalarni o‘z chiga oladi?
9. Axloqiy tarbiya metodlarini sanab bering.
10. Komillikning asosiy belgilari nima?

IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

7-§. Ta'lim muassasasi menejmenti

Tayanch iboralar

Ta'lim tizimi, boshqarish, ta'lim tizimini boshqarish turlari, menejment, Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, boshqarishning davlat yuqori organlari, mahalliy organlar, Pedagogik Kengash, direktor va uning o'rnbosarlari, metodik ishlar.

Mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25- 30 nafar</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	<i>Amaliy</i>
<i>Mashg'ulot rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ta'lim muassasasi menejmenti, boshqarishning mohiyatini o'rganish. 2. Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlari bolan tanishish. 3. Ta'lim muassasasini boshqarishga oid me'yoriy hujjatlar bilan ishlashga doir amaliy topshiriqlarni bajarish. 4. Pedagogik kengash va metodik birlashmalar faoliyati bilan tanishish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarning ta'lim muassasasi menejmentiga oid nazariy bilimlarini mustahkamlash, ta'lim muassasaslari rahbarlari, pedagogik Kengash va metodik birlashmalarining ish faoliyatlarini bilan tanishsish orqali ularda ta'lim muassasasini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida O'zbekiston ta'lim tizimi haqida tushuncha hosil qilish 2. Talabalarni «boshqaruv» va «ta'lim menejmenti» tushunchalarini farqlashga o'rgatish. 3. Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyil lari va metodlarini o'zlashtirilishiga erishish. 4. Ta'lim muassasasini boshqarishga doir me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasini o'rganib, yod olishadi 2. «Boshqaruv» va «ta'lim menejmenti» tushunchalarini farqlashga o'rganishadi. 3. Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o'zlashtiradilar 4. Ta'lim muassasasini boshqarishga doir me'yoriy hujjatlar bilan ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar 5. Pedagogik kengash va metodik birlashmalar ish faoliyati va hujjatlari

5. Pedagogik kengash va metodik birlashmalar faoliyati bilan tanishtiradi. Majlis bayonnomasini yozishga o'rgatadi	to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Majlis bayonnomasini yozishga o‘rganishadi
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	“Klaster”, “BBB”, “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bumerang” texnologiyalari.
<i>O‘qitish vositalari</i>	Komp‘yuter texnologiyasi, amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, slaydlar
<i>O‘qitish shakli</i>	Individula va kichik guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
<i>Baholash mezoni</i>	Jami: 5 ball 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konsept kilish - 1 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish, va me’yoriy hujjatlar bilan ishlash - 2 ball 3. Bayonnomma yozish-2

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish jarayonlari vaqtĭ</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)	1.1. Ma‘ruzaning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, yozib oladi
	1.2. Baholash mezonlarini e’lon qiladi (2- ilova)	Tinglaydi
2- bosqich. Asosiy jarayon (65 daqiqa)	2.1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida O‘zbekiston ta’lim tizimini «Klaster» usulidan foydalangan holda yoritishni topshiradi (3-ilova) 2.2. «Boshqaruv» va «ta’lim menejmenti» tushunchalarini farqlashga o‘rgataadi (4-5-ilova) 2.3. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o‘zlashtirish bo‘yicha mashqlar tavsiya etadi (6-lova) 2.4. Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy hujjatlar	O‘zbekiston ta’lim tizimini «Klaster» usulidan foydalananib yoritishadi Berilgan ma’lumotlardan foydalananib “boshqaruv” va «ta’lim menejmenti» tushunchalariga ta’rif berishadi Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o‘zlashtirishga oid mashqlar bajarishadi

	bilan ishlashni tashkil etadi. (7-8-ilova) 2.5. Pedagogik kengash va metodik birlashmalar ish faoliyati va hujjatlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Majlis bayonnomasini yozishni mashq qildiradi (9-11-ilova)	Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy hujjatlar bilan ishslash ko‘nikmasi shakllanadi Majlis bayonnomasini yozish ko‘nikmasi shakllanadi
3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo‘yicha umumiyl xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarning baholarini e’lon qilinadi	Tinglaydilar
	3.3. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi	Javob beradi
	3.4 Navbatdagi mashhg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi va mustaqil ta’lim topshiriqlarini beradi	Yozib olishadi

1-ilova

Mavzu: Ta’lim muassasasi menejmenti

1. Ta’lim muassasasi menejmenti, boshqarishning mohiyatini o’rganish.
2. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlari bolan tanishish.
3. Ta’lim muassasasini boshqarishga oid mehyoriy hujjatlar bilan ishslashga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Pedagogik kengash va metodik birlashmalar faoliyati bilan tanishish.

2-ilova

Baholash mezonlari

Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishslash va konspekt kilish - 1 ball
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish va me’yoriy hujjatlar bilan ishslash - 2 ball
3. Majlis bayonnomasi yozish - 2 ball

3-ilova



4-ilova

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tablil qilishga aytiladi

5-ilova

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Menejment mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish iaravonidir.

6-ilova

Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlariga oid toifalash jadvalini tuldirish

Boshqaruv funksiyalari	Boshqaruv tamoyillari	Boshqaruv metodlari	Boshqaruv uslublari

7-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagি 140-son qaroriga asosan «Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom» tasdiqlandi. Ushbu Nizom 10 bobdan iborat. Ushbu Nizom asosida jadvalni to‘ldiring

Bob nomi	mazmuni
1-bob. Umumiy qoidalar	
2-bob. Umumiy o‘rta ta’limning maqsadi va vazifalari	
3-bob. Umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish	
4-bob. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni	
5-bob. Umumta’lim muassasasiga o‘qishga qabul qilish	
6-bob. O‘quvchilar sog‘lig‘ini muhofaza qilish	
7-bob. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	
8-bob. Umumiy o‘rta ta’limni boshqarish	
9-bob. Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minoti	
10-bob. Yakuniy qoidalar	

8-ilova

Ta’lim muassasasining Ustavi asosida jadvalni to‘ldiring:

Bo‘limlar nomi	mazmuni
1. Qisqacha ta’lim muassasasi haqidagi ma’lumotlar	
2. Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari	
3. Ta’lim muassasasini boshqarish	
4. O‘quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish	
5. O‘qituvchi. Huquq va burchlari	
6. O‘quvchi. Huquq va burchlari	
7. O‘quv-ishlab chiqarish ta’limi ustalari, ma’muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlar	
8. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas’uliyatlari	

9. Ta’lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo’jalik ta’minoti	
---	--

9-Ilova

Pedagogik kengashi, Metodik kengashi va metod birlashmalarining faoliyatini tashkil etishga oid amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Pedagogik kengashi, Metodik kengashi va metod birlashalariniig namunoviy yillik ish rejasini tuzishni mashq qilish.

Yillik ish rejalarini tuzishda kuyidagi chizmaga asoslaning.

	Bajariladigai ishlar	Bajarilish muddati	Mas’ul

10- Ilova

2-topshiriq. Pedagogik Kengash va Metodik Kengashning **asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsating:**

- Ta’lim ta’lim muassasasining tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o’tkazadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;
- ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydi;
- ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;
- ta’lim jarayonining metodik ta’minot holatini o‘rganadi, ta’lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;
- yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- ta’limga doir me’yoriy va metodik hujjatlarni o‘rganadi, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;
- ta’lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqadi;
- pedagogik jamoaning ma’lum yo‘nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

- ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o‘z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.
- o‘qituvchilarning g‘oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;
- o‘qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo‘limlari mazmuni bo‘yicha tavsiyalar beradi;
- ta’lim muassasasi ta’lim jarayonida qo‘llashi uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi

Pedagogik Kengash vazifalari	Metodik Kengash vazifalari

11-Ilova

Pedagogik kengash yoki Metodik kengashi majlis bayonnomasini yozishga mashq qiling

Majlis bayonnomasini yozish namunasi:

Pedagogik kengashining____ - sonli yig‘ilishi
(ta’lim muassasasining nomi)

BAYONNOMASI

(sana)

(shahar)

Qatnashdilar:

Taklif etilganlar:

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Maxkamasining Farmon, Qaror va Farmoyishi, Vazirlikdan kelgan hujjatlar ijrosi.

2.....

3.....

4. Turli masalalar:

4. 1

YIG‘ILISHNING BORISHI:

1-masala

ESHITILDI:

TINGLANDI:

QAROR QILINDI:

1.....

2.....

2-masala

ESHITILDI:

TINGLANDI:

QAROR QILINDI:

1.....

2.....

3-masala

ESHITILDI:

TINGLANDI:

QAROR QILINDI:

1.....

2.....

4-masala

ESHITILDI:

TINGLANDI:

QAROR QILINDI:

1.....

2.....

3.....

Kengash raisi: _____
(imzo) _____ (ism-familiyasi)

Kengash kotibi: _____
(imzo) _____ (ism-familiyasi)

Mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

“Boshqaruv” so‘zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv ob’ekti)ga faol ta’sir ko‘rsatish to‘g‘risida gapirilganda qo‘llaniladi. Zamonaviy adabiyotlarda boshqaruvning ma’nosi bo‘yicha uch xil yo‘nalishda tushunchalar mavjud.

Birinchisiga ko‘ra, boshqaruv ma’nosi faoliyat deb keltirilgan. Masalan,

boshqaruv jarayoni bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan, o‘z vaqtida boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni:

- keljakni ko‘rvuchi;
- faoliyatni tashkillashtiruvchi;
- tashkilotni idora qiluvchi;
- faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;
- qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Ikkinchi yo‘nalish vakillari boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga “ta’sir etishi” deb hisoblaydilar. Bu yo‘nalish tarafdarlari boshqaruv - maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir etish bo‘lib, sub’ektning ob’ektga ta’siri natijasida ob’ektning o‘zgarishi, deb ta’riflashadi.

Uchinchi yo‘nalishga ko‘ra, boshqaruv - bu sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ya’ni to‘g‘ri va teskari ta’sirlarning uzluksizligi, bir-biriga ta’sir etuvchi sub’ektlar o‘zgarishining organik bog‘liqligi degan qarashlar mavjud.

A.I.Kitovning ta’rif berishiga ko‘ra: “Boshqaruv - bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishslash”.

Menejment — bu inglizcha so‘z bo‘lib, ingliz tilining Oksford lug’atida berilgan ta’rifga binoan u:

- boshqaruv hokimiyyati va san’ati;
- resurslarni boshqarish bo‘yicha alohida mohirlik va ma’muriy ko‘nikmalar tushuniladi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, *menejment* — bu boshqaruv, ya’ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko‘paytirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan *boshqaruv* — bu o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu *tanlov* asosida *qaror qabul qilish* va uning bajarilishini *nazorat qilishdir*.

Bugungi kunda menejment va boshqaruv to‘g‘risida quyidagi umum qabul qilingan fikrlar mavjud:

- *yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov*
- *mustaqil fan*
- *faoliyat turi, funksiya*
- *jarayon*
- *tashkilotlarni boshqaruvchi xodimlar*
- *boshqaruv apparati yoki organi.*

Boshqarish nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining tarixiy davrlarga bo‘linishi:

Davrlar	Rivojlanish bosqichlari
I Davr (Qadimiy davr)	Birgalikda mehnatni tartibga solish va tashkil qilishning eng birinchi, oddiy, boshlangich shakli ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan. Bu davrda boshqarish urug`, jamoa, qabila a’zolari bilan birgalikda maslaxatlashib amalgalashirilgan. Qadimiy Misrda davlat xo`jaligini boshqarish bo‘yicha boy tajribalar to‘plangan bo‘lib, bu davrda (eramizdan avvalgi 3000-2500 yillar) yetarli darajada rivojlangan davlat boshqarish apparati va unga xizmat qiluvchi qatlama (amaldor-mirzalar) shakllanadi. Boshqaruv faoliyatiga birinchilar qatori tafsif bergen shaxs Suqrotdir (eramizdan avvalgi 480-397 yillar). U boshqarishning turli shakllarini taxlil qilish asosida boshqarishning universallik tamoyilini tadqiq qildi. Platon (eramizdan avvalgi 428-394 yillar) davlat boshqarish shakli klassifikatsiyasini yaratdi. Aleksandr Makedonskiy (eramizdan avvalgi 365-323 yillar) xarbiylarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini Birgalikda mehnatni tartibga solish va tashkil rivojlantirdi
II-Davr (Industrial davr)	Bu davrda davlat boshqaruvi nazariyasi soxasida Adam Smitning xizmati katta bo‘lib, u boshqarish soxasida mutaxassis sifatida tanildi, chunki umehnat taqsimotining turli shakllarini taxlil qilib, shox va davlat majburiyatlariga tafsif berdi. Robert Ouenning ta’limoti menejment maktablarining shakllanishiga katta ta’sir kursatdi. Uning ishlab chiqarish boshqarishini insonparvarlashtirish, xamda o‘qitish zaruriyatini tan olish, ishchilarning mehnat va maishiy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha g‘oyalari bugungi kunda xam dolzarb masaladir. Boshqarish nazariyasi va amaliyotida birinchi burilish hisoblash texnikasining yaratilishi va qo‘llanilishi bilan bog‘liqidir
III Davr (Tartibga solish)	Bugungi menejment XIX asrda sodir bo‘lgan sanoat inkilobi natijasi bo‘lib, ishlab chiqarishning boshlangich tipi

davri)	bo‘lgan fabrikalarning paydo bulishi va katta guruxdagи kishilarni ish bilan ta’minlash zaruriyati, ularning individual egalarining barcha xodimlar faoliyatini nazorat qilish va boshqarishni murakkabligi natijasida eng yaxshi xodimlarni tanlab olib ularni o‘qitishlari birinchi menejerlarning vujudga kelishiga sabab buldi, chunki ular joylarda korxona egalari manfaatlarini ifodalashi mumkin edi
IV Davr (Axborot davri)	Sunggi boshqarish nazariyalari asosan boshqarishga oid “miqdoriy maktab” vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu maktabning paydo bo‘lishi boshqarishda matematika va kompyuterlarni kirishi bilan bog`liqdir. 60-yillarda matematik taxlil va menejerning sub’ektiv qarorlarining integratsiyasiga erishadigan matematik apparat yordamida foydalanishga asoslangan boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish boshlandi. Bir qator boshqarish funksiya larining formalashuvi, inson va EXM mehnatining birga kushilishi, tashkil qilish elementa tarkibini kayta kurib chiqishni talab kila boshladi. Hozir matematik usullar amalda boshqarish fanining barcha yo‘nalishlarida foydalanilmoqda

Menejment tamoyillari

	Tamoyillar	Izoh
1	Demokratiya-lash	Ishlarni ommani boshqarishga keng ko‘lamda jalb qilish, kengash va maslahatlar orqali bajarilishini talab qiladi.
2	Iyerarxiya	Boshqarishning pog‘onaligiga asoslanadi. Bu bir tomonidan, markaziy, ikkinchi tomonidan esa, viloyat shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati hamda boshqaruv idoralarining vazifalarini aniq belgilanishini talab qiladi. Samarasiz boshqaruv bo‘g‘inlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, boshqaruv jarayoni shunchalik chigallashadi.
3	Rejalashtirish	Boshqarish bo‘g‘inlari o‘rtasidagi taraqqiyot nisbatlarini aniqlaydi, shartnomalarning bajarilishini tashkil qiladi va nazorat qiladi.
4	Yakkahokimlik	Boshqarish tayinlangan shaxs tomonidan bajarilib, unga boshqariladigan ob’yekt, uning mol-mulki, pul mablag’lari ishonib topshiriladi. Yakkahokimlik boshqarishda qat’iy tartib va mehnat intizomini ta’minlaydi. Bunda “Ko‘plashib muhokama qilmoq keragu, lekin mas’uliyat yakka bir kishida bo‘lmog‘i kerak” degan prinsipga amal qiladi.
5	Ilmiylik	Menejerlardan chuqr bilimni, o‘z sohasi bo‘yicha iqtisod, mantiq, ruhiyat, matematika, chet tili, texnologiya kabi fanlarni yaxshi bilishni talab qiladi. Shu bilan birga, uning saviyali tashkilotchi, tashabbuskor, g‘oyalarga boy,

		izlanuvchan, bozor konyukturasini yaxshi biladigan, tavakkal qilishdan qo‘rqlaydigan mutaxassis bo‘lishini ham talab qiladi.
6	Qayta aloqalar	Topshiriqni berishda “tushundinglarmi?” deb so‘rash yetarli emas. Bunday savloga javobgar shaxsdan tasdiqllovchi javobni, topshiriqni to‘g‘ri tushunganligini so‘rash kerak.
7	Javobgarlik	Bu eng avvalo, boshqaruvchilarning javobgarligini nazarda tutadi. Bajaruvchanlik madaniyati past, mas’uliyatsiz rahbar korxona va xodimlarning sho‘ri. Menejer uchun huquqiy javobgarlik o‘ta yuqori bo‘lishi kerak.

Boshqaruv funksiyalari

- Axborot-tahlil funktsiyasi
- Maqsadli-motivlashtirish funktsiyasi
- Oldindan ko‘rish-rejalashtirish funktsiyasi
- Tashkiliy-ijrochilik funktsiyasi
- Nazorat-tashxis funktsiyasi
- Tartibga solish – muvofiqlashtirish funktsiyasi

Boshqaruv metodlari

- Iqtisodiy metodlar
- Tashkiliy-ma’muriy metodlar
- Ijtimoiy-psixologik metodlar

Boshqaruv uslublari

Demokratik (kollegial) . Liberal (erkin ish yuritish) . Avtoritar (direktiv)

Pedagogik Kengash ta’lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Pedagogik Kengashning **asosiy vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- ta’lim muassasasining tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o‘tkazadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;
- ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydi;
- ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta’lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqadi;
- pedagogik jamoaning ma’lum yo‘nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;
- ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o‘z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Metodik Kengash ta’lim muassasasida ta’lim jarayonining sifatini ta’minlash, o‘qituvchilarning g‘oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir. Metodik Kengashning faoliyat doirasi keng bo‘lib, u tomonidan quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- ta’lim jarayonining metodik ta’midot holatini o‘rganadi, ta’lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi; ta’lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;
- yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalariga umumiylahabarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- ta’limga doir me’yoriy va metodik hujjatlarni o‘rganadi, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;
- ta’lim muassasasi o‘quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;
- o‘qituvchilarning g‘oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;
- o‘qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo‘limlari mazmuni bo‘yicha tavsiyalar beradi;
- ta’lim muassasasi ta’lim jarayonida qo‘llashi uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;
- o‘qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

- davlat ta’lim standartlari talablari, o‘quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;
- tashqi va ichki nazorat natijalariga Davlat ta’lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;
- o‘quv jarayoniga o‘qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlarini tashkil qilish;
- ta’lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongni shakllantirishga doir ko‘rsatmalar berib borish;
- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko‘rsatmalar berish;
- yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;
- o‘qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma’naviy va moddiy rag’batlantirishga tavsiya qilish;
- pedagogik xodimlarning attestasiyadan o‘tkazish bo‘yicha materiallarni tayyorlash;
- ta’lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo‘yicha darsdan tashqari (fakultativ, to‘garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Boshqarish deb nimaga aytildi?
2. Ta’lim muassasasi menejmenti tushunchalarini izohlang.
3. Menejmentning qanday funksiyalari mavjud?
4. Menejment metodlari deganda nima tushuniladi?

5. Menejment metodlariga izoh bering.
6. Boshqaruvning qanday uslublari bor?
7. Ta’lim sohasini boshqarish qaysi sub’ektlar tomonidan amalga oshiriladi?
Ularning vakolatlariga nimalar kiradi?
8. «Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida»gi Nizomni o‘rganib chiqing.
9. Ta’lim muassasasi Ustaviga ta’rif bering, uning tuzilishini ta’riflab bering
10. Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillarini aytib bering.

V BOB. KORREKSION PEDAGOGIKA

8-§. Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta’lim (Inclusive Education)

Tayanch tushunchalar

Korreksiya, korreksion pedagogika, korreksion-tarbiyaviy ishlar, anomaliya, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, kompensatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, anomal bolalar, inklyuziya, inklyuziv ta’lim, integratsiya, resurs.

Mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 25- 30 nafar</i>	<i>Vaqti: 2 soat.</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>Amaliy</i>
<i>Mashg‘ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish. 2. Rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash. 3. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilash ishslash metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish 4. Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalarini o‘rganish
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	talabalarning korreksion pedagogika, inklyuziv ta’limga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini tarkib toptirish
<i>Pedagogik vazifa:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. Korreksion pedagogikaning maqsad, vazifalarini va kategoriyalari mohiyatini o‘zlashtirilishiga erishish. 2. Talabalarni bolalarning rivojlanishdagi nuqsonlarni tasnif etishga o‘rgatish. 3. Talabalarda rivojlanishida nuksani bulgan bolalar bilan ishslash metodlaridan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish 4. Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalarini o‘rganish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalari hamda asosiy kategoriyalari mohiyatini tushunib oladilar. 2. Rivojlanishdagi nuqsonlarni, anomaliyalarning turlarini tasnif etishga o‘rganadilar. 3. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishslash metodlaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar 4. Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalarini o‘rganishadi. Inklyuziv ta’lim oldidagi muammolar, inklyuziv ta’limda kadrlar masalalari haqida keng ma’lumotga ega bo‘lishadi
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	“Klaster”, “Blits so‘rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Bumerang” texnologiyalari.

O‘qitish vositalari	Komp’yuter texnologiyasi, amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, slaydlar.
O‘qitish shakli	Individual va kichik guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo’llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.
Monitoring va baholash	savol-javobli so‘rov, o‘quv topshiriqlari
Baholash mezoni	Jami: 5 ball 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konsept qilish - 1 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish va me’yoriy hujjatlar bilan ishlash - 3 ball 3. O‘zbekistonda «Ta’lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari haqida qisqacha ma’ruza bilan chiqish - 2 ball

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1- bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mashg‘ulotning mavzusi, rejasini e’lon qiladi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi (2-ilova)	Tinglaydilar
	1.4. “Tushunchalar tahlili” metodi asosida o‘rganilishi lozim bo‘lgan asosiy tushunchalarni havola etadi (3-ilova)	“Tushunchalar tahlili” metodi asosida jadvalni to‘ldirishadi
2- bosqich. Asosiy jarayon (63 daqiqa)	2.1. Korreksion pedagogikaning vazifalari yuzasidan mashq topshiriqlari beradi. (4-ilova) 2.2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 55-56-moddalarini Insert usulida tahlil qilishni topshiradi. (5-ilova) 2.3. O‘zbekistonda «Ta’lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari haqida qisqacha ma’ruza bilan chiqshlarini so‘raydi. (6 -ilova) 2.4. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlariga doir amaliy topshiriqlar beradi	Mashq bajarish asosida korreksion pedagogikaning vazifalarini o‘zlashtiradilar. Qonunning 55- 56-moddalarini Insert usulida tahlil qilib, mohiyatini o‘rganishadi. O‘zbekistonda «Ta’lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari haqida ma’ruza qilishadi. Amaliy topshiriqlarni

	2.5. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalarini o'rganish	bajaradilar
3- bosqich. Yakuniy bosqich (7 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining baholari e'lon qilinadi	Tinglaydilar
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi	Javob yozadi
	3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'rildigan mavzuni e'lon qiladi va mustaqil ta'lim topshiriqlarini beradi.	Yozib oladi

1-ilova

Mavzu: Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta'lim (Inclusive Education)

Reja:

1. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
2. Rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash.
3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilash ishlash metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish
4. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalarini o'rganish

2-ilova

Baholash mezoni

Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish - 1 ball
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish va me'yoriy hujjatlar bilan ishlash - 3 ball
3. O'zbekistonda «Ta'lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari haqida qisqacha ma'ruza bilan chiqish - 2 ball

3-ilova

Tushunchalar	Mazmuni (Talaba javobi)	To'g'ri javob
Anomaliya		
Korreksiya		
Korreksion-tarbiyaviy ishlar		

Kompensatsiya		
Ijtimoiy reabilitatsiya		
Ijtimoiy adaptatsiya		
Surdopedagogika		
Tiflopedagogika		
Logopediya		
Oligofrenopedagogka		

4-ilova

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari yuzasidan mashq bajaring.

Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘ying.

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo‘lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish vaaniqlash;
- 2) differensatsiyali o‘qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarninghal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va.....;
- 4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilishilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish,bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 6) anomal bolalikningbo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- 7) anomal bolani rivojlantirish va unijarayonining samaradorligini oshirish.

(Foydalanish uchun so‘zlar: korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini, muammolarini, hisobga olish, metodlarini, yo‘qotish yoki kamaytirish, oldini olish, ijtimoiylashtirish)

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 55- (Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash) va 56-modda (Ijtimoiy reabilitatsiyaga muxtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash)larini Insert usulida tahlil qilish (Ushbu moddalar quyida berilgan).

Insert metodi

Insert metodi tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

- V - bilganlarimni tasdiqlaydi
- - bilganlarimga zid keladi
- + - yangi axborot
- ? - meni o‘ylantirib qo‘ydi.

Matnni insert usulida o‘rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin

«√»	« - »	« + »	« ? »
«ha” (“√”) – men bilgan ma’lumotlarga mos;	“–” – men bilgan ma’lumotlarga zid;	“+” – men uchun yangi ma’lumot;	“?” – men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotlarni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

“O‘zbekistonda «Ta’lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari” mavzusida qisqacha ma’ruza tayyorlash. (Bunda talabalar V.S.Raxmanovaning “Korreksion pedagogika va logopediya” kitobining 14-16-betlaridan foydalanishlari mumkin. Ma’ruzada quyidagilarga e’tibor qaratiladi.

1. Rivojlangan mamlakatlarda “Maxsus ta’lim zaruriyati” nomli hujjatning qabul qilinishi

2. YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” dasturi doirasida O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishslash metodlariga doir amaliy topshiriqlar


1-topshiriq. Anomal bolalarning fikrlashini o‘rganish maqsadida taxminiy so‘rovnama variantini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Anomal bolalarning rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda ularga chizish taklif etiladigan rasmlar ro‘yxatini ishlab chiqing.

Amaliy mashg‘ulotdafoydalanish uchun materiallar

Korreksion pedagogika va uning maq’sad va vazifalari. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo‘lgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug‘ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya) - yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, ta’limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sanaladi.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalar kiradi:



Pedagogik lug‘atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirdardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to‘liq) sifatida tushunilishi ta’kidlab o‘tiladi.

Ana shu lug‘atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga muhtoj bo‘lgan, sog‘lig‘i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yo‘qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Bolaning xoh ona qornida, hoh tug‘ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo‘lgan ma’lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya’ni jismoniy yoki ruxiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Defektologiya fanida maxsus yordamga muxtoj -- anomal bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi: Ular quyidagilardir:

- 1) eshitish kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar (tug‘ilishdan kar, zaif eshituvchi bolalar", keyinchalik zaif eshituvchi bo‘lib qolgan bolalar);
- 2) ko‘rish qobiliyati zaif (ko‘r, zaif ko‘ruvchi bolalar);
- 3) ko‘r-kar-soqov bolalar;
- 4) oligofren (debil, imbetsil, idiot bolalar);
- 5) og‘ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 6) harakat-tayanch a’zolarida kamchiliklari bo‘lgan bolalar;
- 7) ruxiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 55-modda: Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash

Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim olishini ta’minlaydi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruxiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi. Ta’lim oluvchilarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ulardan chetlatish ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.


Davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar davlat ta’minotida buladi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 56-modda: Ijtimoiy reabilitatsiyaga muxtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash

Alohibda sharoitlarda o‘qitish va tarbiyalanishga muxtoj bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ularning ta’lim olishini, kasbiy tayyorgarligini va ijtimoiy

reabilitatsiya qilinishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzida jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalarning (shaxslarning) ta'lim olishi, tarbiyalanishi va mustaqil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratiladi.



O'zbekistonda «Ta'lim hamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari.

1994 yillarda YUNESKO "Maxsus ta'lim zaruriyati" nomli hujjatni tayyorlab, unda maxsus ta'limga muxtoj bolalar va yoshlar uchun ta'limni tashkil etish va takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu ta'lim turida asosiy o'rin **reabilitatsiya** masalalariga ajratilgan. Hujjatda: «Maxsus ta'limni alohida yordamga muxtoj qishilarga tashkil etishdan maqsad - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o'smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida **jamiyatga tiklash**»- deb ta'kidlangan. Bolada nuqson bo'lishiga qaramay uning qo'lidan keladigan ish turini unga o'rgatib, o'qitib, tarbiyalab, jamiyatda o'z o'rmini topib ketishga yordam berish - **ijtimoiy reabilitatsiya**.

Rivojlangan mamlakatlarda "Maxsus ta'lim zaruriyati" nomli hujjatlga javoban SVR -Reabilitatsiya tashkiloti (Sommin.Vased ReabilitatIop) tashkil etildi. Tashkilot

nogironlar jamiyati, nogironlar oilalari, sog'liqni saqlash, mexnat va axolini ijtimoiy muhofaza etish hamda kasaba uyushmalari vakillarini o'z ichiga qamrab olgan.

Bunday nufuzli tashkilotning asosiy maqsadi - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni himoyalash, xuquqlarini tiklash, vakolat berish, ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish, jamiyat va raxbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.

Alovida yordmga muhtoj bulgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari o'rganiladi. Ushbu ta'lim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya, reabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta'minlash; yura olmasa - nogironlar aravachasidan foydalanish, qo'lida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashgan va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxurlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv-jalb etish degan ma'noni anglatadi, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro bog'lanib, birgalikda ta'lim olishidir. Anomal bola uyiga yaqin, o'ziga qulay ommaviy bog'cha yoki mакtabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Har bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bo'lib, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko'maklashadi: maxsus o'qitish uskunalarini, aparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o'tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bo'lsa, o'zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi; sog'liqni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi. Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovvut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bo'lim tashkil etilishi mumkin. Funksional integratsiyada nogiron va sog'lom bola

orasidagi funksional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun alohida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik to'garak va sportga jalb etish foydalidir.

Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va me'yorda rivojlangan bolalarni o'zaro do'stlashishga, bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi, me'yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bo'lishga o'rgatadi. Jamiyat nogiron kishilarga to'g'ri munosabatda bo'lishi kerak. Konstitutsiyamizdagi barcha bandlar ular uchun ham ta'alluqli. Har qanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amhurlik ko'rsatiladi.

Integratsiyalashgan - mujassam, ajratib bo'lmaydigan qism degan ma'noni bildiradi. Har bir bola ta'limga jalb etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barcha teng huquqga ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi.

2001 yilda YUNESKO "Ta'lim hamma uchun" dasturini qabul qiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham, ushbu dasturga imzo chekgan. Dastur global, keng miqyosida "Ta'lim hamma uchun"(Obuchenije dlya vsex) joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi. O'zbekistonda «Ta'lim hamma uchun» milliy dasturi 2005 yili dekabr oyida qabul etildi. Shu davrdan beri uni joriy qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda davlat tomonidan inklyuziv ta'lim haqidagi hujjatlar rasmiylashtirilmoqda, hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan holda turli nodavlat tashkilotlar chet ellarda bu ishlarning ahvolini o'rganib chiqib, inklyuziv ta'limning ayrim turlarini joriy etmoqdalar. O'zbekistonda YUNESKONING ta'lim bo'yicha maslahatchisi yordamida Respublika ta'lim markazining maxsus ta'lim bo'limi a'zolari, "Oila" Ilmiy pedagogik markazi, Nogiron farzandli ayyollar jamiyatlari, "Umr" markazi, "Ulibki detyam" xalqaro jamiyatning O'zbekistondagi guruxi (Lorans Mirelett-direktori), "Umid"markazi, (Maxmudova N.M-direktor), xalqaro" Opereyshin Mersi" tashkiloti (direktor-Andreya Vogt), "Kenes-" sentr reabilitatsii i trudovoy adaptatsii (direktor-Suleyeva M.M.), "Beguborlik"-ijtimoiy birlashma (raisi-AbdubekovaD.N), "PEGAS-

AL-FALAK” markazi (direktor-Aminova V.Yu.) ”KRIDI”, ”Feniks”markazi (direktor-Yusupova G.S.Navoi viloyatida), Respublika Ijtimoiy adaptatsiya markazi va boshqalar talaygina muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

O‘zbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari ham diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta’lim elementlari talaygina. Ko‘p yillardan beri umumta’lim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o‘z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir rayondagi yordamchi mexnat ta’limi maktabi, me’yorda rivojlangan bolalar ta’lim oluvchi muassasalarda ulgurmovchi o‘quvchilar bilan yil davomida ma’lum ishlarni olib borishmoqda, ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta’lim shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasi inklyuziv ta’lim haqida

20-modda. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim extiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minalashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Korrektsion pedagogika fani nimani o‘rganadi?
2. Korrektsion pedagogikaning qanday sohalari mavjud?
3. Korrektsion pedagogikaning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
4. Korrektsion pedagogikaning asosiy kategoriylariga nimalarkiradi?
5. Anomal bolalar deb kimlarni aytamiz?
6. Anomal bolalarning qanday toifalarilari mavjud?
7. Anomal bolalar qayerda ta’lim olishlari kerak va nima uchun?
8. Anomaliyalarning kelib chiqish sabablari nima?
9. Maxsus yordamga muxtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?
10. Inklyuziv ta’limda deganda nimani tushinasiz?
11. Inklyuziv ta’lim qanday vazifalarni hal etishga yordamlashadi?
12. Inklyuziv ta’limning vazifalarini aytib bering.

II BO'LIM. PEDAGOGIKA TARIXI

9-§. Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari

Tayanch tushunchalar

Amir Temur, Temuriylar davlati, XIV - XVI asrlar, Sharq o'yg'onish davri, madaniyat, ilm - fan, san'at rivoji, "Amir Temur o'gitlari" va "Temur tuzuklari"i, Ulug'bek, riyoziyot va falakkiyot fanlari, "Boburnoma", Abdurahmon Jomiyining "Tuhfat-ul-ahror" asari, Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlari, Jaloliddin Davoniyning "Axloqi Jaloliy" asari, Husayn Voiz Koshifiyining "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asari

Amaliy mashg'ulining ta'lim texnologiyasi

Mashg'ulot vaqtisi – 2 soat	Talabalar soni – 25-30
Mashg'ulot shakli:	Amaliy
Mashg'ulot rejasi:	<ol style="list-style-type: none">Temur sultanatidagi ta'lim-tarbiya tizimini o'rghanish.Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlariHusayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlarining ahamiyatini yoritish.Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" va "Hayratul abror" asarlaridan hozirgi kun ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid g'oyalarni ajratish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ta'limiy-axloqiy qarashlari, Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi talabalar bilimlarini mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: 1. Temuriylar davrida ta'lim-tarbiyaning tutgan o'rni, pedagogik	O'quv faoliyatining natijalari: 1. Temuriylar davrida ta'lim-tarbiyaning tutgan o'rni, pedagogik

<p>fikrlar taraqqiyotiga oid ma'lumotlar taqdim etish.</p> <p>2. Amir Temur, uning yetuk inson tarbiyasiga oid qarashlari va "Temur tuzuklari" asari bo'yicha suhbat tashkil etadi.</p> <p>3. Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ta'limiy-axloqiy qarashlari yuzasidan topshiriqlar beradi.</p> <p>4. Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlariga oid manbalar va adabiyotlar bilan ta'minlash</p> <p>5. Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" va "Hayratul abror" asarlaridagi ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarni o'rghanishni tavsiya qiladi.</p> <p>6.</p>	<p>fikrlar taraqqiyoti haqida ma'lumotga ega bo'lishadi.</p> <p>2. Amir Temur, uning yetuk inson tarbiyasiga oid qarashlari va "Temur tuzuklari" mohiyatini tushunib oladilar.</p> <p>3. Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ta'limiy-axloqiy qarashlarini o'rghanib, gapirib beradilar</p> <p>4. Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlarini manbalar asosida tahlil qilib hozirgi kundagi ahamiyatini yoritadilar</p> <p>5. Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" va "Hayratul abror" asarlarida inson kamolotiga xos xislatlarning yoritilishi, mazmun va mohiyatini faktlar orqali isbotlab beradilar.</p>
Ta'lim metodi	"Blits-so'rov", "Klaster", "Venn diagrammasi" metodi
Ta'limni tashkil etish shakli	frontal, kichik guruh va individual
Didaktik vositalar	Darslik, o'quv qo'llanma, slayd, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, A3-A5 formatli qog'ozlar, marker, doska, bo'r
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Baholash mezoni	<p>Jami: 5 ball</p> <ol style="list-style-type: none"> Adabiyotlar bilan ishslash va konspekt qilish - 1 ball Amaliy topshiriqlarni bajarish va asarlar ustida ishslash - 3 ball Venn diagrammasi asosidagi tahlil - 1 ball

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Bosqich vaqtி	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
I-Bosqich. Tashkiliy qism (5 min).	<p>1.1. Mavzu, reja va mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalari ma’lum qilinadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi (2- ilova)</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Tinglaydilar</p>
II-Bosqich. Asosiy qism (65 min).	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalg qilish va bilim darajalarini aniqlash uchun blits savol-javob o‘tkazadi(3-ilova).</p> <p>2.2. Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuzasidan topshiriqlar beradi (4-6-ilova).</p> <p>2.3. Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ta’limiy-axloqiy qarashlarini o‘rgatish Venn diagrammasi asosida tahlil (7-9-ilova)</p> <p>2.4. Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlarini o‘rganishni tashkil etadi (10-12-ilova)</p> <p>2.5. Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” va “Hayratul abror” asarlaridagi ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarni o‘rganishni tavsiya qiladi. (13-14)</p>	<p>2.1. Eshitadi. navbat bilan bir-birini takrorlamay savollarga javob berishadi.</p> <p>2.2. Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar bo‘yicha topshiriq bajarishadi.</p> <p>2.3. Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ta’limiy-axloqiy qarashlarini sharhlaydilar</p> <p>2.4. Husayn Voiz Koshifiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlarini ularning asarlaridan misollar keltirib yoritib beradilar.</p> <p>2.5. Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” va “Hayratul abror” asarlaridagi ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarni o‘rganishni tavsiya qiladi.</p>
III-Bosqich. Yakuniy qism (10 min).	<p>3.1. Mavzuni yakunlab aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntirish.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantirish.</p> <p>3.3. Venn diagrammasi asosidagi tahlilni uyda yakunlashni topshiradi (15-ilova)</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Tinglaydi</p> <p>3.3. Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

**Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning taraqqiy
etishi. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari**

Reja:

1. Temur sultanatidagi ta’lim-tarbiya tizimini o’rganish.
2. Mirzo Ulug’bek va Zahiriddin Muhammad Boburning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari
3. Husayn Voiz Koshify, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlarining ahamiyatini yoritish.
4. Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” va “Hayratul abror” asarlaridan hozirgi kun ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid g’oyalarni ajratish.

Baholash mezoni

Jami: 5 ball

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish - 1 ball
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish va asarlar ustida ishlash - 3 ball
3. Venn diagrammasi asosidagi tahlil - 1 ball

Blits so‘rov savollari

1. Prezidentimizning Rennesans haqidagi qanday fikrlarini bilasiz?
2. Birinchi va ikkinchi Rennesans qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
3. Uchinchi Rennesans haqida gapiring
4. Rennesans bilan Temuriylar davrining nima aloqasi bor?
5. Temur davlatining gullab - yashnashiga nima sabab bo‘ldi?
6. Nima uchun XIV - XVI asrni Sharq o‘yg‘onish davrining ikkinchi davri deb atash mumkin?. Uning birinchi davri qachon edi?
7. Amir Temur madaniyat, ilm - fan, san’at rivojiga qanday hissa qo‘shtigan?
8. Ulug’bekning riyoziyot va falakkiyot fanlari rivojiga qo‘shtigan hissasini qanday baholaysiz?
9. "Boburnoma"ning tarbiyaviy ahamiyati qanday?
10. Jomiyning qaysi assarlarida ta’lim-tarbiya masalalari yoritilgan?
11. Jaloliddin Davoniyning qanday asarları bor?
12. Voiz Koshifiyning javonmardlik haqidagi qarashlarini eshitganmisiz, uning mohiyati nima?
- 13. Alisher Navoiyning qaysi asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari aks etgan?**

Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlarni mualliflari bilan moslang

Muallif	Asar nomi
Hofizu Abru	"Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo'shilish joyi"
Abdurazzoq Samarqandiy	Zubdan tavorix" (Tarixning qaymog'i)
Mirxon	"Xabibus siyar"
Xondamir	"Ravzatus safo"

Mazkur matndan tushirib qoldirilgan so'z va jumlalarni to'ldiring

Maktab va tarbiyaviy ishlар

Temuriylar davrida darslar individual tarzda olib borilar edi. Har bir o'quvchining o'quv temasi mavjud, biror bir kitobni tugatganlariga o'qituvchi diniy rasm-rusumlarga amal qilgan holda mashq qildirardi. Eng kichik o'quvchilar ham nomoz va ibodat qilishga o'rgatilgan. Maktabda darslarni to'xtatilgan holda nishonlanardi. Masalan: Navro'z, Ramazon hayitlari hamisha nishonlanardi.


Demak, bolalar milliy va diniy an'analar ruhida tarbiyalanilardi. Maktabda bolalarni qo'rqitish yo'lga qo'yilgan edi. Qo'rqitish maqsadida ko'p maktablarda keng yo'lga qo'yilgandi.

Musulmon diniy maktablari o'g'il bolalar va qizlar mакtabiga bo'lingan edi. O'rta Osiyoning ko'p shaharlarida qizlar uchun bir necha boshlang'ich diniy maktablar mavjud edi. Bunday maktablar odatda bo'lar edi.

Umumiy maktablar soning qizlar mакtabiga to'g'ri kelardi. Otin bibi har bir o'quvchidan boshqa maktablardagiga qaraganda ko'p haq olardi. Qizlar mакtabida arab matnlari ya'ni ham shug'ullanishardi.

(Tushirib qoldirilgan so'zlar: otinoyining uyida; 4/1 qismi; qur'on ustida; diniy bayramlar; jismoniy jazo;)

Amir Temur fikricha vazirlar ega bo‘lishi lozim bo‘lgan to‘rt sifatni toping



Asllik, toza nasllik; Aql- farosat; Sipohi raiyat ahvoldidan xabardorligi; Sabr, chidamlilik, tinchliksevarlik; rostgo`ylik; kamtarlik; mehnatsevarlik

Ulug`bekning matematika va falakkiyotga oid ta'limgotlari quyidagilardan iborat

- Mahalliy joyning jug`rofiy koordinatalarini aniqlash
- Mahalliy meridian bilan qibla yo`nalishini ko`rsatuvchi katta doira kesishish burchagini aniqlash
- Jug`rofiya ga oid koordinatalarni hisoblash uchun aniq matematik hisoblash qoidalari va usullarini bilish
- Jug`rofik koordinatalarni bilga holda quyosh balandligini aniqlash qoidalarni bilish
- Turli va qatri aniqlovchi o'lchash asboblarini yasash
- Turli shaharlar orasidagi aniq masofalami ariqlash uchun geodezik o'lchashlami bajarish
- Yeming ma'muriy qismi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun xaritalar tuzish.
- Xaritalar tuzish uchun matematikiga oid proektsiyalash usullarini
- Astronomiya, jug`rofiya, geodeziyaga taalluqli hisoblar ni bajarish uchun yuksak ariqlik dengiz matematik usullari bilishi
- Masjid, madrasa maqbara va rasadxonalar barpo etish uchun me'morchilik san'ati va an'analaridan xabardor bўlish

8-ilova


Quyidagilarning qaysilari Ulug`bek va qaysilari Boburning asarlari hisoblanadi. Ajrating

Ulug`bek asarlari	Bobur asarlari


1. "Mubayyin".
2. "Ziji Ulug`bek"
3. "Boburnoma"
4. "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola"
5. "Tarixi arba' ulus"
- 6 "Xatti Boburiy",
7. "Mufassal",
8. "Harb ilmi"

9-ilova

Ulug`bek va Boburning hayoti, faoliyati, ijodi va ta'lif-tarbiyaviu qarashlarini Venn diagrammasi asosida tahlil qiling



Husayn Voiz Koshifiy axloqiy tarbiyani quyidagicha yo`nalishlarga bo`lgan edi.



Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy» asarida ko`rsatilgan javonmardlikning zoxiriylari va botiniy ruknlarini o`rganining va munosabat bildiring

Javonmardlikning ruknlari	
Zoxiriylari:	Botiniy ruknlar:
<p>G`iybat bo`xton va yolg`ondan tilini tiyish.</p> <p>Nojuya noma'lum so`zlardan qulog`ini berkitish.</p> <p>Ko`rish nojoiz narsalardan ko`zini yumish.</p> <p>Harom narsalardan qo`lini tortish.</p> <p>Borish man qilingan joylardan oyog`ini tortish.</p> <p>Harom ovqatdan tiyilish, zinodan saqlanish.</p>	<p>Sahovat</p> <p>Kamtarlik.</p> <p>Qanoat.</p> <p>Avf va maxorat.</p> <p>Kibr va g`ururni tark etish.</p>

Jaloliddin Davoniy kasb - hunar egalarini 4 toifaga bo`ladi:

Qalam ahllari: olim, noib, munajjim, qozi,
muxandislar


Harbiylar


Savdogar, hunarmandlar

Dehqonlar

Davoniy insoniy fazilatlarni 4 ga bo‘ladi: donolik,adolat, shijoat, iffat. U bularning har biri ichiga ham yana qator fazilatlar kiritadi. U yana sevgini 5 xilga bo‘ladi: 1.Ilohiy sevgi. 2. Ota - onaga muhabbat. 3. Muallimning o‘z talabasiga muhabbati. 4. Podshoning fuqarosiga muhabbati. 5. Ilm - ma’rifatga muhabbati. U sevgini ham kamolot belgisi sifatida qaraydi.

“Klaster” grafigi asosida A. Navoiyning hayoti ijodi va asarlaridagi axloqiy-ta’limiy g‘oyalarni tizimlashtirish.





**Quyidagi asarlarni B-B-B- metodi asosida o‘rganing va tahlil qiling
B-B-B- metodi**

	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1.	Temur tuzuklari			
2.	Ziji Ulug`bek			
3.	Boburnoma			
4.	Bahoriston			
5.	Axloqi Jaloliy			
6.	Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati			
7.	Hayratul abror			
8.	Mahbub-ul qulub			

Mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar:

1. **Temur sultanatiing ta’lim-tarbiya tizimi.** XIV asrning 50 yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etdi. Madaniyat, maorif qaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV asrning 2-yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg‘onish davrining 2-bosqichi deb ataladi. Temur Movorounnahrga boshqa o‘lkalardan hunarmandlar, olimlar, san’atkor, muxandislarni olib keltirdi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, geografi, tarix, adabiyot, falsafa, tarbiyashunoslikka oid ajoyib asarlar yaratildi.

Temurdan so‘ng temuriylar davrida mamlakat Movorounnahr va Xuroson davlatlariga ajralgan holda boshqarildi. Samarqand va Hirot madaniyati, ilm - fan markaziga aylandi. Shoxizinda, Guriamir, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, qator bog‘lar va boshqalar barpo etilganligi haqida fikrlar bildiriladi. Temuriylar davrida ta’lim- tarbiya masalalari, Temir tuzuklariga bat afsil to`xtalish uchun talabalar «Pedagogika tarixi» T., 1996 yil. (K. Hoshimov va boshqalar)o‘quv qo‘llanmasining 93-100 betlaridan foydaliniladi.

Tarix fanlar doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o‘zi amal qilgan quyidagi sifatlarni yuksak baholaydi:

Qur`onga qat‘iy rioya qilish

Jiddiy va odil bo‘lish, boyni kambag’aldan ustun qo’ymaslik

Xayri -ehson qilish

Birovga noxaq ozor yetkazmaslik, rahm shafqatli bo‘lish

Barcha so’zlarida doim haqiqatgo’ylikka amal qilgan

Islomga ta’luqi bo’lgan ishlarni doim kundalik, dunyo ishidan ustun qo’yish

Vadasiga vafo qilish

Birovlar mulkiga ega bo‘lishga intilmaslik

Nopok ishlardan o’zini tiyish

Insofli bo‘lish va iymonlikka chorlash

Ilmli kishilarni e’zozlash


Sohibqiron Amir Temur umr bo‘yi din va shariat, davlat va uni boshqarish kengash o’tkazish, podsho va vazirlarning mohiyatini va ularning ahamiyati haqida yo’l-yo’riqlar yaratgan. Uning yashashning asosiy maqsadlari bo’lmish: adolat vaadolatsizlik, davlat ishlarini idora etish qoidalarini o’zining “Tuzuklari”da bat afsil bayon etilgan. “Tuzuklar”ning yozilishi haqida har hil fikrlar mavjud. Ba’zilar “Tuzukni” Temur yozgan desalar, ba’zilar uning kotibalari yozgan deydilar. Ba’zilar “Tuzuklar” XII asrda fors-tojik tilida boshqa solnomachilar tomonidan yozilgan degan taxminni bildiradilar.

Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining 90-91 sahifalarida: “Manzumai turk” asariturk tilida Temur bosh devonida yozilgan va Temur tomonidan tahrir etilgan deb yozilgan.

Mirzo Ulug`bek va Zahiriddin Muhammad Bobur ta'lim-tarbiya haqida. Mirzo Ulug`bek (1394-1449) O'rta Osiyo xalqlari ilm - fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, millat pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolardan biridir.

U davlatning madaniy markazlaridan Buxoro (1417), Samarqand (1420) keyinchalik G'ijduvonda (1433) madrasalar qurdirdi. Bu madrasalarda mashhur olimlar, ilohiyot ilmlaridan tashqari riyoziyot, xandas, astronomiya, tibbiyat, tarix, geografi, ilmi aruzdan dars berishgan.

Madrasalarda mudarrislik yirik olimlar, Ulug`bekning yaratgan asarlari haqida fikr bildirish uchun talabalar «Pedagogika tarixi» T., 1996 yil. (K. Hoshimov va boshqalar)o'quv qo'llanmasining 169-178- betlaridan foydaliniladi .



Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan, temuriylar avlodining so'nggi vakillaridan biri Umar Shayx Mirzo O'g'li Zaxiriddin Muhammad Boburdir. Bobur Mirzo Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx, ya'ni Sohibqiron Amir Temurning chevarasi oilasida 1483 yilda tavallud topdi. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi va o'qidi, yoshligidan ilmga,

she’riyatta berildi. Dovyurakligi, jasurligi va epchilligi tufayli uni «Bobur ya’ni «Yo‘lbars» deb atadilar.

Zahiriddin Muhammad Bobur ilm va fanning, san’atning, umuman hayotning hamma sohalari bilan yaqqindan qiziqan. G’ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste’dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug’ siymolaridan biriga aylantirdi. o’tkir zexnli Bobur Mirzo 9 yoshida savodini chiqaradi, qur’oni yod oldi, she’rlar yozib uni sharxlay bildi. 10-12 yoshlarida xarbiy san’at sirlarini, davlatni boshqarish usulini, jismoniy tarbiya mashqlarini mukammal darajada egalladi.

Iste’dod sohibi bo‘lgan Bobur 12 yoshida, otasi vafotidan so‘ng taxtni egallab, podshoh etib tayinlandi va umrining oxiriga qadar o‘zi ko‘rgan, hayotda guvoh bo‘lgan, jang suronlari, o‘zga yurtdagi jaxongashtaliklar, vatanni qo‘msash, bolaga, oilaga qarindosh-urug’larga munosabat masalalarini o‘zining tarixiy-geografik kitobi bo‘lmish «Boburnoma»da bayon etdi.

Bu borada o‘zbek olimi taniqli geograf professor H.Hasanov uni faqat davlat arbobi emas, balki mashhur lashkarboshi, tarixchi, geograf, biolog, musiqachi, tilshunos, me’mor ham bo‘lganini ta’kidlaydi. Uning ijodiga mansub bo‘lgan «Xatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o‘rgatish kitobi sifatida foydalaniladi. Zaxiriddin Muxammad Bobur hayotlik paytidayoq o‘ziga xos ma’rifiy maktab yaratdi. Maktab tushunchasi turli ma’nolarda ishlataladi. Maktab tor ma’noda farzandlarga ilm-ma’rifat, ma’lumot beruvchi joy, keng ma’noda fan, san’at, adabiyot, ijtimoiy, siyosiy hayot kabilarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan yo‘nalish, oqimdir.

Bobur hayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orqali boshlab berdi. Gulbadanbegim otasi Bobur vafotidan so‘ng bu maktabni davom ettirib, «Xumoyunnoma» asarini yozdi. Bu maktab XX asr adabiyotida ham davom etdi. «Esdaliklar» (S.Ayniy), «Bolalik» (Oybek) va boshqa asarlar.

Boburning ta’lim nazariyasidagi yana bir muhim xususiyati, o‘zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Avlodim bilsin deb eliga o‘rgatgisi keladi. Bu hol uni bashariyatga buyuk ma’naviy boyliklar qoldirishiga muvaffaq qildi.

Undan meros bo‘lib qolgan lirik she’riy asarlar; «Boburnoma», «Muxtasar», «Mubayyin», «Voldiyya» va boshqa asarlari jahon fanida, ayniqsa xalq tarbiya qonunlarida alohida o‘rin tutadi. «Boburnoma»da esa shu darajada ko‘p va turlituman ma’lumotlar borki, ulardan hozirgi davrdagi mavjud fanlarning deyarli barcha sohalariga tegishli ma’lumotlarni olish mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, "Boburnoma" katta tarixiy manba hisoblanadi Chunonchi, 12 yoshli Bobur Andijonga suv qayerdan, qaysi ariqlardan kelishini, u yerda qanday mevalar pishishini, qanday qushlar ov qilinishini, qushlarning og‘irligi qancha ekanligini biladi.

Asarda bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash zarurki, darhaqiqat «Boburnoma» - muhim terminologik va topinomik manba hisoblanib, unda yer-suv, havo va turli tabiiy xodisalarga tegishli xalq so‘zлari ko‘plab topiladi». «Boburnoma»da XVI asr boshlaridagi (bir mingdan ortiq) o’sha davrdagi holatida, shuningdek ayrim nomlarning turli variantlari berilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bobur Mirzo o‘z hayoti faoliyatida ko‘p yo‘l bosganligi uchun yer-suv taqsimotidagi hamda qurilish ishlaridagi masofa o‘lchovlariga katta ahamiyat bergen. «Boburnoma»da tilga olingan o‘lchov birliklarini hozirgi paytda qo‘llaydigan bo‘lsak, bu quyidagichadir: Yig‘och - 8 km; kurux - 2,5 km; shar’i - 2,4 km; kari - 55 sm; tutam, musht - 8 sm; bir o‘q otim yer - 110-125 metr; bir o‘q choptirim yer - 215 metr; Xarvor (bir eshak ko‘taradigan yuk) - 300 kilodan 565 kilogacha; mo’g‘uliy masofa, quloch - 170 sm. Bir kunlik yo‘l - 40-45 km va hakazo.

Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur har bir territoriyani ma’lum bir tartibda tavsiflaydi; avvalo joyning geografik o‘rni, so‘ngra qaysi iqlimga mansubligi va qishloq xo’jaligi, shifobaxsh joylari, o’simliklari, qazilmalari, hayvonoti va aholisi, uning urf-odatlari haqida ma’lumot beradi. Umuman olganda Zaxiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosini o‘rganish yoshlarda mehnatsevarlik, oliyjanoblik, fan, madaniyat san’atga, ma’rifatga mehr uyg‘otish hissini shakllantiradi. Boburning she’rlari original ijod samarasi sifatida ko‘p avlodlarga manzur bo‘lib kelgan, ota-bobolarimiz serqirra faoliyatidagi ijobiy jihatlari uchun

Boburni e'zozlaganlar. Biz ham uning ma'naviy merosini, xususan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga molik bo'lgan axloqiy - ma'rifiy, pedagogik qarashlarini qadrlaymiz.

Husayn Voiz Koshify (XV asr, 1440 - 1505) Sabzavor shahrida tug'iladi. U falsafa, axloq. tilshunoslik, adabiyotshunoslilik, geologiya, tarix, kimyo va boshqalarga oid 200 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ulardan "Axloqi Karim", "Anvari Suxayliy", "Javohirnomá", "Sonlar haqida risola", "Iskandar oynasi". "Xotamtoy haqida risola" va odob - axloq haqidagi qarashlar ifodalangan "Axloqi Muxsisniy" va "Futuvvatnomai sultoniy" asarlaridir.

Koshify komil inson (etuk ahloqli inson) haqidagi fikrlarni an'anaga ko'ra buyuk donishmandlar-xakimlar, sarkardalar, shoxlar tilida bayon etadi va ularni adolatli, dono, oqil va kamtar inson sifatida ta'riflab, o'zining komil inson haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi. U faqat podsholarnigina emas, balki har bir oddiy insonda ham eng olijanob hislatlar tarkib topishini istaydi va o'zining ijtimoiy-ahloqiy idealini yuzaga chiqarishda asosiy vosita deb ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiyani tushunadi. Koshify odobli insonni ahloqli deb tushunadi. Inson odobli, saxovatli, to'g'ri, xalol, pok bo'lgandagina haqiqiy inson bo'lishi mumkin deydi. Koshify asarlarida inson aqliga, aqliy tarbiyaga katta e'tibor beriladi.

Koshify "Axloqiy Muxsiniy"da inson kamolotida ta'lim - tarbiya va bilimning o'rnini ko'rsatadi. U bolani tarbiyasi haqida ota - ona va muallimlarga muhim ko'rsatmalar beradi. Muallimlar oldiga talablar qo'yadi, ular dono, bilimli, shirinsuxan va adolatli bo'lishlari lozimligi haqidagi fikrlari ham yoritib beriladi.

Koshifyning «Futuvvatnomai Sultoniy» asari ham boshqa ta'limiy-axloqiy asarlar qatorida ana shu javonmardlik ilmining qoida-nizomlarini ifoda etgan. Javonmardlikning ruknlari o'n ikkita bo'lgan: oltiasi zoxiri, oltiasi botiniy.

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Jom shahrida tug'iladi, yoshligida ularning oilasi Hirotga ko'chib o'tadi. Maktab, keiyn Nizomiya madrasasida o'qydi. Keyin Samarqandda uz ilmini oshiradi. Jomiy 1469 yili Hirotda Navoiy

bilan uchrashadi, do'stlashadi. 1472 yili Xajga boradi mashhur olimu mutafakkirlar bilan muloqotda buladi. 2 yillik safardan so'ng Hirotga qaytadi.

Jomiy 3 ta lirik devoni, 7 ta dostondan iborat "Xaft avrang", ta'lim - tarbiyaga oid "Bahoriston" asarlari bilan jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan.

Ta'limiy axloqiy qarashlari "Bahoriston" va "Xaft avrang"ga kirgan "Tuxfat ul - axror", "Silsiltul zaxob" (Oltin tizmalar) asarlarida ifodalangan.

Jomiy inson kamolotining birinchi mezonini bilimlilika deb biladi. Kasb - hunarli bo'lishni ham kamolot mezoni deb biladi. U tarbiyaning roliga ham katta baho beradi. U insonda yaxshilik, saxiylik, shirinso'zlik, kamtarlik, sabr - qanoat, rostlik, mehnatsevarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor beradi.

Adib inson xirs va ta'madan uzoq bo'lishini istaydi. "It va gado" hikoyatida bu aks etadi. (It bergeningga qanoat qiladi, gado esa qancha narsasi bo'lsa ham yana talab qilaveradi) haqidagi qarashlarini bayon etadilar.

Jaloliddin Davoniying axloqiy qarashlari. "Axloqi Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni. U falsafa, pedagogika, riyoziyot, fikx bo'yicha asarlar yozadi. "Risolayi isboti vojib" (Zaruratning isboti haqida), "Risola-tul-Xuruf" (Harflar haqida risola), "Risoladur ilmul nafs" (Ruhshunoslik haqida), "Axloqi Jaloliy" asarlarini yozgan.

"Axloqi Jaloliy" mashhur bo'lib, madrasalarda o'qitilgan. U 1839 yilda V.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Asarda ijtimoiy - siyosiy masalalar, axloq - odob qoidalari uz aksini topgan. U tarbiyada maktab va oila rolini kursatadi. U qo'pol, badjahl muallimlarni tanqid qiladi, u aqlii, yaxshi hislatli bo'lish lozim, deydi. Ota bolani jismoniy tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy tarbiyalaydi. Oil a va maktab tarbiyasini taqqoslaydi, bunda muallimning roli, o'rni yuqorilagini ko'rsatadi.

Devoniy insoniy fazilatlarni 4 ga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat. U bularning har biri ichiga ham yana qator fazilatlar kiritadi. U yana sevgini 5 xilga buladi: 1.Ilohiy sevgi. 2. Ota - onaga muhabbat. 3. Muallimning o'ztalabasiga muhabbati. 4. Podshoning fuqarosiga muhabbati. 5. Ilm - ma'rifatga muhabbat. U sevgini ham kamolot belgisi sifatida qaraydi.

Devoniy insondagi yomon xislatlar haqida gapirish bilan birga ularni bartaraf etishga ham maslahatlar beradi. Devoniyning ta'lim - tarbiyaga oid qarashlari hozirgi kunimiz uchun ham g'oyat qimmatli va foydalidir.

Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441 - 1501) fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik rivojlantirish bilan birga ta'lim - tarbiya takomillashishiga katta e'tibor beradi. U o'zining "Hamsa", "Mahbub ul qulub", «Hayratul abror» kabi ta'limiy axloqiy asarlarida, shuningdek "Munojat", "Vaqfiya", "Majolisun nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida, Jomiydan tarjima "Qirq hadis" kabilarda tarbiyaga oida qarashlarini ifoda etadi.

Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir katla faryod aylamam,
Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram. yoki
Odami ersang demagil odami
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.


Talabalar inson kamolotida ilmning o'rnini, ilm olish insoniy burch ekanligi, bilimda barcha fanlarni o'rganishni Alisher Navoiy targ'ib etaganligi haqida ham to'xtalib o'tadilar.

«Mahbub ul-qulub» asaridagi ta'limiy- axloqiy g'oyalar Shoirning "Mahbubul qulub" asarlari axloqiy - didaktik asarlardan hisoblanadi. 1500-yilning oxirlarida yozib tugatgan "Mahbub ul-qulub" asari uning so'nggi asari bo'lib qoldi. "Mahbub ul-qulub" – qalblarning mahbubi, ko'ngillarning sevgani degani. Bu asar dunyoning achchiq-chuchugini ko'rigan, goho "komronlig'"(baxtiyorlik) goho "notavonlik" (baxtsizlik) topgan buyuk shoir va mutafakkirning 60 yillik hayotiga yakun bo'ldi.

Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyasi yotadi. Asarni yozishdan ko'zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergan: «Har ko'cha-ko'yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman, yaxshi va yomonning fe'l-atvorini bilibman,

yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.

Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek, asarning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe'l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe'llar, ularning o'ziga xos jihatlari; uchinchi qismida esa, yaxshi fe'l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etiladi.



Navoiyning «Mahbubul qulub» asari:

- 1- qism «Haloyiq ahvoli va af'oli va ahvolining kayfiyati»
- 2-qism «Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida»
- 3-qism «Turli foydali masalahatlar va maqollar»

1- qismda feodal jamiyatidagi turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rni va vazifasi haqida so'z yuritiladi. Dehqonlar va ularning mehnati ulug'lanadi.

2- qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odobli insonlar ulug'lanishi, hurmatli bo'lishi ko'rsatiladi.

3- qismda saxiylik, olижаноблик, muruvvat, karam, vafo, xilm(muloyimlik) kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi. Qator maqollar keltiriladi: «Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz», «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim», «Oz-oz o'rganib dono bulur, qatra-qatra yig'ilib daryo bulur»

"Hayratul abror"dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin:

- 1.Falsafiy masalalar
2. Ijtimoiy-siyosiy masalalar
- 3.Axloqiy-ta'limiy masalalar

Talabalar doston nima uchun «Hayratul-abror», ya'ni «Yaxshilarning hayrati» deb nomlangani haqida o'z fikrlarini bildirishlari lozim bo'ladı.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnaxrda fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti qay darajada edi?
2. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi - XVII asrlar Sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?
3. Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar sulolasini davrida qanday madaniy - ma’rifiy maskanlar barpo etildi, tarixiy obidalarni izoxlang?
4. Amir Temur o‘zi amal qilgan sifatlar qanday edi va ularni izohlang?
5. Ulug’bek Akademiyasi («Dorul-ilm») va undagi ta’lim tizimini izohlang?
6. «Ziji Ko‘rag‘oniy» asari va uning moxiyati nimada?
7. «Boburnoma» asarining didaktik mohiyatini yoritib bering.
8. Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat-ul-ahror” asaridagi asosiy go‘ya nima?
9. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlari va ularda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar.
10. Jomiyning "Bahoriston" asarida axloq - odob masalalari.
11. Jaloliddin Davoniylari, qarashlari haqida nimalar bilar edingiz, bular siz uchun yangilikmi?
12. Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarning axloqiy tarbiyada tutgan o‘rnini izohlab bering.

10-§. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq“ asrini o‘rganish va tahlil qilish

Tayanch tushunchalar

Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, asarlari va yaratgan darsliklari, “Turkiy guliston yoxud axloq“ asari, asarning ahamiyati, tarbiya, axloq, axloqiy sifatlar, tarbiya turlari

Amaliy mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqtি-2 soat	Talabalar soni 30 nafar
Mashg‘ulot shakli	Amaliy
Mashg‘ulot rejasи	<ol style="list-style-type: none">1. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, asarlari va yaratgan darsliklarini o‘rganish2. “Turkiy guliston yoxud axloq“ asrining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsating3. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq“ asari yuzasidan Keys topshiriqlarini bajarish4. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid dars va tarbiyaviy tadbir ishlalmalari tuzish.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarning XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida pedagogik fikrlar, jadidchilik ma’rifati va ta’lim-tarbiyaviy qarashlar haqidagi bilimlarini boyitish, ularni Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari mohiyati, “Turkiy guliston yoxud axloq“ asari, uning hozirgi kundagi ahamiyati va ularrdan foydalanish yo‘llari bilan tanishtirish

Pedagogik vazifalar: <ol style="list-style-type: none">1. O‘tilgan ma’ruza mavzusi yuzasidan savollar tayyorlaydi2. Turkistonda jadidchilik ma’rifati va ta’lim- yuzasidan munozara tashkil qiladi.3. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, asarlari va yaratgan darsliklari yuzasidan talabalar fikrini tinglaysi4. “Turkiy guliston yoxud axloq“ asrining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatish va asar yuzasidan Keys topshiriqlarini bajarishni topshiradi	O‘quv faoliyatining natijalari: <ol style="list-style-type: none">1. O‘tilgan mavzusi yuzasidan savollarga javob beradilar2. Kichik guruhlarga bo‘lingan holda Turkistonda jadidchilik ma’rifati va ta’lim- yuzasidan o‘z qarashlarini gapirib berishadi.3. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, asarlari va yaratgan darsliklari yuzasidan talabalar fikrini tinglaysi4. “Turkiy guliston yoxud axloq“ asrining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatish va asar yuzasidan Keys topshiriqlarini bajarishni topshiradi5. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston
--	--

5. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid dars va tarbiyaviy tadbir ishlanmalari tuzish.	yoxud axloq“ asaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid dars va tarbiyaviy tadbir ishlanmalari tuzish.
Ta’lim berish usullari	Blits-so‘rov, “Sinkveyn”, Keys
Ta’lim berish shakllari	Kichik guruhlarda ishlash
Ta’lim berish vositalari	O‘quv qo‘llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar, markerlar
Ta’lim berish sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya, o‘quv xonasi
Monitoring va baholash	og‘zaki nazorat, savol-javob, keys
baholash	Jami: 5 ball Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt kilish. - 2 ball 2. Keysni yechish - 2 ball 3. Munozaralarda ishtirok etish va asoslangan esse takdimoti - 1 ball

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichla ri va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba (kichik guruh)
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. O‘tilgan ma’ruza mavzusi yuzasidan blits-so‘rov o‘tkazadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Amaliy mashg‘ulot mavzusi, rejalarini e’lon qiladi va ekranga chiqaradi (2-ilova)</p> <p>1.3. Talabalarning individual va guruhdagi ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (3-ilova).</p> <p>1.4. Guruhlarni shakllantiradi va guruhda ishlash qoidalarini esalatadi (4-ilova)</p>	<p>1.1. blits-so‘rovda ishtirok etadi .</p> <p>1.2.Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>1.3. Guruhlarga bo‘linadilar.</p> <p>1.4.Tinglaydilar, tanishadilar</p>
2-bosqich asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida pedagogik fikrlar va ularning taraqqiyoti haqidagi talabalar fikrlarini so‘raydi.</p> <p>2.2. "Jadid", "jadidchilik", "ma’rifat", "ma’rifatparvarlik" tushunchalariga sinkveyn tuzishni topshiradi (Misol, 5-6 ilova).</p>	<p>2.1. Javoblar beriladi.</p> <p>2.2. Sinkveyn tuzadilar va taqdim etadilar</p>

	<p>2.3. Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi, asarlariga doir blits-so‘rov o‘tkazadi (7-ilova)</p> <p>2.4.“Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ilgari surilishiga doir Keys topshirig`1ini taklif qiladti (8 ilova).</p>	<p>2.3. Guruhlar blits-so‘rovda ishtirok etishadi</p> <p>2.4. Kichik guruhlarda Keys muhokama qilinadi va natija taqdim etiladi</p>
3.YAkuni y bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1 Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosalar qiladi.</p> <p>3.2. Guruhlar ish natijasini tahlil qiladi, guruhlarning faolligini baholaydi. Mustaqil ishslash uchun vazifa beradi (Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid dars va tarbiyaviy tadbir ishlamalari tuzish.</p>	<p>3.1.Tinglaydilar, savol beradilar.</p> <p>3.2. Eshitadilar. Topshiriqni oladilar.</p>

1-ilova

Blits so‘rov savollari

1-guruhga	2-guruhga
1. Aholini “ruslashtirish” siyosati mohiyati nimadan iborat	1. Toshkentda qachon rus va rus-tuzem maktablari ochildi?
2. “Jadid” so‘zining na’nosi nima?	2. Jadidchilik qachon paydo bo‘ldi?
3. Jadidlarning asosiy g‘oyasi nima edi?	3. Jadid ma’rifatparvarlaridan kimlarni bilasiz?
4. Jadidlarning g‘oyaviy yetakchisi kim edi?	4. Nima uchun jadidlarni ma’rifatparvarlar deb ataymiz?
5. Jadidlar qanday maktablat tashkil etdilar?	5. Birinchi yangi usul maktabini kim tashkil quilgan?
6. Jadid ziyorilari ma’rifatparvarlik faoliyatlarini qaysi yo‘nalishlarda olib bordilar?	6. Jadidlar yaratgan maktablarning eski usul maktablardan farqi nimada edi?
7. Yangi usul maktablarga chor hukumati qarshilik qilishining sababi nimada deb o‘ylaysiz	7. Jadidlar qanday gazeta va jurnallar nashr ettirdilar?

6- Mavzu: ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOHUD AXLOQ“ ASARINI O’RGANISH VA TAHLIL QILISH

Reja:

1. Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, asarlari va yaratgan darsliklarini o`rganish
2. “Turkiy guliston yohud ahloq“ asrining ta`lim-tarbiyaviy ahamiyatini ko`rsating
3. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud ahloq“ asari yuzasidan Keys topshiriqlarini bajarish
4. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud ahloq“ asaridan ta`lim-tarbiya jarayonida foydalanishga oid dars va tarbiyaviy tadbir ishlanmalari tuzish.

Guruhlarni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruh-lar	Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari				
	Blits-so‘rov	Sinkveyn	"Bu kim?"	Keys	Jami
	1	1	1	2	5
1					
2					

Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruh a’zolarining har biri:

- o‘z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishslashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- “Biz bir kemadamiz, birga cho’kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1- qator: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so‘z bilan ifodalanadi.(3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).
- 4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to’rtta so‘zdan iborat bo’lgan fikr yoziladi.(4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).
- 5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosи unga yaqin bo’lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

“Jadidchilik” so‘ziga “Sinkveyn”

- 1- qator. Jadidchilik
- 2-qator. Siyosiy va ma'rifiy oqim
- 3-qator. Maktablar ochish, darsliklar yaratish, matbuotni rivojlantirish bilan shug`ullanadi
- 4-qator. Istiqlol yo`lidagi ma'rifatparvar kurashchilar
- 5-qator. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan, ijtimoiy-siyosiy oqim bo`lib, ularning maqadi xalqni ma'rifatli qilish orqali jamiyatni o`zgartirishdan iborat edi

Avloniying hayoti va ijodi asarlariga doir blits-so‘rov savollari

1. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimovning asarlarida Abdulla Avloniying pedagogik qarashlarining tahlili.
2. Abdulla Avloniy qachon va qayerda tug‘ilgan?
3. Abdulla Avloniy o‘z g‘oyalarini targ‘ib etishda qanday gazetalar chiqardi?
4. Abdulla Avloniy qaysi teatr truppasini tashkil qiladi?
5. Abdulla Avloniy qachon, qayerda yangi usuldagagi maktab ochgan?
6. Abdulla Avloniy qanday darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratgan?
7. Abdulla Avloniying “Birinchi muallim” alifbosи haqida?
8. Abdulla Avloniying axloqiy- ma'rifiy hikoya va she’rlaridan misol keltiring
9. “Muallima soniy” darsligi kimlar uchun?
10. Abdulla Avloniyga berilgan unvonlar?

Keys (muammo)ning bayoni.

Abdulla Avloniy mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatlarning ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u, mehnatni ulug’laydi, mehnat kishining eng go‘zal fazilatidir, deydi. Bu jihatdan uning «Aqli bog‘bon» hikoyasi xarakterlidir.

Hikoyada aytlishicha: «bir bog‘bonning uch o‘g’li bo‘lib, ular dangasa va ishyoqmas bo‘lganlar. Otada ularga meros qoladigan tangatillo yo‘q. Ota umri tugayotganini sezib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O’ylab-o’ylab shunday yo‘l tutadi. Har uchchala o‘g’lini yoniga chorlaydi. «Ko‘zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnatu mashaqqat ila bir ko‘za oltin yiqqanman. Uni mana shu boqqa, toklarning birini tagiga ko‘mganman. U — sizlarniki. Biroq bu ishga ko‘p yil bo‘ldi. Harchand urinsam ham ko‘milgan joyni xotirlay olmadim.

Uni o‘zlarigiz izlab topinglar va o‘zaro bo‘lishib olinglar», deydi. Bir ko‘za tilla daragini eshitib uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadi. Bog‘ning hamma yerini kovlab chiqishadi. Sirli ko‘za chiqmaydi. Yana erinmay kovlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo‘q. Shu taxlit bog‘ ichi bir necha qayta ag‘dar-to‘ntar qilinadi...". Hikoyani davom ettiring. Avloniy ushbu hikoya orqali qanday g‘oyani ilgari suradi?

2. Keys topshirig‘i yoki savoli.

1. Abdulla Avloniyning qanday asarlarini bilasiz? "Turkiy guliston yohud axloq" qanday asar hisoblanadi?
2. Hikoyaning davomini Avloniy asaridan topib to‘ldiring, hikoyada qanday g‘oya ilgari surilganligini yoritib bering.

3. Foydalanish uchun manbalar.

1. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq.- T.: 1999.-392 b.
2. Hoshimov K., C.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010.

4. Talabalar uchun metodik ko‘rsatmalar.

Keysni yechayotgan talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar:

1. Mashg‘ulotda jamoaviy ishlash mobaynida, imkon qadar, sizni kuzatib turgan tengqurlaringizga e’tibor qilmang. Natija uchun ishlang!
2. Faol bo‘ling, o‘zingizni ko‘rsating. Agar hamma bilgan narsalarni ham yashirsangiz, sizning qanday bilimga ega ekanligingizni ob‘ektiv baholash imkonи bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘zingizning nuqtai nazaringizni ifodalashga uyalmang, lekin haddan tashqari serg‘ayrat va tajovuzkor ham bo‘lmang.
3. Tanqidni o‘zingizga og‘ir olmang. O‘z fikringizni aniq tushuntiring. Nuqtai nazaringizni asoslang va uni himoya qiling.
4. Vaqt boshqaruvini yoddan ko‘tarmang. Har bir vazifani bajarish muddati chegaralangan. O‘z resurslaringizni muqobil taqsimlashga harakat qiling.
5. Jamoada ishlashga qodir va tayyor ekanligingizni ko‘rsating. Bu sizning bilimingizni baholashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Guruhlarda keysni yechish bo‘yicha yo‘riqnomा

1. Individual yechilgan keys vaziyatlar bilan tanishib chiqing.
2. Guruh sardorini tanlang.
3. Vatman qog‘ozlarda quyidagi jadvalni chizing va to‘ldiring

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taklif qilingan yechim	Guruh yechimi

5. O‘qituvchi (keysolog)ning yechimi

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatlardan qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari shaklidagi o‘ziga xos tarbiyaviy asardir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o’sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur», — deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniy o‘tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to‘g‘ri kelmaydigan ishlar bilan shug‘ullanayotganini ko‘rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo‘ymaslikka undaydi. Boylikni o‘tkinchi bulutga o‘xshatadi. Abdulla Avloniy mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatlarning

ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u, mehnatni ulug'laydi, mehnat kishining eng go'zal fazilatidir, deydi. Bu narsa uning «Aqlli bog'bon» hikoyasining bosh g'oyasi hisoblanadi.

Hikoyada aytilishicha: «bir bog'bonning uch o'g'li bo'lib, ular dangasa va ishyoqmas bo'lganlar. Otada ularga meros qoladigan tanga tillo yo'q. Ota umri tugayotganini sezib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday yo'l tutadi. Har uchchala o'g'lini yoniga chorlaydi. «Ko'zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnatu mashaqqat ila bir ko'za oltin yiqqanman. Uni mana shu boqqa, toklarning birini tagiga ko'mganman. U — sizlarniki. Biroq bu ishga ko'p yil bo'ldi. Harchand urinsam ham ko'milgan joyni xotirlay olmadim. Uni o'zlarizingiz izlab topinglar va o'zaro bo'lishib olinglar», deydi. Bir ko'za tilla daragini eshitib uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadi. Bog'ning hamma yerini kovlab chiqishadi. Sirli ko'za chiqmaydi. Yana erinmay kovlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo'q. Shu taxlit bog' ichi bir necha qayta ag'dar-to'ntar qilinadi... yerlar qazilaverib, tuprog'i upaga aylanib ketadi hamki, oltinli ko'za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko'riladi. Bog'da o'sha yili chunonam hosil bo'ladiki, undan bir necha ko'zani to'ldirgulik oltin oladilar». Uch dangasa o'g'illar ota gaplarining asl ma'nosini, oltin — mehnatda ekanligini tushunib yetadilar».

Adib bu hikoyasi bilan mehnatni ulug'laydi, o'quvchi qalbida mehnatga muhabbat uyg'otadi. Kishi baxt va saodatga faqat mehnat orqaligina yetishishini uqtiradi.

Xulosa. O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya'ni tarbiyalanuvchi tarbiyasining fani demakdir, deb ta'rif berdi. Tabiiy, bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'llishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib.

Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, asarlari va yaratgan darsliklari, “Turkiy guliston yoxud axloq” asrining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsating. Dastlab Avloniy hayoti va ijodiga qisqacha to‘xtab o‘tiladi. Taniqli o‘zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand- to‘quvchi oilasida dunyoga keldi. O‘ta iqtidorli bo‘lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she’rlar yoza boshladi. Dastlabki she’rlari “Tarjimon” gazetasida bosiladi. U o‘zining dastlabki she’rlarida va “Hijron” degan maqolasida xalqni yangi usul o‘quv muassasalarida o‘qib- o‘rganishga targ‘ib qildi. Abdulla Avloniy 1907 yilda “Shuxrat” va “Osiyo” nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo‘yadi.

Abdulla Avloniy xalq orasida ilgor fikrlarni tarqatishda, ilm va ma’rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g‘oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. U 1907 yili “Shuhrat”, “Osiyo” nomli gazetalar chiqarib unga muharrirlik qiladi.

Abdulla Avloniy o‘zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste’dodli pedagogdir. Avloniy o‘zbek ziyorilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913 yilda “Turon” nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi.



1916 yili ozarbayjonlik mashxur aktyor Sidqiy Ruxillo Toshkentga kelib, “Turon” truppassi bilan birga “Layli va Majnun” spektaklini qo‘yadi. Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Truppa a’zolari bilan Avloniy 1014-1916 yillarda fargona vodiysida gostrollarda bo‘ladi.

Abdulla Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi o‘quv muassasalar ochdi. O‘quv muassasalardagi o‘quv asbob- jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan doska va partalar yasadi. O‘quv muassasasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning asosiy qismini kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun kiyim- kechak, oziq-ovqat, daftar- qalam bilan ta’minalash maqsadida, do’stlarining ko`magida “Jamiyat xayriya” tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi. “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “maktab kutubxonasi” nomli kitob do’konini ochdi. Avloniyning maktabi o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga ko‘ra mashg‘ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktabidan far‘q qiladi. U o‘z o‘quv muassasasida tarbiyalanuvchilarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

Abdulla Avloniy “Usuli jadid” o‘quv maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yohud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinci muallim” (1915), “Maktab gulistoni”(1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik makolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, o‘quv maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagini edi. Shular orasida “Birinchi muallim”i ham o‘ziga xos o‘rniga ega. “Birinchi muallim” 1917 yil to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.


“Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta’limiy - tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chakiruvchi, yomonlardan kaytaruvchi bir ilm-

axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatlardan karaganda bu asar Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Sa'diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Ahmad Donishning “Farzandlarga vasiyat” asarlari shaqlidagi o‘ziga xos tarbiyaviy asardir.


Ozbek pedagogikasi tarixida Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya’ni tarbiyalanuvchi tarbiyasining fani demakdir, deb ta’rif berdi. Tabiiy, bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy tarbiyalanuvchi tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi: 1. “Tarbiyaning zamoni”. 2. “Badantarbiysi”. 3.“Fikr tarbiysi”. 4.“Axloq tarbiysi” va bu haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi.

“Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zururligini, bu ishga hammani: ota-onas, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi keraqligini ta’kidlaydi.

“Al-xosil tarbiya bizlar uchun yo hayot mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidur” deb uqtiradi, Avloniy.



- Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabi («usuli savtiya»)ni tashkil etdi; «Jamiyati xayriya»uyushmasini tashkil etdi;
- Maktabda kimyo, geografiya, handasa, fizika fanlarini kiritilishiga ta’sir ko`rsatdi;
- Bir dars bilan boshqasi o`rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o`tishdagi imtihonni joriy etdi;



Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq “ asaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish. “Turkiy guliston yohud axloq” asaridagi matnlardan, masal va she’rlardan o‘quvchi-yoshlar ta’lim-tarbiyasi jarayonida foydalanishimiz mumkin.

Avloniy ham ilmga, ma'rifatga katta e'tibor beradi. Jaholatni, ilmsizlikni qoralaydi va o'quv muassasasini insonning najot yo'li, xayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi.

Tarbiyaviy tadbirlar tuzishda quyidagilardan foydalaning!

Maktab

Maktab sizni inson qilur,
Maktab xayot exson qilur,
Maktab gami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g`lon!
Maktabdadur ilmu kamol,
Maktabdadur xusnu jamol,
maktabdadur milliy xayol,
G'ayrat qilib o'qing, o'g`lon!¹¹

Yamonliq jazosi

Bir kishining Qosim ismli bir o'g`li bor erdi. Ota va onasining so'zig'a kirmasdan har xil yamon ishlarni qilur erdi. Bolalar birla urishub, yaqolashub, kiyimlarini yirtub kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi:

-“Qosim o'g`lim! Taomni sen yedingmu? ”-desa, -“Men yegonim yo'q, mushuk yegondur”, -der edi. Bora-bora pulini ham o'g`urlab oladurgon bo'ldi. Otasi bilib, “O'g`lim, pulni kim oldi?”-desa,-“Onam olgandur”, -deb onasini o'g`ri qilur edi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga pul quyub, o'zi uxlagan kishi bo'lib yotdi. Qosim kelub, sekin tangani olib og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lganda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning xalqumig'a tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko'rdingizmi, yamonning yamonligi o'z boshig'a yetdi.

Qanoat

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g`li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kun otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirub, mana, sizga olma beraman, -dedi. Vali tezlik birla kulub: “Otajon, menga hammasini bering”,-dedi. Ali sekingina kelub, menga birgina olma bersangiz

¹¹ Abdulla Avloniy. Toshkrnt tongi. T., “G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyonи.”, 211-212-betlar

bo‘ladur,-dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog‘iga olub, peshonasidan o‘pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo‘lma, deb adab berdi.

Qanoat birla qorin to`ydirursiz,
Qanoat bo‘lmasa, ko‘p och bo‘lursiz,
Qanoatsiz kishi bag`rini dog`lar.
Qanoatlik kishi og`zini yog`lar.

Yaxshilik yerda qolmas

Bir ari suv ustinda uchub borur erdi. Birdan suvga yiqilub ketdi. Qanotlari ho‘l bo‘lub ucharga kuchi yetmadi. O‘lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko‘rub, Ariga rahmi kelub, darhol bir cho`bni tashlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho`bni kema qilub, suv balosidan qutuldi. Arodan ko‘p o‘tmadi. Bir bola tuzoq quyub, Kabutarni tutmoqchi bo‘ldi. Ari buni ko‘rgon zamon kelub, bolani qulog‘ini choqdi. Bola qulog‘ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog‘ini ushladi. Kabutar vaqtini g‘animat bilub, uchub ketub o‘limdan qutildi.

Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,
So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar.

To‘g‘rilik

Bir kampirning uyinda bir tup balx tuti bor erdi. Nihoyatda to‘g‘ri o‘sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo‘q edi. Pishgan vaqtda qurutib olub, bordonga solub, boylargalarga tortiq qilub, pul olub, butun avqotining tut sotub o‘tkarur edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo‘lub, ustun oxtarganda kampirning tuti to‘g‘ri keldi. Podshoh tutni uning oltunga sotib oldi. Bechora kampir boy xotun bo‘lib qoldi. Bir kuni tutni ko‘rgali bordi. Ko‘rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o‘rtasida turubbdur. Kampir tutiga qarab dediki:

Ey, tutim, to‘g‘riliq‘ing qildi bizi davlatg‘a yor,
Egri bo‘lsang, san o‘tun bo‘lg‘ay eding, man xor-zor.
To‘g‘rilar jannatning ayvonindadur.
O‘g‘rilar ranju alam konindadur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Abdulla Avloniyning qanday darslik va asarlarini bilasiz?
2. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining asosiy g‘oyasi nima?
3. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini o‘rganib, tahlil qilish konspekt tuzish.
4. Avloniy yaratgan maktablarning eski usul maktablardan farqi nimada edi, jadid maktablarida nimaga e’tibor berildi?
5. Avloniy ma’rifatparvarlik faoliyatini qaysi yo‘nalishlarda olib bordi?
6. Avloniyning pedagogik merosidagi sizga eng ma’qul jihatlar nima va ularning ahamiyatini yoriting

11-§. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji

Tayanch tushunchalar:

AQSh ta’lim tizimi, Fransiya ta’lim tizimi, Yaponiya ta’lim tizimi, Germaniya ta’lim tizimi, «Merit» dasturi, AKSELS Markazi, Adenauer jamg‘armasi, «Gomogenlar», «Yarim gomogen», «Gegeron», «Ixtisos maktablari», «Davlat maktablari», «Xususiy maktablar», «Oraliq maktablar», «Kollejlar», «Dorilfununlar». Sinov (test)lar, SAT (Sxolastik a’tityud test); AKT (Amerikan kollej test) sinovlari.

Amaliy mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Amaliy
Mashg‘ulotning rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar.2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi. (AQSH, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya va boshq.)3. Ta’lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda hozirgi bosqichda jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta’lim tizimi hamda pedagogik fikrlar traraqqiyotiga oid to‘liq tasavvurni shakllantirish. Ularni ta’lim tizimlarini qiyosiy tahlil etishga

o‘rgatish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i>
<p>1 Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi va maktablarda ta’lim-tarbiya amaliyoti, XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalarga oid materiallarni manbalarini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2. AQSH, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya va boshqalarda ta’lim va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyotiga oiq ma’lumotlarni prezentatsiyali namoyish etishlarini tashkil etadi.</p> <p>3. Ta’lim modellar, xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari haqida ma’lumotlar yig‘iladi va fikrlashiladi.</p>	<p>Talaba:</p> <p>1 Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimi va maktablarda ta’lim-tarbiya amaliyoti, XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalarni izohlaydi</p> <p>2. AQSH, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya va boshqalarda ta’lim tizimi, mazmuni va taraqqiyotini prezentatsiyali namoyish etishadi.</p> <p>3. Ta’lim modellar. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari haqida ma’lumotlar berishadi</p>
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blits-so‘rov, konferensiya, bayon qilish, klaster, “SWOT tahlil, Esse
O‘qitish vositalari	O‘quv-uslubiy majmua, videoproyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O‘qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O‘qitish shart-sharoiti	Videoproyektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya
Baholash mezoni	<p>Jami: 5 ball</p> <p>1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt kilish - 1 ball</p> <p>2. Amaliy topshiriqlarni bajarish va me’yoriy hujjatllar bilan ishlash - 2 ball</p> <p>3. Asoslangan esse yozish - 2 ball</p>

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	<p>1.1. Mavzu, reja va mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalari ma’lum qilinadi (1-ilova).</p> <p>1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi (2- ilova) Talabalarni 2 guruhga bo‘ladi</p>	<p>1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>1.2. Tinglaydilar, guruhga bo‘linadilar</p>

2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun Blits so'rov o'tkazadi (2-ilova).</p> <p>Rivojlangan mamlakatlarda ta'lif tizimi va tizimi, maktablarda ta'lif-tarbiya amaliyoti</p> <p>2.2. Talabalarni vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruba bilan chiqishlarini tashkil etadi. (3-6 ilova)</p> <ul style="list-style-type: none"> -Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida pedagogika fani va uning asosiy oqimlari - AQSH, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lif va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti <p>2.3. Ta'lif modellari, Xalqaro loyihalar va ta'lif dasturlari haqida fikrlarni so'raydi (7-ilova).</p> <p>2.4. Talabalarga SWOT tahlil metodi asosida O'zbekiston ta'lif tizimi taraqqiyotini tahlil qilishni topshiradi(8-ilova).</p> <p>Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.</p>	<p>2.1.Rivojlangan mamlakatlarda ta'lif tizimi va tizimi, maktablarda ta'lif-tarbiya amaliyotiga oid tezkor savol-javoblarda qatnashadi</p> <p>2.2.Talabalar vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzalari bilan chiqishadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - AQSH, Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreyada ta'lif va tarbiya tizimi, mazmuni va taraqqiyoti yoritiladi <p>2.3. Ta'lif modellari, Xalqaro loyihalar va ta'lif dasturlari haqida fikrlarini bildirishadi.</p> <p>2.4. SWOT tahlil metodi asosida O'zbekiston ta'lif tizimi taraqqiyotini tahlil qilishadi.</p> <p>Mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilib, muhim ma'lumotlarni yozib olishadi</p>
3-bosqich. YAkuniy (15 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalarga "Menga eng ma'qul ta'lif tizimi" mavzusida 5 minutlik Esse yozishni soraydi(9-ilova).</p> <p>Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlan tiradi. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi. Talaba va guruhlarni baholaydi</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. Esse yozishadi, topshiriqni yozib oladi.</p>

Mavzu:
**HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA
PEDAGOGIKA FANI RIVOJI**


Reja:

1. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar.
2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. (AQSH, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya va boshq.)
3. Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.


Guruqlar uchun Blits so'rov savollari

1-guruh	2-guruh
1. Sizning fikringizcha rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini o'rganishimiz kerakmi. Nima uchun?	1. Siz qaysi davlatlar ta'lim tizimi haqida ma'lumotga egasiz?
2. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim — tarbiya, mакtab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.	2. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim — tarbiya, mакtab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
3. AQShda ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?	3. AQShda necha yoshda mакtabgacha tarbiya muassasalariga qabul qilinadi?
4. AQShda Oliy o'quv yurtlariga kirish qanday bo'ladi?	4. AQShda mashhur universitetlarga kirish uchun qanday sinovlarni topshirish shart bo'ladi?
5. AQShda o'quv yili necha kun?	5. Yaponiyada o'quv yili necha kun?
6. Yaponiya ta'lim tizimiga munosabatingizni bayon eting.	6. Finlandiya ta'lim tizimiga munosabatingizni bayon eting
7. Yaponiya Majburiy ta'lim necha yoshni o'z ichiga oladi?	7. Yaponiya «Ta'lim haqida Qonun» qachon qabul qilindi?
8. Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasini izoxlang?	8. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?
9. AQSh ta'lim tizimidagi sizga ma'qul jihatlar nima?	9. Yaponiya davlatlarning ta'lim tizimidagi sizga ma'qul jihatlar nima?
10. Sizga eng ma'qul ta'lim tizimi qayerda?	10. Sizga eng ma'qul ta'lim tizimi qayerda?

3-ilova



4-ilova



5-ilova

Hozirgi zamon Yapon ta'lim tizimiga kiruvchilar quyidagilar:



Germaniya ta'lim tizimi:

- 1.Maktabgacha tarbiya tizimi 2-6 yosh
- 2.Boshlang'ich maktab 6-10 yosh
- 3.O'rta ta'lim
 - A)Gimnaziya 10-18 yosh
 - B)Real bilim yurtlari 10-16 yosh
 - C)Maxsus maktab.
- 4.Kasb hunar ta'limi.
- 5.Oliy ta'lim.

Germaniyaning ta'lim tizimi 4 bosqichdan iborat bo'lib, uning 2 – bosqichi 2 turga bo'linadi. Ba'zi federal yerlarda hozirgi kungacha maktabgacha ta'lim tizimi 4 bosqichli ta'lim tizimiga kirmaydi. Ta'lim tizimi bolalar bog'chasi va maktabgacha bo'lgan davrdan keyin majburiy boshlang'ich ta'lim bilan boshlanadi.

Birinchi bosqich (Primärbereich) – boshlang'ich maktabdagi (yoki qushimcha ko'mak beruvchi maktabdagi) 4 yillik davrni qamrab oladi. Ba'zifederal yerlarda 6 yillik boshlang'ich maktablar ham mavjud. Maktab turiga bog'liq bo'lмаган yo'naltirish bosqichlari, ya'ni 5- va 6-sinflar

Ikkinci bosqich - I (Sekundarbereich I) – asosiy maktab attestati yoki real maktab attestatini olishgacha yoki gimnaziyaning yuqori sinfigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va asosiy maktab, real maktab va gimnaziya yoki bitta birlashtirilgan maktablarda amalga oshiriladi. Ikkinci bosqich - II (Sekundarbereich II) – ikkinchi bosqich - I dan keyin boshlanadi, u gimnaziyaning yuqori sinflari yoki kasb-hunar maktablarini qamrab oladi. Qisqartirilgan gimnaziyalarda 10-sinf ikkinchi bosqich - II ning bir qismi hisoblanadi.

Uchinchi bosqich (Tertiärbereich) – oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini olish bilan boshlanadi va oliy o'quv yurtlari hamda kasbiy akademiyalarda amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqich (Quartärbereich) – kasb-hunar ta'limidan keyingi xususiy va kasbiy malaka oshirish (misol uchun: kasbiy tayyoragarlik kurslarini o'tkazadigan muassasalar va xalq universitetlari).

SWOT TAHLIL METODI

“SWOT – tahlil” jadvalining nomi inglizcha so‘zlarning bosh harflaridan tuzilgan:

Strengths – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki manbalari mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarning mavjudligi;

Opportunities – tashkillashtirishdan tashqarida rivojlanish uchun mavjud, imkoniyatlar;

Threats – tashqi muhitda tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi xavf-xatarlar.

“O‘zbekiston ta’lim tizimi taraqqiyoti tahlili”

“SWOT (KKIT) - tahlil” jadvali

	<i>Tahlil tarkiblari</i>	<i>Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari</i>
	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)	<ul style="list-style-type: none"> - barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to‘siqlarni yengib o‘tishining yo‘li bo‘lishi mumkin.
	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	<ul style="list-style-type: none"> - tashkillashtirish faoliyati aynan shularni yengib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim; - yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
	Imkoniyatlar (tashqaridan)	<ul style="list-style-type: none"> - moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘sishimcha ko‘rsatkichi yoki tashqi manba bo‘lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo‘ladi; - yangi loyihalarning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo‘lishi mumkin.
	Tahdidlar, to‘siqlar (tashqaridan)	<ul style="list-style-type: none"> - Har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni yengib o‘tish yoki betaraf etish yo‘llari ishlab chiqilishi kerak; - ba’zida mantiqqa mos kelmaydigan “raqiblar” “ittifoqchilarga” aylanishi bo‘lishi mumkin.

ESSE

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha so‘z hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet bo‘yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Besh daqiqali esse – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o‘quv mashg‘ulotida oxirida 5 daqiqa oralig‘ida olib boriladi

“Menga eng ma’qul ta’lim tizimi” mavzusida 5 minutlik Esse yozishadi

Mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar:

XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar. Ta’lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a’zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasbhunarga yo‘naltirishda davlat xizmatini hamda o‘rta ta’limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta’lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni ko‘llash, ta’limda tashabbus- korlik va ijodkorlikka keng yo‘l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limniig, mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta’minalashga ajratilayotgan mablag’ miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, «maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli»gina bo‘lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e’tiqodga aylangan.

Ta’lim to‘g‘risidagi g’amxo‘rlik taniqli siyosatchilarining ham hamisha diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R. Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M. Techcherni, Fransiya Prezidenti F.

Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F. Mitteran maktabni «Jamiyatni hapakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiyada ta’lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta’lim markazlari, masalan, AQShda xalqaro ta’lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko‘pchiligining faoliyati o‘quv dasturini takomillashtirish va qayta ko‘rishga qaratilgan.

Maktab dasturlarini o‘zgartirish ikki asosiy yo‘nalishda: ekstensiv va intensiv yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda o‘quv muddati uzaytiriladi, o‘quv materiallari hajmi ko‘paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o‘rinda ikkinchi yo‘l, ko‘pchilik mutaxassislarning e’tiroficha, maqbul hisoblanadi.

1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSh o‘rtta maktablarini isloh qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to‘rt yil), matematika (to‘rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo‘nalishdagi majburiy ta’lim joriy qilindi.

Har bir yo‘nalish o‘z navbatida bir necha qismga bo‘linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo‘llashdan iborat. Barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985 yildan e’tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarining 90 foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bormoqdalar. Natija: majburiy tayyorgarlik bo‘yicha ta’lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o‘rganiladigan kurslar hisobiga tig‘izlashdi.

80-yillarda majburiy ta’lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda.

Ta’limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Amerikadagi ko‘zga ko‘ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O‘quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G’arbiy yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta’lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o‘quv rejasi va dasturini ta’lim muassasalarining o‘zlari belgilaydilar.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQShdagi singari o‘rganilishi majburiy bo‘lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o‘quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo‘ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o‘quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo» ning pedagogik g‘oyalari Fransiya va Germaniya ta’limiga ham sezilarli ta’sir etayotir.

Germaniya to‘liqsiz o‘rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o‘quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o‘quv dasturi tobora to‘liqsiz o‘rta maktab doirasidan chiqib, o‘rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang‘ich maktablarida ta’lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta’limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo‘linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta’limi yo‘lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o‘quv dasturida bir qator farqlar ko‘zga tashlanadi. Yaponiyada o‘quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta’lim maktablarining yangi musiqa ta’limi o‘quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o‘rganish ham kiritilgan.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o‘quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to‘la amalga oshirildi. Fransiya

maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o‘quv soatlari ajratildi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi. (AQSh, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Germaniya va boshq.)

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. Talabalar Amerika Qo‘shma Shtatlari va Yaponiya kabi yirik davlatlarning ta’lim tizimi bilan tanishadilar. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ta’lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- 3-5 yoshgacha bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 1-8 sinflar uchun boshlang‘ich maktablar (6-13 yoshda o‘qiydilar);
- 9-12 sinflar uchun o‘rta maktablar (14-17 yoshlilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat;
- oliy ta’lim, bu 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda universitetlarda amalga oshiriladi;
- universitet va boshqa oliy o‘quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktarantura.

AQShda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. O‘quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin. O‘quv yili 180 kun, dars 45-50 minut. O‘quvchilar ta’tilda ishlaydilar.

AQSh ta’lim tizimiga eng ko‘p mablag` ajratiladi. Bolalarning 95-99 %i boshlang‘ich o‘rta ta’limga tortilgan.

Bu yerda 3 yoshgacha bolali ayollarga moddiy imtiyozlar berilmaydi. 3-5 yoshda xususiy yoki davlat bog`chalariga boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quv predmetlari o‘quvchilarning umumiy savod xonligini ta’minlab berishdan tashqari ma’lum darajada kasb yo‘nalishiga ham ega qiladi. O‘quv-tarbiya ishlari bilan bog`liq masalalarni har bir shtat o‘zi mustaqil hal qiladi. Boshlang‘ich maktab ham turlicha: 4, 5, 6, 8 yillik bo‘lishi mumkin. Bu davrda ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiyena, matematika, hunarmandchilik, badantarbiya va sport o‘rgatiladi.

AQShda to‘laqonli o‘rta maktab sirasiga 10, 11, 12- sinflar kiradi. 7, 8, 9-sinflarni aksariyat holda quyi o‘rta maktab deb ham yuritiladi.

O‘rta maktablar o‘quvchilariga uch yo‘nalishda: akademik, kasbkor, umumiy yo‘nalishlarda bilim beradi. Ko‘rgazma; texnik vositalardan keng foydalaniadi.

Oliy ta’lim 4 bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Birinchi bosqichni bizdagi o‘rta maxsus o‘quv yurtiga tenglashtirish mumkin. Bu 2 yillik kollej, keyin 11 bosqich 4 yillik kollej va universitetlardir. Buni bitirganlar 1-darajali bakalavr bo‘ladi. 111 bosqich-magistr maktabi, o‘qish 1-2 yil, IV bosqich-doktarantura, o‘qish 3-4 yil.

Yaponiyada 1872 yili ta’lim haqida qonun qabul qilinib, yangi yo‘nalishdagi o‘quv yurtlari tashkil etila boshlaydi. 1908 yilga kelib boshlang‘ich ta’lim 6 yillikka aylantiriladi. O‘quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo‘ldi. 1947 yil «Ta’lim haqida qonun» qabul qilindi. Yaponiya ta’limi tizimi quyidagicha: - bolalar bog`chalari, - boshlang‘ich maktab, - kichik o‘rta maktab, - yuqori o‘rta maktab, - oliy ta’lim tizimiga kiruvchi o‘quv yurtlari.

Bolalar bog`chalariga 3-5 yoshlilar qabul qilinadi. Ularning 59,9 % xususiy, 49,8 %i tuman kengashlari tasarrufida 0,3 %i davlatnikidir.

Majburiy ta’limga 6-15 yoshlilar jalb etiladi. 6 yillik boshlang‘ich va 3 yillik kichik o‘rta maktabda o‘qiydilar. 9 yillik bu ta’lim majburiydir. O‘qish va darsliklar tekin. Xoxlovchilarga xususiy maktablar ham bor.

Yuqori bosqich o‘rta maktabning kunduzgi, kechki, sirtqi bo‘limlari bor. 95% bola kunduzi ta’lim oladi. O‘qish ixtiyoriy. 3 yillik.

Oliy ta’lim tizimiga kollejlar universitetlar kiradi. Bulardan tashqari turli «ixtisos maktablar» ham bor.

Yaponiya maktablarida o‘qish 1 apreldan boshlanib, keyingi yil 31 martida nihoyasiga yetadi. O‘quv yili 240 kun, darslar 7 soat. O‘qituvchilar 4 yillik dorilfunun va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi.

Yaponiyada ota-onalar bolalari tarbiyasiga katta e’tibor berishadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi doimo e’tiborda bo‘ladi.

Yaponiyada 460 ta universitet bo‘lib, ularda 1 mln 43 ming talaba tahsil oladi.

Yaponiya universitetlari



Koreada o’quv formalari



Yaponiyada o’quv formalari



Ta’lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari.

Yevropa davlatlarida buni tashkil qilishning aniq ko‘rinishini tasvirlash bir necha sabablarga ko‘ra qiyin kechadi:

- Ta’lim darajasidagi farqlar.
- Muqarrar va qo‘shimcha ta’lim.
- Mashg‘ulot turi — davomiylik va predmetlar bo‘yicha.

Malaka oshirish asosan rivojlanishning ikki bosqichida kechadi (Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya, Shvetsiya).

Dastavval u norasmiy va ko‘ngilli ravishda, shundan so‘ng ikkinchi bosqichda aniq tizimli, muqarrar ravishda bo‘ladi. Odatda ta’lim barcha darajadagi maktablarda bir vaqtda olib boriladi (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya). Bungacha dastlabki shu sin- gari amaliyat boshlang‘ich maktablarga yuklatilgan edi (Fransiya va Lyuksemburgda), Irlandiyada esa istisno tariqasida norasmiy mashg‘ulot dastavval o‘rta maktabga kiritilgan.

O‘qituvchilar tayyorlanishi agentligi Angliya va Uelsda malaka oshirishning doimiy standartlarini ishlab chiqdi. Standartlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchilarga kasbiy faoliyatning har xil ko‘rinishlarida yordam berish: takomillashuvning samarali rejasini tuzish va tekshirib borish, o‘z-o‘zini takomillashtirishga tayyorgarlik, faoliyat va bu yo‘lda aniq maqsadni qo‘ya olish;
- o‘z-o‘zini takomillashtirishda o‘quvchilarning ma’lum yutuqlarga erishishi uchun maqsadni yo‘naltira bilishni doimiy ta’minalash va ta’lim sifati;
- o‘qituvchi mehnatining asosini professional jihatdan anglashni ta’minalash;
- uzlusiz kasbiy kamolotni rejalashtirish va o‘qituvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish hamda ularning o‘quvchilariga eng yuqori foyda keltiruvchi yuksak malakaviy mashqlarni taqdim qilishga ko‘maklashish.

Bir qancha davlatlarda (Angliya, Niderlandiya, Shotlandiya) o‘qituvchilar tayyorgarligiga ajratilgan mablag’ maktablarga beriladi. Maktablar o‘z ehtiyojlarini o‘zları aniqlaydi yoki ularni mavjud vositalar, ba’zan tashqi agentlar yordamida belgilaydilar. Bu ehtiyojni qondirish tizimini yaxshilash hamda ish sifatini oshirishga olib keladi. Hukumat zimmasida mashg‘ulotlarni milliy tashabbus miqyosida mablag’ bilan ta’minalash vazifasi qoladi.

Angliya va Uelsda o‘qituvchilar malakasini oshirishni mablag’ bilan ta’minalash uch manba asosida shakllanadi:

- Hukumat miqyosida. Bunda fond mahalliy ta’lim organlari vositasida taqsimlanadi.

— Mahalliy ta’lim bo‘limlarining o‘z mablag’lari. Bir qismi maktablarga berilib, bir qismi o‘qituvchilarni joylarda tayyorlashga ajratiladi.

— Malaka oshirish mashg‘ulotlarini mablag’ bilan ta’minlash fondi. O‘qituvchilarni tayyorlash agentligi maktab o‘qituvchilari uchun ochilgan kurslarga homiylik qiladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta’lim- tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini sharxlab bering ?
2. AQShda ta’lim tizimidagi sizga eng ma’qul jihatlari nima?
3. Yaponiya ta’lim tizimidan nimalarni o‘zimizga olishni taklif eta olasiz?
4. Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash masalasini izoxlang ?
5. Janubiy Koreyada ta’lim tizimi qanday tashkil etilgan?
6. Fransiya va Germaniya ta’lim tizimiga munosabatingiz qanday?
7. O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan qanday foydalanish mumkin?
8. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari haqida ma’lumotlar to‘plang.

III BO'LIM. PEDAGOGIK MAHORAT

12-§.Pedagogik qobiliyatni shakllantirish. Kommunikativ malakalar va ta'sir ko'rsatish

Tayanch tushunchalar

Qobiliyat, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining irodasi, sabr - toqat, ibrat namuna bo'la olishi, andishalilik, bag'rikenglik, samimiylik, muhitga kirishish, aloqa o'rnatish (kommunikasiya), "yuzni o'qish san'ati", o'zgalar holatini tushuna olish, o'zini namoyish qila bilish.

Amaliy mashg'ulotning ta'lif texnologiyasi

<i>Mashg'ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat</i>	Talabalar soni-25-30
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy
Mashg'ulot rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> Qobiliyat, pedagogik qobiliyat, uning mohiyati va turlari O'qituvchi faoliyatida kommunikativ qobiliyatning o'rni va uni rivojlantirish O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini kuzatish, tahlil etish. Talabalarning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashga oid testlar yechish.
Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlash-tirish va mustahkamlash. Pedagogik qobiliyat va uning turlarini, kommunikativ qobiliyat va uning mohiyatini o'zlashtirib, shu boradagi ko'nikmalar hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> - Qobiliyat. Pedagogik qobiliyat mohiyati va turlari bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - pedagogik qobiliyatni shakllanishi, takomillashtirishga ta'sir etuvchi muammolarni o'rganish yuzasidan amaliy topshiriqlar beradi; - Turli pedagogik vaziyatlarga o'z munosabatlarini bildirishni so'raydi - talabaning kommunikativ imkoniyatini aniqlanadi - O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini kuzatish va tahlil etishni 	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo'yicha bilimlarga, pedagogik qobiliyat haqidagi tushunchaga ega bo'ladi; pedagogik qobiliyat turlarini mustaqil ravishda o'rganib, ko'rsatib beradi; - pedagogik qobiliyatni shakllanishi, takomillashtirishga ta'sir etuvchi muammolarni hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rnini mustaqil ravishda o'rganib, tahlil qiladi va izohlaydi. - Turli pedagogik vaziyatlarga o'z munosabatlarini bildirishadi, talabaning kommunikativ imkoniyatini aniqlanadi

so‘raydi. - O‘zlarining kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashga oid testlar taklif qiladi	- O‘qituvchining kommunikativ qibiliyatini kuzatib, tahlil eta oladi. - O‘zlarining kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashga oid testlar yechishadi va aniqlab oladilar
Ta’lim metodi	Amaliy mashqlar, “Klaster”, “Blits so‘rov”, FSMU
Ta’limni tashkil etish shakli	Kichik guruhli
Didaktik vositalar	Mashg‘ulot ishlanmasi, slaydlar, maxsus texnik vositalar
Ta’limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Baholash mezoni	Jami 5 ball. 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt kilish - 2 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish (Klaster, FSMU) - 2 ball 3. Pedagogik vaziyatlarga javob berish - 1 ball

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
I-Bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min)	1.1. Mavzuni, maqsad va erishish lozim bo‘lgan o‘quv natijalarini e’lon qiladi(1-ilova). 1.2. Mavzu yuzasidan Blits savol-javob tashkil etadi (2-ilova) 1.3. Topshiriqlarni guruhlarda ishlash tartib-qoidalarini tushuntiradi (3-Ilova)	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. Savollarga javob beradilar. 1.3.Topshiriqlarni guruhlarda ishlash tartib-qoidalarini bilib oladilar
II-Bosqich. Asosiy bosqich. (60 min)	2.1. “Pedagogik qobiliyat” mavzusiga klaster tuzishlarini so‘raydi. (Klaster tuzish qoidasini eslatib o’tadi) (4-5-ilovalar). 2.2. Pedagogik qobiliyat turlari va mohiyatiga oid amaliy topshiriqlar tavsiya etadi (6-8-ilova) 2.3.O‘qituvchida irodalilik, sabr - toqat, ibrat namuna bo‘la olish qobiliyati qanchalik muhimligini FSMU asosida tahlil etishni	2.1. Talabalar fikrlaydilar, kichik guruhlarda Klaster tuzadilar. 2.2. Pedagogik qobiliyat turlari va mohiyatiga oid amaliy topshiriqlarni bajarishadi 2.3.O‘qituvchida irodalilik, sabr - toqat, ibrat namuna bo‘la olish qobiliyati qanchalik muhimligini

	so‘raydi (9-ilova) 2.4. Pedagogik vaziyatlar taqdim etadi (10 -ilova)	FSMU asosida tahlil etishadi 2.4. Pedagogik vaziyatlarga javob berishadi
III-Bosqich. Yakuniy fikrlash bosqichi (10 min).	3.1. Mavzu yuzasidan test topshiriqlari berib, ularning natijasini tahlil qiladi 3.2. Mavzu yuzasidan aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntirish. Mustaqil ish topshiriqlarini e’lon qiladi(7-ilova) 3.3. Faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantirish.	3.1. Testlarga javob berishadi. 3.2. O‘z tasavvurlarini boyitadi va to‘ldiradi. 3.3. Tinglaydi.

1-Ilova

Pedagogik qobiliyatni shakllantirish. Kommunikativ malakalar va ta’sir ko‘rsatish

Reja:

1. Qobiliyat, pedagogik qobiliyat, uning mohiyati va turlari
2. O‘qituvchi faoliyatida kommunikativ qobiliyatning o’rni va uni rivojlantirish
3. O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatini kuzatish, tahlil etish.
4. Talabalarning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashga oid testlar yechish.

2-Ilova

Blits – so‘rov

- 1) Qobiliyat nima?
- 2) Layoqat nima?
- 3) Iste’dod nima?
- 4) Pedagogik qobiliyat nima?
- 5) Tug`ma qobiliyat nima?
- 6) O‘z-o‘zini tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
- 7) Pedagogik qobiliyatni asosiy turlarini sanab bering
- 8) Kommunikativ qobiliyat nima?
- 9) San'at nima?
- 10) Imkoniyat nima?
- 11) Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari qaysilar?
- 12) O‘qituvchida iroda va sabr – toqat nima uchun zarur?

Guruh bilan ishlash qoidalari


Guruh a'zolarining har biri

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Klaster tuzish qoidasi

1. Katta varog' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;
2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;
5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Pedagogik qobiliyat turlari



**Nuqtalar o‘rniga pedagogik qobiliyatlardan mosini qo‘yib chiqing
1-topshiriq**

1. ... – bu oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir.
2. – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik.
3. ... – qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.
4. ... – ixcham, ma’noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq, shuningdek, o‘qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg‘uga rioya qilishi, qobiliyatli o‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi.
5. ... – sinf-guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi.
6. ... - o‘zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro‘orttirish uquvchanligi.
7. - o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati.
8. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obyektlarga bir davrning o‘zida o‘z munosabatini bildirish
9. ... – tadqiqotga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.
10. ... – muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondashish yo‘lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

2-topshiriq. O‘qituvchining pedagogik madaniyatiga mos shaxs sifatlari ustida mashq bajarish:

O‘qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Sifatlarni mos joyga qo‘ying:

- 1) e’tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg‘usining mavjudligi;
- 2) insonparvarlik, jamoaviylik,adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylilik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, olıyjanoblilik, xolislik;
- 3) vijdonlilik, javobgarlik tuyg‘usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o‘z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;
- 4) bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma’naviy ehtiyojlarning ko‘p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo‘lishi, tashqi ko‘rinish va nutq madaniyati.

shaxsga yo‘nalganlik:	kasbiy-axloqiy sifatlar:	pedagogik mehnatga munosabat:	qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlar

3-topshiriq. O‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyatini kuzatish

Talabalar muktabga borib, iloji boricha 2 ta o‘qituvchi darsini kuzatadilar. O‘qituvchilarning kommunikativ qobiliyati - o‘quvchilarga yondashishi, ular bilan munosabat o‘rnatishini ko‘rib, tahlil qiladilar. Qaysi o‘qituvchining o‘quvchilar bilan munosabati to‘g‘ri va samarali bo‘lganini, qaysisida qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yanligini solishtirib, baho beradilar. O‘qituvchi muloqoti qanday tashkil etilishi lozim degan masalaga o‘z qarashlarini bayon etadilar.

9-ilova

O‘qituvchida irodalilik, sabr - toqat, ibrat namuna bo‘la olish qobiliyati qanchalik muhimligini FSMU asosida tahlil etish

FSMU Jadvalni to‘ldiring

Savol	O‘qituvchida irodalilik, sabr - toqat, ibrat namuna bo‘la olish qobiliyati qanchalik muhim?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

10-ilova

Testlar orqali talabalarning kommunikativ imkoniyatlari, muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini aniqlash.

Buning uchun R.Toshimov tuzgan «O‘zingizni bilasizmi?» kitobidagi testlardan, E.G‘oziyev va R.Toshimov tuzgan «Muomala treningi»dan va boshqalardan foydalanish mumkin. Bu mashgulotda «O‘zingizni bilasizmi?» kitobidagi «Shaxsning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlash testi» ni yechib ko‘riladi.

Tavsiya etilayotgan 16 ta savolning hammasiga ochiq ko‘ngillik bilan javob bering va ochkolar yig‘indisini toping. «Ha» ga - 2 ochko, «bilmadim», «hayronman» ga - 1 ochko, «yo‘q» ga- 0 ochko.

SAVOLLAR:

- 1.Ma’sul ishga duchor bo‘lganingizda hayajonlanasizmi?
- 2.Ahvolingiz yomon bo‘lguncha ham shifokor chaqirmaysizmi?
- 3.Kutilmaganda dars o‘tasiz (ma’ruza qilasiz) desa norozilik bildirasizmi?
- 4.Mehmonxona tayin bo‘lmasa ham begona shaharga safarga borishdan bosh tortasizmi?
- 5.Begona kishiga kechinmalaringizni so‘zlaysizmi?

6.Begona odam sizdan yo‘lni yoki vaqtini so‘rasa g’ashingiz keladimi?

7.Har xil avlod o‘rtasida hayot masalasida kelishmovchilik bo‘ladi deb hisoblaysizmi?

8.Bir necha oy ilgari tanishingizga bergan 200 so‘mingizni so‘rashga xijolat tortasizmi?

9.Oshxonada sifatsiz taom keltirishsa indamay qo‘yaverasizmi?

10.Vagonda bir necha soat begona yo‘lovchi bilan ketsangiz gapni birinchi bo‘lib boshlaysizmi?

11.Navbatda turish maqsadingizga erishishingiz uchun zarurat bo‘lsa ham uzundan-uzoq navbat kutishdan voz kechasizmi?

12.Xodimlar o‘rtasida bo‘lgan mojaroni hal qilishdan o‘zingizni olib qochasizmi?

13.Biror adabiyot yoki san`at haqida gap ketsa o‘z fikr, nuqtai-nazaringizni himoya qilasizmi?

14.Sizga yaxshi tanish, ma`lum bo‘lgan masala bo‘yicha noto‘g‘ri fikr eshitsangiz ham jum tura olasizmi?

15.Sizdan ish yoki o‘qish yuzasidan yordam so‘ralsa norozi bo‘lasizmi?

16.O‘z fikringizni og‘zaki bayon etishga imkoniyat bo‘lsa ham yozma ravishda bayon etishni afzal ko‘rasizmi?

Natijalar izohi:

30-32 ochko yig’sa, u muloqatga tez kirishuvchan emas, muloqotga ehtiyoji kam. U bilan muomala qilish murakkab. Odamlar bilan ko‘prok muloqotda bo‘lishga intilish, o‘rganish lozim.

25-29 ochko yig’gan kishi indamas, kamgap, yolg‘izlikni yoqtiradi. Yangi ish, yangi muloqatga qiynaladi. Uning bu xususiyati o‘ziga ham yoqmaydi.

19-24 ochko yig’gan kishi boshqalar bilan osoyishta muloqatda bo‘ladi. Yangi masala, muammolardan cho’chimaydi. Odamlar bilan kelisha oladi. Tortishuvlarda qatnashishni uncha yoqtirmaydi.

14-18 ochko egasi qiziquvchan, tinglashni biladi. O‘z qarashini jahlsiz himoya qila oladi. Shovqinli davralarda bo‘lishni uncha yoqtirmaydi.

9-13 ochko. Atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishadi, qiziquvchan, sergap. Garchi bajarish qo‘lidan kelmasada hech kimning iltimosini rad qilmaydi. Unga murakkab ishlarda sabr-toqat, qat’iylik etishmaydi.

4-8 ochko. Doimo muloqotga intiladi, hamma gapdan xabardor. Har qanday masala bo‘yicha gapiroaveradi. Ishlarni ishonch bilan boshlaydi, lekin oxiriga etkazmaydi.

3 ochko egasida muloqatga intilish kasallikka aylangan. Bunday kishi ezma, jahldor, tez xafa bo‘luvchidir. Ko‘pincha qat’iy va odil bo‘la olmaydi.

Shu kabi testlar asosida talabalarning muloqatga kirishishi aniqlanib, tahlil etiladi.

Talabaning muomalaga kirisha olish darajasini aniqlashga oid qator testlar yechib ko‘riladi, topshiriq sifatida uyda shunga o‘xhash testlarni topib, bajarib ko‘rish topshiriladi. Pedagogik masalalar echiladi. Talabalar ishtirokiga qarab tegishli ballar qo‘yiladi. Muomalaga kirishishi qiyin bo‘lgan talabalar bilan alohida qo‘sishimcha mashg‘ulotlarolib borilib, trening mashg‘ulotlari o‘tkaziladi.

Amaliy mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Qobiliyatlar - odamning shunday psixologik xususiyatlari-dirkni, bilim, malaka, ko‘nikma orttirish shu xususiyatlarga bog’liq bo‘ladi, lekin bu xususiyatlarning o’zi bu bilim, malaka va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi.

Odamning qobiliyatları bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko‘nikmalar egallanadimi yoki yo‘qmi, bularning hammasi, juda ko‘p sharoitlarga bog’liqdir. Bolada namayon bo‘lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo‘lishiga kafil bo‘la olmaydi. Bolaning musiqachi bo‘lishi uning unga maxsus ta’lim berilishi, qat’iylik, salomatligining yaxshi bo‘lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo‘lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so‘nib ketishi ham mumkin.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo‘lishi bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan aynan bir narsa bo‘lmasa-da, ular bir - birlari bilan bog‘liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko‘nikmalarning o‘zida ko‘rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namayon bo‘ladi, ya’ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namayon bo‘ladi.

I.P.Podlsiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

- 1) tashkilotchilik – ta’lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;
- 2) diagnostik – o‘quv materialini tanlay olish, o‘quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag’batlash, o‘quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatatlilik;
- 3) pertseptiv – ta’lim oluvchilarning ichki olamiga ta’sir ko‘rsatish; ularning emotsiyal holatini xolis baholash, psixikasidagi o‘ziga xosliklarni aniqlay olish ko‘nikmasi;
- 4) kommunikativ – ta’lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o‘rnata olish ko‘nikmasi;
- 5) suggestiv (suggestiya - ishontirish) – o‘quvchilarga emotsiyal ta’sir ko‘rsatish;
- 6) tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda obyektiv baholay olish ko‘nikmasi;
- 7) ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;
- 8) gnostik – obyekt, jarayonni va o‘z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalay olish qobiliyati.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlarini **quyidagicha klassifikatsiya qilish** mumkin¹².

1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o‘qituvchining o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘ota olishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi zarurat tug‘ilgan holatlarda o‘quv materialini o‘zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z fanini o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko‘p narsalarni o‘rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilar asosida o‘quvchi ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma’noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo‘lgan nutq, shuningdek, o‘qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg‘uga riosa qilishi, qobiliyatli o‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma’qullayotgan yoki qoralayotgan bo‘lsa ham uning nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o‘quvchi

¹² Xodjayev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: SANO-STANDART, 2017,342-343 b

uchun aniq, sodda, tushunarli bo‘ladi.

5.Tashkilotchilik qobiliyati – sinf-guruh yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi. Tashkilotchilik o‘quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalg qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo‘lsa, ikkinchidan, o‘z shaxsiy ishini to‘g‘ri uyushtirish qobiliyatidir.

6.Obro‘ga ega bo‘lishlik qobiliyati - o‘zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro‘ orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro‘ga ega bo‘lish o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, bu ishonchni o‘quvchilarga ham yetkaza olishiga bog‘liq bo‘ladi.

7.Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o‘rnata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondashish yo‘lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8.Psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘rishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishi haqidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiyot etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog‘liq bo‘ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obyektlarga bir davrning o‘zida o‘z munosabatini bildirish. O‘quvchi, o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari - hajmi, uning kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o‘z fikrini (yoki o‘quvchi fikrini)

diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o‘quvchilarni o‘z diqqat- e’tiborida tutadi, toliqish, e’tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o‘z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi.

10.Konstruktiv qobiliyat - o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o‘quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11.Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qobiliyatning psixologik tavsifini ayting.
2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlarini sanab bering.
3. O‘qituvchining irodasi, sabr - toqat, ibrat namuna bo‘la olish qobiliyatiga baho bering.
4. O‘qituvchining andishalilik, bag’rikenglik, samimiylilik sifatlari mohiyatini yoriting.
5. Kommunikasiya tushunchasi mohiyatini yoriting.
6. O‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmasi: "yuzni o‘qish san’ati, o‘zgalar holatini tushuna olish, o‘zini namoyish qila bilish" ta’lim-tarbiya jarayonida qancha ahamiyatli?
7. O‘quvchilar o‘qituvchidagi qanday sifatlarni ayniqsa qadrlashlarini aniqlashga oid savolnoma tuzing va biror sinfda so‘rov o‘tkazing. Natijani tahlil qiling.
8. Kelajakda siz o‘qitishingiz lozim bo‘lgan o‘quv darsligidan foydalanib, 2-3 mavzu misolida o‘quv predmeti orqali o‘quvchilarni qanday kasblar bilan

tanishtirish mumkinligini aniqlang. Ushbu topshiriqni bajarishda qo‘yidagi sxemadan foydalaning:

Maktab darsligidagi o‘quv mavzusi (bo‘lim)	O‘quvchilarni tanishtirish mumkin bo‘lgan kasblar

13-§. O‘qituvchi faoliyatida muloqat madaniyati va psixologiyasi

Tayanch tushunchalar:

Muloqot, pedagogik muloqot madaniyati; o‘qituvchining etnopsixologik fazilatlari; muloqot ob’ekti; pedagogik ziddiyatlar; muosharat odobi; muomala madaniyati; so‘z va nutq; voiz; fozil kishi; shirinsuxanlik; notiqlik qobiliyati; ma’naviyat mezoni; ma’naviy madaniyat; psixologik taktika.

Amaliy mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi

Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat	Talabalar soni-25-30
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Amaliy
Mashg‘ulot rejisi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Muloqat, pedagogik muloqat va uning funksiyalari, muloqatni boshqarish uslublarini o‘rganish. 2. Pedagogik muloqat mohiyatini kengroq tushunish va talabalarning muloqat malakalarini shakllantirishga oid amaliy ishlar. 3. Muloqatga o‘rgatuvchi o‘yin mashqlaridan foydalinish. 4. Muloqatga kirishuvchanlikni aniqlashga doir testlar yechish
Mashg‘ulotning maqsadi:	
Ta’limiy- Talablarning muomala, pedagogik muloqat, sharqona muloqat, muloqatning vazifasi, tuzilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Tarbiyaviy- O‘zaro va o‘quvchilar bilan insoniy, do’stona muomalagaga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Rivojlantiruvchi- Talabada muomala, muloqat madaniyati tarkib topishiga va muloqatning demokratik uslubi qaror topishiga yordamlashish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -Ta’lim jarayonida muloqatni tashkil etishda milliy madaniy	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: -Ta’lim jarayonida muloqatni

asoslar va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini singdirish - Sharqona muloqotning mohiyati va ahamiyatiga oid topshiriqlar beradi -Pedagogik muloqot va uning funksiyalariga oid topshiriqlar beradi -Muloqatni boshqarish uslublari mohiyatini yorituvchi amaliy topshiriqlar beradi -Muloqatga o'rgatuvchi o'yin mashqlaridan foydalanishadi va muloqatni aniqlashga oid testlar yechishadi	tashkil etishda milliy madaniy asoslar va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar va gapirib beradilar -Sharqona muloqotning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bera oladilar -Pedagogik muloqot va uning funksiyalarini sanab beradilar -Muloqatni boshqarish uslublari ga oid topshiriqlar bajaradilar -Muloqatga o'rgatuvchi o'yin mashqlaridan foydalanishadi va muloqatni aniqlashga oid testlar yechishadi
Ta'lim metodi	"Blits so'rov", "Sinkveyn", FSMU. Charxpalak
Ta'limni tashkil etish shakli	Kichik guruhli
Didaktik vositalar	Mashg'ulot ishlanmasi, slaydlar, maxsus texnik vositalar
Ta'limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona
Baholash mezoni	Jami 5 ball. 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt kilish - 2 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish (Klaster, FSMU) - 2 ball 3. Pedagogik vaziyatlarga javob berish - 1 ball

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I-Bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 min).	1.1. Mashg'ulot mavzusi va rejasini e'lom qiladi (1-ilova) 1.2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi 1.3. Guruhlarda ishlash tartib-qoidalarini tushuntiradi	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. Savol beradilar, tinglaydilar. 1.3. Tartib-qoidalarini bilib oladilar
II-Bosqich.	2.1. Blits savollar tayyorlaydi va	2.1. Mavzu yuzzasidan blits

Asosiy bosqich. (60 min.)	<p>savollarni o‘rtaga tashlaydi, reja asosida savollarga javob so‘raydi (2-ilova)</p> <p>2.2. “Muloqat”, “Pedagogik muloqat”, “Muomala” tushunchalariga Sinkveyn tuzishlarini so‘raydi. (3-4-ilova)</p> <p>2.3. FSMU jadvalini to‘ldirish topshirig‘ini beradi (5-ilova).</p> <p>2.4. Mavzu yuzasidan amaliy topshiriqlar beradi (6-9-ilova)</p> <p>2.5. Pedagogik muloqotga oid muammoli vaziyatlarni tavsiya etadi(10-ilova)</p> <p>2.6. Pedagogik muloqotni boshqarish uslublari ustida mashq. Charxpalak texnologiyasi asosida (11-ilova)</p>	<p>savollarga javob beradilar.</p> <p>2.2. Talabalar fikrlaydilar, “Muloqat”, “Pedagogik muloqat”, “Muomala” tushunchalariga Sinkveyn tuzadilar.</p> <p>2.3. FSMU jadvalini to‘ldirishadi</p> <p>2.4. Mavzu yuzasidan amaliy topshiriqlarni bajaradi</p> <p>2.5. Pedagogik muloqotga oid muammoli vaziyatlarni yechishadi</p> <p>2.6. Pedagogik muloqotni boshqarish uslublarini Charxpalak texnologiyasi asosida tahlil etishadi</p>
III-Bosqich. Yakuniy fikrlash bosqichi (10 min.)	<p>3.1. «Siz bilan muomalada bo‘lish yoqimlimi?»¹³ (12-ilova) deb ataladigan testni taklif etadi</p> <p>3.2. Mavzu yuzasidan aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntirish.</p> <p>3.3. Mustaqil ish topshiriqlarini e’lon qiladi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantirish.</p>	<p>3.1. «Siz bilan muomalada bo‘lish yoqimlimi?» deb ataladigan testni yechishadi.</p> <p>3.2. O‘z tasavvurlarini boyitadi va to‘ldiradi.</p> <p>3.3. Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

1-ilova

Mavzu: O’QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQAT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. Muloqat, pedagogik muloqat va uning funkciyalari, muloqatni boshqarish uslublarini o`rganish.
2. Pedagogik muloqat mohiyatini kengroq tushunish va talabalarning muloqat malakalarini shakllantirishga oid amaliy ishlar.
3. Muloqatga o’rgatuvchi o’yin mashqlaridan foydalanish.
4. Muloqatga kirishuvchanlikni aniqlashga doir testlar yechish

¹³ Muomala treningi. Muallif tuzuvchilar E.G’oziyev, R.Toshimov. ToshDU. -T.,1994, 11-12 betlar.

Blits so'rov

1. Muomala nima?
2. Muloqat nima?
3. Shaqona muloqat mohiyati
4. Pedagogik muomala va pedagogik muloqot nima?
5. Pedagogik muomala va pedagogik muloqotning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni qanday?
6. Pedagogik muloqotning vazifalari nimalar?
7. Muloqotning individual uslubi.
8. Pedagogik muloqotga qanday talablar qo'yiladi.
9. Muloqat atamasining falsafiy va pedagogik tahlili,
10. Turli muloqatni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?
11. Pedagogik muloqatni qanday boshqarish uslublari bor.

SINKVEYN METODI

Sinkveyn-fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn-ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqeа, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish-murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi. (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).
- 4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.(4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).
- 5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

5-ilova

FSMU jadvalini to‘ldiring.

Muloqatda urf-odat va an’analardan foydalanish zarurligining sababi nimada deb o`ylaysiz?

F

Fikringizni bayon eting.

S

Fikringizni bayoniga biror sabab ko‘rsating.

M

Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U

Fikringizni umumlashtiring.

6-ilova

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1-topshiriq: Pedagogik muloqat ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan bir necha mashqlarni bajaring:

- Tartibni buzgan o‘quvchiga qisqa muddatli tanbeh bering;
- O‘quvchiga yoki sinfga iltimos, savol, taklif va talab bilan murojaat qilishni ifodalang.
- Sinfda o‘quvchilarining o‘zaro munosabatlari bo‘yicha u yoki bu muammoli vaziyatni sharxlab bering;
- “Diqqat qiling”, “Daftaringizni oching va yozing», “Doskaga chiq”, “O‘rningdan tur” kabi o‘quvchilarga murojaat qilib aytiladigan jumalalarni turlicha ohanglarda aytинг.

7-ilova

2-topshiriq: Muloqotni kuzatish va o‘zlashtirishga oid amaliy ishlar.

- Nazariy mashg‘ulotlar va kuzatishlar asosida muloqotga oid qarashlarni shakllantirish, rivojlantirish.
- muosharat odobining ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsating. Sof adabiy tilda so‘zlashish.
- Muloqotga o‘rgatuvchi o‘yin mashqlaridan namunalar keltiring

3-topshiriq: Bolalar bilan muloqotni takomillashtirish uchun qo'llaniladigan quyidagi tavsiyalarga amal qiling:

- sinfga tetik, o'ziga ishonch bilan, harakatchan kirish;
- muloqat boshlanishida o'zini tetik, ishchan tutish, o'ziga ishonchni hisetish;
- kommunikativ kayfiyatda bo'lish, muloqatga tayyorgarlikni yaqqol namoyon qiling (ifodalang);
- harakatchanlik, kommunikativ faollik bilan muloqotga hissiy tayyorgarlikni ko'rsating va bu holatni o'quvchilarda ham vujudga keltiring;
- darsda zarur hissiy kayfiyatni yarating;
- dars davomida o'z hissiyoti va bolalar bilan bo'ladigan muloqatni birgalikda boshqarish (turg'un hissiy holat, o'z xissiyotini boshqarish qobiliyati, kayfiyatni buzilmasligi);
- muloqat samaradorligini ta'minlash;
- muloqotni boshqarish: ildamlik, ixchamlik, shaxsiy muloqot uslubini sezish, muloqat va ta'sir ko'rsatish birligiga erishing;
- nutq texnikasi: hissiy to'laqonli, yuqori madaniyatli nutqqa erishish;
- mimikaning aniq pedagogik maqsadga muvofiqligi;
- pantamimika: harakatlarning ifodaliligi, qiyofaning aniqligi, harakatlarning hissiyotga boyligi.

4- topshiriq. Pedagogik muloqat ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan bir necha mashqlarni bajaring:

- Sinfga kirib mimika, harakat, imo-ishora vositasi bilan o'quvchilar diqqatini o'zingiga jalb qiling;
- Pedagogik hayron bo'lish, maqsadga muvofiq shaklda to'lqinlanish, zaxarxanda bo'lish, masxara qilib kulishni ifodalang.

Mavzu yuzasidan muammoli pedagogik vaziyatlarni yeching

A) O‘qituvchilar xonasiga uzun bo‘yli, zamonaviy kiyangan bir kishi

kirib kelib:

- Kimga kerak bo‘lib qolibman, meni chaqiribsizlar, dedi
- Siz Anvarjonning otasimisiz, men uning o‘qituvchisi bo‘laman, -dedi o‘rta yashar ayol. Men sizni Anvarjonning o‘qishi va tartibi masalasida chaqirgan edim. Uning o‘zlashtirishi ancha past, tartibi esa...
- Kechirasiz. Siz-o‘qituvchisiz. Men o‘g’limni sizga o‘qitishga bergenman. Siz o‘qiting. O‘qitish sizning vazifangiz. Men o‘z sohamdagi ishlarni o‘zim hal qilaman. Hech kimni yordamga chiqrimayman.
- To‘g‘ri, lekin sizning o‘g’lingizning tarbiyasi faqat bizning emas, balki sizning ham ishingiz. Maktab doim ham hamma narsani hal qila olmaydi...
- Siz kuniga 4-5 soat ishlaysiz, men esa kuni bilan ishdaman. Yana 48 kun otpuskada dam olasiz. Shuning uchun mening ishim bolani boqish, sizning ishingiz esa uni tarbiyalash, - dedi ota qat’iyat bilan.

Yosh avlodni tarbiyalashda oila va mакtab hamkorligining ahamiyati nimada? Ota-onalarning bola tarbiyasidagi o‘rni qanday? Ish bilan band bo‘lgan bu otaga qanday javob bergan bo‘lardingiz?

B) Muammoli vaziyatni yeching

8- sinf o‘quvchisi Bolta, juda sho’x, tinib-tinchimas bola, kimyodan yozma nazorat ishini shoshma-shosharlik bilan, berilgan masalalar va savollarni to‘g‘ri yozmasdan, savollarga ijobiy javob bermayapmanmi deb o‘ylamasdan, hammadan oldin bajarib qo‘yadi. Yozma nazorat ishingni to‘g‘ri bajar degan talabimga «u bundan yaxshi qilaolinayman» deb javob berdi. So‘ngra, men uni hamma vaqt ham tirishqoqlik va diqqat bilan ishlaydigan Usmonning yoniga o‘tkazdim. Ularning daftarlarini tuzatayaptib Boltaga: «Qara Usmon yozma nazorat ishini qanday to‘g‘ri bajarayapti va chiroyli qilib daftarga yozayapti, nahotki, sen shunday qilaolmaysan?» deb aytdim. Nazorat ishlaringni albatta bajarasizlar, faqat harakat

qilinglar ertaga men sizlarga qaysilaringiz nazorat ishini yaxshiroq bajarganligingizni aytaman.

Bu gaplar unga kuch-g'ayrat, ishonch bag'ishladi, u tinmay harakat qildi. Unda kimyo fanidan masala va o'quv topshiriqlarini bajarishga qiziqish paydo bo'ldi, kimyodan berilgan topshiriqlarni bajarishga intilish, sabr-toqatli munosabat shakllana boshladi, o'quv yili yakunlariga borib, Boltaning nazorat ishlari daftariga qo'yilgan reyting ballari Usmonnikidan qolishmaydigan - darajaga yetib qoldi.

O'qituvchi Boltaning shaxs strukturasidan qanday kamchiliklarni namoyon qildi?

11-ilova

Pedagogik muloqotni boshqarish uslublari ustida mashq. Charxpalak texnologiyasi asosida

№	O'qituvchining munosabati va muomalani boshqarishdagi harakatlari	Avtoritar (yakka hokimlik)	Demokratik (hamkorlik)	Liberal (beparvolik, murosalilik)
1	Boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi			
2	O'zi yakka holda guruh faoliyati yo'nalishini belgilaydi			
3	Tashabbuskor emas			
4	O'zi ko'rsatma va buyruq beradi			
5	Jamoa ishiga aralashmaydi			
6	Tashakkuri ham buyruqdek chiqadi			
7	Hamma masalalarni yuzaki ko'rib chiqadi			
8	Boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi			
9	Aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi			
10	Boshqalar fikriga tez qo'shiladi va qabul qiladi			
11	So'z va gaplari qattiq va qo'pol			
12	O'zining shaxsiy nuqtai nazari yo'q			
13	Jamoa fikrini va tashabbusini ma'qullaydi hamda			

	rivojlantiradi			
14	Gap qaytargan va gap o‘rgatganlarni yoqtirmaydi			
15	Javobgarlikdan o‘z-o‘zidan chetlashadi			
16	Obro‘sı bo‘lmaydi			
17	Intizomni qattiq talab etadi			
18	O‘z tinchini o’laydi			
19	Ish natijasi bilan qiziqmaydi			
20	So‘zsiz bo‘ysinishni talab etadi			
21	O‘z ishiga sovuqqon			
22	Qo‘rmasdan javobgarlikni bo‘yniga oladi			
23	Kasbini sevmaydi			
24	Tushuntirmaydi, lekin talab qiladi			
25	Jamoa ishiga tayanib ish olib boradi			
26	Talabaga e’tiborsiz, beg’am			
27	O‘qituvchi ekanligini yoddan chiqarib qo‘yadi			
28	O‘ziga bino qo‘yishni yaxshi ko‘radi			
29	Talabalarni erkin fikrlashga qo‘ymaydi			
30	Talaba fikri bilan o‘rtoqlashmaydi			

17-20 ta to‘g‘ri javob “**qoniqarli**”

21-24 ta to‘g‘ri javob “**yaxshi**”

25-30 ta to‘g‘ri javob “**a’lo**”

12-ilova

Talabalarning muloqatga kirishish ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida qator testlardan, masalan, K.N. Tomos tomonidan tuzilgan «Shaxslararo munosabatni aniqlash testi» dan foydalaniladi. Talabalardagi o‘zaro shaxsiy munosabatning hissiylik darajasini sub`ektiv baholash uchun «**Siz bilan muomalada bo‘lish yoqimlimi?**»¹⁴ deb ataladigan testdan foydalanish mumkin. Bunda tekshiriluvchilarga 10 ta savolga javob berish taklif qilinadi. Tekshiriluvchi savolga «ha», yoki «yo‘k» deb javob berishi lozim.

Test savollari:

¹⁴ Muomala treningi. Muallif tuzuvchilar. E.G‘oziyev, R.Toshimov. ToshDU. -T., 1994, 11-12 betlar.

1. Siz gaphirishga qaraganda eshitishni yaxshi ko‘rasizmi?
2. Siz hatto o‘zingiz tanimagan notanish kishi bilan ham suhbatlashish uchun mavzu topa olasizmi?
3. Siz doimo suhbatdoshingizni e’tibor bilan tinglaysizmi?
4. Siz maslahatlar berishni yoqtirasizmi?
5. Agar suhbat mavzusi Siz uchun qiziqarsiz bo‘lsa, buni suhbatdoshingizga bildirasizmi?
6. Agar Sizni tinglashmayotgan bo‘lsa, jahlingiz chiqadimi?
7. Sizda har qanday masala bo‘yicha o‘z fikringiz bormi?
8. Agar suhbat mavzusi siz uchun notanish bo‘lsa, unda suhbatni davom ettirar edingizmi?
9. Siz hammaning nigohida bo‘lishni yoqtirasizmi?
10. Siz yetarli bilimga ega bo‘lgan hech bo‘lmasa uchta predmetni egallaganmisiz?

Testning kaliti: «Ha»: 1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10. «Yo‘q» 4, 5.

Kalitdagi mos tushgan javoblarning hammasi qo‘shib hisoblab chiqiladi. Har bir mos tushgan javob 1 ballga tengdir.

1-3 ball: Siz bilan muomala qilish har doim ham yoqimli emas, hatto ba`zida bir oz og‘ir ham.

4-8 ball: Siz har doim yoqimli va diqqat e’tiborli suhbatdoshsiz, ammo kayfiyatizingiz yomon bo‘lsa suhbatdoshingizga e’tibor bermay qo‘yasiz.

9-10 ball: Siz muomala jarayonida juda yoqimli suhbatdoshsiz, faqat juda oshirib yubormang.

Talabalardagi tinglay olish qobiliyatini aniqlash uchun **«Siz suhbatdoshingizni tinglay olasizmi?»¹⁵** degan testdan foydalanish mumkin.

Bunda tekshiriluvchilardan 10 ta savolga javob berish talab qilinib, u quyidagi ko‘rsatilgan javob variantlaridan birini tanlashi lozim bo‘ladi:

- a) har doim;
- b) ko‘p hollarda;

¹⁵ Muomala treningi. Muallif tuzuvchilar E.G’oziev, R.Toshimov. ToshDU. -T.,1994, 15-16 betlar.

- v) ba`zan
- g) juda kam;
- d) hech qachon.

Test savollari:

1. Agar suhbat mavzusi yoki suhbatdoshingiz qiziqarsiz bo`lsa, unda suhbatni tezroq tugatishga harakat qilasizmi?
2. Suhbatdoshingizning suhbat davomidagi hatti-harakatlari sizning jahlingizni chiqaradimi?
3. Suhbat davomida suhbatdoshingiz tomonidan aytilgan noo`rin so`z yoki hatti-harakat sizni qo`pollikka undashi mumkinmi?
4. Notanish kishi Siz bilan suhbatlashishga intilayotgan bo`lsada, lekin siz bunday suhbatdan qochishga harakat qilasizmi?
5. Sizda suhbatdoshingizning gapini birdan bo`lib qo`yish odati bormi?
6. Sizda umuman boshqa narsani o`ylab turgan holda, o`zingizni diqqat bilan suhbatdoshingizni tinglayotgandek ko`rsatish hollari bo`lib turadimi?
7. Sizning suhbatdoshingiz kim ekanligiga bog`liq ravishda so`zlash ohangingiz, tovushingiz, yuz qiyofangiz o`zgarib turadimi?
8. Agar suhbatdoshingiz Siz uchun gapirish noqulay bo`lgan mavzudan gap ochsa, unda suhbat mavzusini o`zgartirarmidingiz?
9. Agar suhbat davomida suhbatdoshingiz so`zlarini noto`g`ri talaffuz qilsa, nom va terminlarni noto`g`ri aytса, uni darrov to`g`rilashga harakat qilarmidingiz?
10. Siz suhbat davomida talaffuz ohanglariga va kinoyalarga befarq bo`la olasizmi?

Test kaliti:

- a) har doim- 2 ball;
- b) ko`p hollarda- 4 ball;
- v) ba`zan- 6 ball;
- g) juda kam- 8 ball;
- d) hech qachon- 10 ball.

Olingen javoblar test kalitiga solinganidan keyin umumiy ball hisoblab topiladi.

Suhbatdoshni tinglay olish qobiliyati olingan ballar asosida belgilanadi.

55 ball- o‘rtacha daraja.

62 ball- tinglay olish qobiliyati o‘rtachadan yuqoriyoq.

Suhbatdosh to‘plagan ball yig‘indisi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning tinglay olish qobiliyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

E.G‘oziyev va R.Toshimovlarning «Muomala treningi» kitobidagi «Muloqatga o‘rgatishga oid o‘yin mashqlarining sistemalaridan» foydalanish ham mumkin.

O‘yinga oid trening- bu muloqatga o‘rgatish uchun bajariladigan o‘yin mashqlarining sistemasidir. Treningning asosiy maqsadi- shaxsni ruhiy ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni his etishni, o‘z guruhida va undan tashqarida o‘zaro munosabat va aloqa o‘rnata olishni shakllantirishdan iboratdir. Bunda o‘yinni tashkil etish, olib borish yo‘llari ko‘rsatilgan.

O‘qituvchi-o‘quvchi muloqatiga doir masalalar, pedagogik vaziyatlar ham berilib, muhokama etiladi.

Xulosada barcha masalalar bo‘yicha talabalar javoblari tinglanib, yechilmagan masalalar yoritib beriladi. Muloqatni aniqlashga oid test javoblari, talabalarning mashg‘ulotda ishtiroki, savollarga bergan javoblari tahlil etilib, har bir talabalaga tegishli maslahatlar beriladi. Talabalarning ishtirokiga mos ballar qo‘yiladi.

Mashg‘ulotda foydalanish uchun materiallar

Milliy qadriyatlarimiz va sharqona tarbiyamizning ta’siri muloqotda ham sezilib turadi. Bizda kishilar bilan munosabat, so‘zlashuv va shuningdek ish, xizmat bilan bog‘liq aloqaga muomala deyiladi. eng go‘zal muomala lutf - karamdir. Alisher Navoiy buni muomala - pardoz deb yozadi. Xullas xalqimizda odamlar bilan munosib tarzda muomala qila bilishlik madaniyat, oljanoblik alomati deb tushunilgan.

Muomala madaniyat, eng avvalo, xalqimizning bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo‘ladi. Barcha madaniy xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbeklarda

ham muomal "Assalomu - alaykum" va "Vaalaykum assalom"dan boshlanadi, keyin hol-ahvol so'rashishga o'tiladi.

Muomala va muloqotda xalqimizning milliy an`analari va urf-odatlari ham ta'sirini ko'rsatadi. Xalqimizda azaldan ko'pchilik ishtirokida o'tadigan turli bolalar o'yinlari, choyxona suhbatlari, to'y - ma'rakalar, mavsumiy bayramlar - lola sayli, "boychechak" aytish, qovun sayli, qizlar majlisi, kelin salomi, yuz ochtisi, sumalak, kurash, mehmon kutish kabi ko'plab marosimlarimiz o'zbek xalqiga xos bo'lgan "o'zbekona", "Sharqona" tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Xalq og'zaki ijodimiz ham bolalarda turli axloqiy sifatlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Muloqat va muloqat madaniyatining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati o'rganiladi. Faqat to'g'ri, demokratik uslubda tashkil etilgan muloqat asosidagina o'quvchilarning mustaqil, erkin fikrlashini, ijodkorligini, do'stona munosabatini tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin.

PEDAGOGIK MULOQOT


Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari vaqtida eng qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatdir. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik paydo bo'ladi, e'tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil fikrlash pasayadi.

O'qituvching o'quvchilar bilan muloqoti bunday kayfiyatga yo'l qo'ymasligi, o'quvchini faoliikkunda undashi, unda quvonch paydo qilishi kerak.

Pedagogik muloqot funksiyalari. Pedagogik muloqot sotsial -psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi: shaxsni bilish; axborot almashinish; faoliyatni tashkil etish; rollar bilan almashish; boshqalar uchun qayg'urish; o'zini tasdiqlash¹⁶.

Pedagogik muloqot sotsial - psixologik jarayon sifatida quyidagi **funksiyalari** bilan xarakterlanadi:

¹⁶Ю.В.Зязуна. Основы педагогического мастерства. -М., 1998 , 145 б.



Muomala - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiquvchi, shaxslararo muloqot rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muomala quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Kommunikativ (bir tomonlama axborot uzatish. Muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo‘lib, kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir - birlari bilan muloqotda kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq; faolyatiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Interaktiv (ikki tomonlama ta’sir) - muloqotga kirishuvchilarni o‘zaro ta’siri, ularning nutq faoliyatida na faqat so‘z orqali fikr almashinushi, balki hatti - harakat va xulq atvori bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv (o‘zaro bir - birini idrok qilishi, anglashi) bunda muloqotga kirishuvchilar o‘zaro bir - birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo‘ladi, ya’ni ulardan biri ikkinchisining ishonchiga loyiqa, aqli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega inson sifatida idrok qilinadi.

Pedagogik muomala deganda o‘qituvchi va talabalar (o‘quvchi) jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimi anglashinib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishi, ta’limiy va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish o‘zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish tushuniladi.

O‘quv - tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshqarish uslublari:

Avtoritar uslub. O‘qituvchi guruhning faoliyat yo‘nalishini shaxsan o‘zi belgilaydi, kim - kim bilan o‘tiradi, kim bilan ishlaydi o‘qituvchi o‘zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o‘qituvchi o‘quvchilar tashabbusiga yo‘l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko‘rsatma, instruksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo‘ladi.

O‘quvchi xatosini ko‘rsa, uni tuzatish o‘rniga ustidan kuladi. U yo‘g‘ida ish sekinlashadi yoki butunlay to‘xtab qoladi.

Demokratik uslub. O‘qituvchi faoliyat maqsadini har bir o‘quvchi ongiga etkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. O‘zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o‘quvchi rag‘batlantiriladi, unda o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi, o‘z - o‘zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o‘qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag‘batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli -iltimos, maslahat, axborot tarzida bo‘ladi.

Liberal uslub. O‘qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko‘rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta’sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o‘zini olib qochadi.

Muloqot vazifalari					
o‘quvchiga yangi ma’lumot berish yoki fikr almashish;	o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning bir - birlarini o‘zaro bilishlari;	bir - birlarini ng hulqlari ni tuzatish va boshqari sh;	shaxsining imkoniyatla rini ochish va undan foydalanish, ularning o‘z oldilarida turgan muammolarini mustaqil hal etishlari;	o‘qituvchi shaxsiy fikrining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqlig i;	muloqot ishtirokchilaring bir - birlaridan qanoat hosil qilganlikla ri

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Muloqot nima?
2. Muomala nima?
3. Ta’limda turli xildagi muloqotni tashkil etishda qadriyatlarning o‘rni qanday?
4. Sharqona tarbiyaning muloqotga ta’siri bormi. U nimalarda ko‘rinadi?
5. Muloqot jarayonida siz eng ko‘p qo‘llaydigan maqol, afsonava hikmatlardan misol keltiring.
6. Pedagogik muloqot nima?
7. Pedagogik muloqot funksiyalarini sanab bering.
8. Pedagogik muloqot tuzilishi.
9. O‘quv - tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshqarishning qanday uslublari bor.
10. Sizga muloqotni boshqarishning qaysi uslubi maqbul v anima uchun?
11. Pedagogik muloqat ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan bir necha mashqlarni bajaring:
 - ✓ Tartibni buzgan o‘quvchiga qisqa muddatli tanbeh bering;
 - ✓ O‘quvchiga yoki sinfga iltimos, savol, taklif va talab bilan murojaat qilishni ifodalang.
 - ✓ Sinfda o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari bo‘yicha u yoki bu muammoli vaziyatni sharxlab bering;
 - ✓ “Diqqat qiling”, “Daftaringizni oching va yozing», “Doskaga chiq”, “O‘rningdan tur” kabi o‘quvchilarga murojaat qilib aytiladigan jumalalarni turlicha ohanglarda ayting.

14-§. Nutq texnikasi va madaniyati

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik texnika, notiqlik san'ati; “San'atlar shohi”; suhbat metodi; ideal notiq; ovoz ritorikasi; nutq odobi; nutq texnikasi; til va nutq; nutqning ravonligi; nutqning ta'sirchanligi; grammatic norma; nutqning mantiqiyligi; nutqning tozaligi va ifodaliligiichki nutq; o'qituvchining nutq madaniyati; monologik nutq; dialogik nutq; kommunikativ nutq; tovush; diapazon va tembr; fonotsional nafas; dixsiya; ritmika; artikulyatsiya; diafragma ishtirokida nafas olish; dialogik nafas olish.

Amaliy mashg'ulotning ta'lif texnologiyasi

Mashg'ulotga ajratilgan vaqt – 2 soat	Talabalar soni-25-30
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagogik texnika mohiyati va tarkibiy qismlari bilan tanishish 2. Nutq, «pedagogik nutq» va uning shakllarini o'rGANISH. 3. Pedagogik nutq funksiyasi, xususiyatlari va texnikasi bilan tanishish. 4. Talabalar nutqining fazilatlari va nutq madaniyatini kuzatish, taxlil etish. 5. Bo'lajak o'qituvchilar nutqini takomillashtirish bo'yicha mashqlar o'tkazish. 6. Nutq va notiqlik haqidagi mutafakkirlarimiz fikrini yig'ish va tahlil etish.
Mashg'ulotning maqsadi:	<ul style="list-style-type: none"> - Ta'limi - pedagogik faoliyatda nutqning o'rni, funksiyalari, shakllari, xususiyatlari, texnikasi haqida bilim berish. - Tarbiyaviy - nutq odobi va notiqlik madaniyatini shakllantirish. - Rivojlantiruvchi - o'z nutqi ustida ishlash va uni takomillashtirish yo'llarini o'rGANISH.
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> - Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishni ta'minlash; - Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlarini o'rganishga oid 	O'quv faoliyatining natijalari. Talaba: <ul style="list-style-type: none"> - Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ladi; - Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari bo'yicha o'zlarining erkin fikrlarini namoyon etadi;

manbalarni tavsiya etadi; - Nutq, pedagogik nutq, nutq texnikasi, nutq madaniyati, nutq funksiyalari haqidagi bilimlarini namoyish etishni taklif etadi. - O‘z nutqini takomillashtirish bo‘yicha mashqlarda nutq ko‘nikmalari takomillashadi; - Nutq va notiqlik haqidagi mutafakkirlarimiz fikrini yig‘ib tahlil etishni topshiradi	- Nutq, pedagogik nutq, nutq texnikasi, nutq madaniyati, nutq funksiyalari haqidagi bilimlarini namoyish etishadi; - O‘z nutqini takomillashtirish bo‘yicha mashqlarda nutq ko‘nikmalari takomillashadi; - Nutq va notiqlik haqidagi mutafakkirlarimiz fikrlarini bilib oladilar
Ta’lim metodi	Blits so‘rov, “Venn diagramma”, “Klaster”, muammoli vaziyat
Ta’limni tashkil etish shakli	Individual va kichik guruhli
Didaktik vositalar	Mashg‘ulot ishlanmasi, taqdimot slaydlari, video materiallar, maxsus texnik vositalar
Ta’limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat shakli:	Og`zaki nazorat, savol-javob va o‘z-o‘zini nazorat qilish.
Baholash mezoni	Jami 5 ball. 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish - 1 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish (Klaster, Venn diagramma) - 2 ball 3. Mustaqil ish bajarish -2 ball

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
I-Bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min).	1.1. Mashg‘ulot mavzusi va rejasini, baholash tartibini e’lon qiladi(1-2-ilova). 1.2. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o‘quv bilish topshiriqlarini yana bir bor eslatadi 1.3. Talabalarni guruhlarga bo‘linishni taklif qiladi, tezkor savollarni o‘rtaga tashlaydi. (3-ilova)	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. Savol beradilar, tinglaydilar. 1.3.Guruhlarga bo‘linadilar, tinglab tushunib oladilar, savollarga javob beradilar
II-Bosqich. Asosiy	2.1. Nutq, «pedagogik nutq» va uning shakllari, pedagogik nutq	2.1. Fikrlarini bildirishadi

bosqich. (65 min).	<p>funksiyasi va xususiyatlari haqidagi fikrlarini so‘raydi (4-5-6-ilovalar).</p> <p>2.2. Mutafakkirlarimizning nutq va notiqlik haqidagi fikrlarini Venn diagrammasi usulida tahlil qilishni so‘raydi (7-8-9-10-ilova).</p> <p>2.3. “Pedagogik nutq” va “Mutafakkirlar nutq madaniyati haqida” tushunchalariga Klaster tuzishni tavsiya etiladi (11-ilovalar).</p>	<p>2.2. Venn diagrammasini to‘ldirishadi</p> <p>2.3. Mavzu yuzasidan Klaster tuzishadi</p> <p>2.4. Topshiriqlarni bajarishadi</p>
III-Bosqich. Yakuniy fikrlash bosqichi (5 min).	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantirish.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi(12 -ilova)</p>	<p>3.1. O‘z tasavvurlarini boyitadi va to‘ldiradi.</p> <p>3.2. Tinglaydi</p> <p>3.3. Mustaqil ish bajarib kelishadi</p>

1-ilova

Mavzu: NUTQ TEHNIKASI VA MADANIYATI

Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. Nutq, «pedagogik nutq» va uning shakllarini o`rganish.
2. Pedagogik nutq funksiyasi, xususiyatlari va texnikasi bilan tanishish.
3. Talabalar nutqining fazilatlari va nutq madaniyatini kuzatish, tahlil etish.
4. Bo'lajak o'qituvchilar nutqini takomillashtirish bo'yicha mashqlar o'tkazish.
5. Nutq va notiqlik haqidagi mutafakkirlarimiz fikrini yig'ish va tahlil etish.

2-ilova

Baholash: Jami 5 ball.

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt qilish - 1 ball
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish (Klaster, Venn diagramma) - 2 ball
3. Mustaqil ish bajarish -2 ball

«Blits so`rov» savollari.

1. Pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnika nima?
3. Pedagogning o`z ruhiy holatini boshqarishi deganda nimani tushunasiz?
4. Nutq nima?
5. Nutq va tilning qanday farqi bor?
6. Nutq madaniyati va nutq odobi nima?
7. Notiqlik san'ati nima?
8. Pedagogik nutq nima va uning qanday shakllari bor?
9. Pedagogning og`zaki nutqi qanday shakllarda bo`ladi?
10. Pedagogik nutq qanday funksiyalarni bajaradi?
11. Aktyorlik mahorati deganda nimani tushunasiz?
12. Mashhur notiqlardan kimgarni bilasiz?

Pedagogning nutqi quyidagilarni ta`minlashi kerak:

- ▶ pedagog va uning tarbiyalanuvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabati va mahsuldor muloqotini;
- ▶ ta`lim jarayonida bilimni to`la qabul qilinishi, anglashi va mustahkamlanishini;
- ▶ o`quvchilar faoliyatiga undagi insinktni shakllantirish maqsadida ular ongi va hissiyotiga ijobiy ta`sir ko`rsatish;
- ▶ o`kuvchilararning o`quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

Pedagogik nutqning funksiyalari

1. Bilimni o`quvchilarga to`liq holda berilishini ta`minlash.
2. O`quvchining samarali o`quv faoliyatini tashkil etish.
3. O`qituvchi va o`quvchi o`rtasida o`zaro mahsuldor munosabatni ta`minlashi lozimligi

Ma'lumki nutq og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq so'zlovchi gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo'lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Ammo nutq ta'sirida uyg'ongan xayolan berilgan axborotni ma'lum vaqtga tinglovchi ongida saqlanishi, uning hulqiga tasir etish mumkin.

Og'zaki nutq xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatsa bo'ladi: Og'zaki nutq tezkorlik bilan (avtomatik tarzda) amalga oshadi. Tushunchalar bilan uning libosi bulgan so'z birgalikda "yashin tezlikda" tilga kela boshlaydi. Bazan tushunchani ifodalovchi so'zni o'sha tezlikda so'zlovchi topa olmay qoladi. Unga yaqin yoki o'ylangan tushunchani ifodalay olmaydigan so'zlarni ishlatib yuboradi. Natijada, aytilgan nutq (gap, gaplar) ko'zlangan maqsadni (fikrni) to'liq ro'yogba chiqarmaydi. Bundan tinglovchi ham so'zlovchi ham zarar ko'radi.

Venn diagrammasi.

Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda ko'riladi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiyligini xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko'rsatishi kerak. Masalan, talabalar Alisher Navoiy, Kaykovus yoki Yusuf xos Xojibning nutq va notiqlik haqidagi qarashlarini taqqoslaysilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu fikrlar o'rtasida zidlik o'tkazish, ayni vaqtda ularning umumiyligini unsurlarini ko'rsatish imkonini beradi.

O'qituvchi o'quvchilar juftligidan Venn diagrammasini tuzib, unda tegishlicha faqat bir mutafakkirga taalluqli bo'lgan doiralarning ikki qisminigina to'ldirishni so'rashi mumkin. So'ngra juft boshqa juftga qo'shiladi va to'rt kishi o'z diagrammalarini taqqoslashlari, so'ngra o'rtasida, ular ko'rganidek, ikkala mutafakkir uchun umumiyligini bo'lgan xususiyatlar ro'yxatini tuzishlari mumkin.

VENN DIAGRAMMASI



8-ilova

Kaykovusning "Qobusnama" asaridan

- ▶ "Xalq oldida gapirganda so`zing go`zal bo`lsin, bu so`zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening suz bilan baland darajaga erishganiningni bilsin, chunki kishining martabasini so`z orqali biladilar ..."

9-ilova

Navoiy hikmatlaridan

- "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz". "Tilini tiyolgan odam - donishmand oqil; so`zga erk bergan odam - beandishaa va pastkash. Til shirin va yoqimli bo`lsa yaxshi, til bilan dil bir bo`lsa yana yaxshi".

Nutq odobi

Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo`lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko`ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan etkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor etkazish mumkin. Buning uchun so`zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, obodli so`zlash ham o`z-o`zidan paydo bo`lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug`at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o`rganish orqali erishiladi. O`quvchi uchun eng yaxshi namuna bu o`qituvchi nutqidir. Buni o`qituvchi har doim o`zida his etib turishi, o`z nutqida hech vaqt odob-ahloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.

Kichik guruhlarga topshiriq

“Pedagogik nutq” va “Mutafakkirlar nutq madaniyati haqida” tushunchalariga Klaster tuzing

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. «Diqqat qiling», «Bugun siz bilan ... haqida gaplashamiz», “daftaringizni oching va yozing”, “Doskaga chiq” kabi o`quvchilarga murojaat qilib aytildigan jumlalardan birini turlicha ohanglarda ayting.

2-topshiriq. Muloqotning o`quvchilar axloqiy tarbiyasiga ta`sirini o`rganing. Buning uchun:

- Har bir o`quvchini jamoadagi statusi (haq-huquqlari)ni aniqlang;
- sind jamoasining shakllanganlik darajasini, unda kichik guruhlar borligini va ularning qiziqishlarini yo`nalganlik darajasini oydinlashtiring;
- sindda tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ishchi va shaxsiy muloqotlarni tashkil qilishga tayanish imkoniyatlarini baholang;
- pedagogik jamoani o`quvchilar bilan o`zaro niunosabatlari (avtoritar, gumanitar, liberal)usulini aniqlang;
- turli ishlarni rejalashtinsh, tayyorlash va o`tkazishda o`quvchilarning muloqot vajlari va xarakteriga tayanish imkoniyatlarini baholang;

- muloqotning liderlar, o'quvchilardan ajralib, o'zi bilan o'zi bo'lib qolganlar va odamovilarining axloqiy xolati (his-tuyg'usi, hatti-harakati, vajlari)ga ta'sirini kuzatib turing.

3-topshiriq. -O'qituvchilar, talabalar, o'quvchilar nutqining fazilatlari va nutq madaniyatini kuzating, taxlil eting.

- Bo'lajak o'qituvchilar nutqini takomillashtirish bo'yicha mashqlar o'tkazing.

- Nutq va notiqlik haqidagi mutafakkirlarimiz fikrini yig'ib, tahlil eting.

4-topshiriq. O'z nutqingizni takomillashtirish uchun quyidagilarga amal qiling:

- o'z -o'zingizning nutqingizni kuzating, nazorat qiling va nutq madaniyatini rivojlantiring;

- nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'zingizga sharoit yarating;

- o'zingizda ifodali nutq malakalarini rivojlantiring;

- o'z nutq inpotensiylarini kuzating: u jonli, xilma - xil, hissiy bezaklimi yoki bir xil monoton-mi?

Nutq tayyorlash jarayonida o'zingizcha quyidagi savollarga javob toping:

- Tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchisiz?
- Ularda qanday kayfiyat yartmoqchisiz?
- Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritm talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko'ring.

Nutqingizni badiiy adabiyotdagi lavhalarga o'z taassurotlaringizni qo'shgan holda qayta to'ldiring.

5-topshiriq. Pedagogik masalaga munosabat bildiring.

1-masala. Maktabni bundan o'n yilcha oldin bitirgan kishi bunday hikoya qiladi: "Shu yil maktabga kelgan rus tili o'qituvchimiz D. darsni yaxshi o'tardi, bizga har kuni nasihat qilardi. Insonning burchi, ahloqiy poklik, yuksak prinsiplar haqida ko'p gapisardi, ko'tarinki rux, balandparvoz so'zlar bilan doim biror tarixiy faktni yoki mashhur kishilarni misol keltirib gapisardi. Ochig'ini aytsam bizlarga uning bu gaplari juda yoqardi. U nasihat qilganda biz qandaydir biror yangilikni

bilib olardik. Lekin bir kuni huddi shunday nasixatgo'ylikdan so'ng qarasak, muallimimiz bizga qanday yashashni o'rgatar ekanu, o'zi ichuvchi ekan. Kechqurunlari uning uyida ichkilikbozlik, qimor o'yini ham bo'lib turar ekan. Sinfdoshlarimizdan biri bir kuni qishloqdagi katta to'ydan so'ng o'qituvchimiz mast bo'lib, uygacha yetolmay yo'lida yiqilib qolganini ko'ribdi. Shundan so'ng bu o'qituvchi biz uchun eng obro'siz kishi bo'lib qoldi. U hamon bizga nasihat qilar, lekin uning gaplariga endi hech kim qulq solmas ishonmasdi.

Esimda, bir kuni maktab ma'muriyati shu o'qituvchini mukofotladi. Men bilan partada birga o'tirgan bola o'ylanibroq qoldi va "Balki, shunday yashash kerakdir?" dedi. Bu juda xavfli mulohaza edi.

2-masala. Adabiyot darsida o'quvchilardan biri she'rni baland ovoz bilan va ifodali o'qiyotgan edi. Orqa partada o'tirgan ikki o'rtog'i uni mazah qilib, ko'tarinki ruhda she'r o'qishidan kulaboshladilar. O'qituvchi bu ikki o'quvchiga tanbeh berganda, ular she'rni yaxshi ko'rmasliklarini aytdilar. O'qituvchi esa ularga sinfdan chiqib ketishni buyurdi.

Pedagog to'g'ri ish qildimi?

Ana shunday ta'sirning kamchiligi nimadan iborat?

Foydalanish uchun materiallar

Dastlab pedagogik texnika tushunchasiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Pedagogik texnika o'qituvchiga o'quv faoliyatida ham o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Pedagogik texnika tushunchasi 2 guruh komponentlarini o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh komponentlari o'z xulqini, yurish turishini boshqarish malakalari bilan bog'liq. O'z organizmini boshqarish (mimika, pontomimika); hissiyoti, kayfiyatini boshqarish; ijtimoiy perseptiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, hayol); nutq texnikasi (nafas, ovozni qo'yilishi, dikciya, nutq tempi).

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari shaxsga va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi: didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ,

qobiliyatlar; talab qo'yish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish, pedagogik muloqotni boshqarish va boshqalar.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri nutq texnikasi bo'lib, talabalar nutq, uning jamiyatda va pedagogik faoliyatda tutgan o'rni masalalariga to'xtalib o'tadilar. Til va nutq munosabatini tahlil etadilar. «Davlat tili» to'g'risidagi Qonunga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga davlat ta'lim standarti asosida ona tili mazmuni, mohiyatiga qo'yilgan talablar ham ko'rib chiqiladi.

O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umummadaniy emas balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo'yiladi. O'qituvchi o'z so'zining mazmuni, sifati va oqibati uchun ijtimoiy javobgardir. Shuning uchun o'qituvchi nutqi pedagog mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'qituvchi nutqi deyilganda o'qituvchining og'zaki nutqi ko'zda tutiladi. Og'zaki nutq - bu o'qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqi.

Pedagogning nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- pedagog va uning tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsuldar muloqotini;
- ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishi, anglashi va mustahkamlanishini;
- o'quvchilar faoliyatiga undagi insinktni shakllantirish maqsadida ular ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

"Pedagogik nutq" tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda faqat uning gaprishi va axborot berish jarayonigina emas balki pedagog va o'quvchi muloqoti uchun emocional psixologik muhit yaratishga, ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi.

So'ngra «o'qituvchi nutqi», «pedagogik nutq», «nutq madaniyati», «til odobi» tushunchalari tahlil etiladi. O'qituvchi nutqining og'zaki va yozma shakllari, og'zaki nutqning monolog va diolog shakllari haqida gapirib, o'qituvchi

nutqiga qo‘yilgan normalar, nutq sifati, fazilati haqida ham to‘xtalib o‘tishlari lozim.

O‘qituvchining og‘zaki nutqi monolog yoki dialog shaklida bo‘ladi. Monologik nutqning keng tarqalgan shakli hikoya, maktab ma‘ruzasi, sharx kabilardir. Dialogik nutq turli suhbat, savol - javob shaklida bo‘ladi.

Pedagogik nutqning to‘g‘rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o‘qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Pedagogik nutqning funksiyalaridan biri - bilimni to‘liq holda berilishini ta’minlashdan iboratdir.

O‘qituvchi nutqining kommunikativ o‘ziga xosligi bilan bilimni o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o‘rtasida to‘g‘ridan - to‘g‘ri aloqa bo‘lib, nutq buni ta’minlashi yoki qiynlashtirishi mumkin.

O‘qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o‘quvchining ongi, sezgisiga ta’sir qilishi, ularni o’ylash faoliyatiga undashi kerak.

O‘qituvchi nutqi ikkinchidan o‘quvchining samarali o‘quv faoliyatini, darsda samarali o‘quv eshituvini ta’minlashi kerak.

O‘quvchi o‘qituvchi nutqini eshita turib qator operaciyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko‘rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o‘zidagi bilim bilan unga munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish bolalarni charchatadi. O‘quv - biluv jarayonning samarali bo‘lishiga darsda o‘qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta’sir qiladi. O‘qituvchi ko‘pincha "o‘chir", "jim o‘tir", "o‘tir", "tugat", "yop" kabi norozilikni bildiruvchi so‘zlarni ishlatadi, o‘quvchi javobini bo‘ladi, "har doimgidek hech narsa bilmaysan", "sen buni qaerdan ham tushunarding" kabi gaplarni aytadiki, bo‘lar o‘qituvchi o‘quvchi munosabatini buzilishiga, aqliy faollik pasayishiga olib keladi.

Pedagogik nutqning uchinchchi funksiyasi - o‘qituvchi o‘rtasidagi maxsuldar o‘zaro munosabatni ta’minlashdan iborat.

O‘qituvchi nutqi o‘quvchi - o‘qituvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu erda hamma narsa ahamiyatli: o‘qituvchi o‘kuvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo‘yadi, qanday ogohlantiradi,

xohishini qanday bayon qiladi; nutqi impotensiysi, yuz ifodasi, qarashi, ham bolaga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda bularning ahamiyati yanada katta bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qurquvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi ijtimoiy xarakterlariga ham bog'liq bo'ladi.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchida qator maxsus qobiliyatlar rivojlanishini talab qiladi: social - perceptiv qobiliyati, ijtimoiy tasavvur qobiliyati, o'zini boshqara olish qobiliyati, muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati, irodaviy ta'sir ko'rsatish, ishontira olish qobiliyati.

Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi kishining umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziyani rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Talabalarni qisqa matnlarni o'qish va ifodali bayon qilib berish ko'nikmalari kuzatiladi. Shu jarayonda ularning og'zaki nutqi, uning sifati namoyon bo'ldi, talabalar bir-birlariga baho beradilar. Nutqdagi kamchiliklar, adabiy til normalaridan chekinishlar aniqlanadi, ularni tuzatish, qayta mashq qilish talab etiladi. Talabalarning og'zaki va yozma nutqlari keyingi darslarda, og'zaki va yozma javoblaridan ham kuzatilib, kamchiliklar aytilib, mashqlar bilan tuzatilib boriladi.

Bo'lajak o'qituvchi nutqini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: o'z-o'zini nazorat va nutq madaniyatini rivojlantirish, nutqiy muloqatning barcha holatlarida to'g'ri-adabiy (til) nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratish.

O'z - o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish. O'z nutq intonatsiyasini kuzatish: u jonli, xilma - xil, hissiy bezaklimi yoki bir xil monoton-mi?

Nutq tayyorlash jarayonida o'zingizcha quyidagi savollarga javob toping: tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchisiz? Ularda qanday kayfiyat yartmoqchisiz? Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonaciya va ritm talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko'ring.

Nutqingizni badiiy adabiyotdagi lavhalarga o‘z taassurotlaringizni qo‘shgan holda qayta to‘ldiring.

Talaba atrof-olamni turli rang, tovush, rasmlarda ko‘ra, eshita olishi va so‘zda ifodalab berishga o‘rganishi lozim.

O‘qituvchi nutqi o‘quvchilarga ta’lim - tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umummadaniy emas balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo‘yiladi. O‘qituvchi o‘z so‘zining mazmuni, sifati va oqibati uchun ijtimoiy javobgardir. Shuning uchun o‘qituvchi nutqi pedagog mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogik vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun o‘qituvchining nutqi ma‘lum talablarga javob berishi, ya`ni kerakli kommunikativ sifatlarga, zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga mos bo‘lishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq va tilning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni qanday?
2. Nutq va tilning qanday farqi bor?
3. Nutq madaniyati va nutq odobi nima?
4. Mutafakkirlarning til va nutq odobiga oid qarashlaridan misollar keltiring.
5. Notiqlik san'ati nima?
6. Pedagogik nutq nima va uning qanday shakllari bor?
7. Pedagogning og`zaki nutqi qanday shakllarda bo‘ladi?
8. Nutq texnikasi haqida gapirib bering.
9. Diksiya nima?
10. Ritmika nima?

15-§. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash. Pedagogik tajribani to‘plash tizimi

Tayanch tushunchalar:

Pedagogik ma`lumot, ilg‘or-pedagogik tajriba, ilmiy-pedagogik izlanish, faoliyat tizimi, pedagogik ta’sir ko‘rsatish, maqsadning qo‘yilishi, metodlarni to‘g‘ri tanlash, pedagogik faoliyatni rejalshtirish, reja shakllari, ish kunini to‘g‘ri tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z ustida ishlash, xorijiy tajriba.

Amaliy mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi

<i>Seminarga ajratilgan vaqt – 2 soat</i>	Talabalar soni-25-30	
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Amaliy	
Mashg‘ulot rejasи:	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. 2. Pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta’sir etuvchi muammolarni tahlil etish. 3. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash 4. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni qo‘llash metodlari. 5. Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish 	
Mashg‘ulotning maqsadi: O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash tizimi haqida ma`lumot berish, ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganishda materiallar to‘plash, shaxsiy pedagogik tajribani to‘plash tizimi haqidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish		
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: -pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta’sir etuvchi muammolarni hamda uning ta’lim jarayonidagi o‘rnini tahlil etishga o‘rgatadi; - Muammoni kichik muammochalarga ajratishni tushuntiradi -kichik muammochalarni va umumiyl muammoni yechish yo‘llarini aniqlashga o‘rgatadi; -muammo bo‘yicha yakuniy xulosalar chiqarishni taklif qiladi -Pedagogik mahoratni	

shakllantirishning asosiy tamoyillarini o‘rgatadi, pedagogik ta’sir ko‘rsatish mahoratini shakllantiradi; -Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni qo‘llash metodlari haqida ma’lumotlar tavsiya etadi; - Shaxsiy pedagogik tajribani to‘plash tizimini yaratishga o‘rgatadir; -Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganishni tavsiya etadi	shakllantirishning asosiy tamoyillari, pedagogik ta’sir ko‘rsatish mahorati haqida bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar; -Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni qo‘llash metodlari haqida ma’lumotlar tavsiya etadi; - Shaxsiy pedagogik tajribani to‘plash tizimini yaratishga o‘rgatadir; -Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganishadi
Ta’lim metodi	Blits so‘rov “Muammo” texnikasi, “Aqliy hujum”, “Nima uchun”, “Klaster”, “FSMU”, „6-6 texnikasi
Ta’limni tashkil etish shakli	Kichik guruhli
Didaktik vositalar	Amaliy mashg‘ulot ishlanmasi, taqdimot slaydlari, maxsus texnik vositalar
Ta’limni tashkil etish sharoiti	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan xona
Nazorat shakli: Og`zaki nazorat, savol-javob va o‘z-o‘zini nazorat qilish.	Jami 5 ball. 1. Adabiyotlar bilan ishlash va konspekt kilish - 2 ball 2. Amaliy topshiriqlarni bajarish (Klaster, FSMU) - 2 ball 3. Pedagogik vaziyatlarga javob berish - 1 ball

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. O‘quv mashg‘uloti ga kirish (10 minut)	1.1. Mavzuning nomlanishi va baholash mezonini bayon etadi (1-2-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar.
	1.2. Tezkor-savollarni taqdim etadi (3-ilova).	Savollarga javob berishadi
2-bosqich. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Mavzu yuzasidan muammo va muammochalarni e’lon qiladi. Muammochalarni kichik guruhlarga yechishga topshiradi (4-ilova)	muammo va muammo-chalarni ninglaydi. kichik guruhlarga bo‘linishadi
	2.2. “B-B-B-jadvali” asosida Pedagogik faoliyat va pedagogik mehnat masalasini muhokama qilish va jadvalni to‘ldirish so‘raladi (5-ilova).	“B-B-B-jadvali”ni to‘ldirishadi.

	2.3. Muammolarni yechish yuzasidan 6x6x6 jadvalini tavsiya etadi (6-ilova).	Jadvallar bilan ishlaydi. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish talab, tamoyillarini o'rganadi
	2.4. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishdagi muhim talablar va tamoyillarni o'rganishga e'tibor qaratadi (7-8-ilova).	
	2.5. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish jihatlari va funksiyalari bilan tanishtiradi (9-10- ilova)	Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish jihatlari bilan tanishadilar
	2.6. O'qituvchilar toifalari bo'yicha mashq bajaradi	Mashq bajaradilar
3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.	Tinglaydi
	3.2. Talabalarning baholarini e'lon qiladi	Tinglaydi
	3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi(13-ilova)	Yozib oladilar

1-ilova

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogik tajribani to'plash tizimi

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati.
2. Pedagogik mahoratni shakllanishi, rivojlantirishga ta'sir etuvchi muammolarni tahlil etish.
3. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash
4. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari.
5. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish

2-ilova

Baholash mezoni: Jami 5 ball.

1. Adabiyotlar bilan ishlash va konsept kilish - 2 ball
2. Amaliy topshiriqlarni bajarish (Klaster, FSMU) - 2 ball
3. Pedagogik vaziyatlarga javob berish - 1 ball

Blits so‘rov

1. Pedagogik faoliyatni rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. O‘z o‘ziga ta’lim - tarbiya berishda ilg‘or o‘qituvchilarning usul va uslublaridan foydalanish ahamiyati nimada?
3. Bugungi kunda pedagogik tajriba o‘qituvchi faoliyati uchun qanday rol o‘ynaydi?
4. Pedagogik tajriba to‘plash uchun nimalrga e’tibor berish lozim?
5. O‘qitish jarayoning samaradorligi kimga bog`liq nima uchun?
6. O‘z-o‘zini tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
7. Ilg‘or pedagogik tajribaga nimalar kiradi?
8. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish uchun qanday materiallar to‘plash lozim?
9. Shaxsiy pedagogik tajribani to‘plash tizimiga nimalar kiradi?
10. Ilg‘or xorijiy tajribalardan misollar keltiring

Muammoni ishlab chiqish kichik muammolar va xulosalar, qaror qabul qilish.
Muammolarni ishlab chiqing.

Myammo: Ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda pedagog mahoratning zarurligi.

Birinchi kichik muammo: *Ta’lim jarayoni va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilish va baholash zarurligi.*

Kichik muammoni yechimini topishda yordam beruvchi muammoli savollar:

- (1) Nima uchun ta’lim jarayonini va pedagog faoliyatini har tomonlama taxlil qilish hamda baholash zarurligi paydo bo‘ldi?
- (2) Tahlil va bahxolashning maqsadi nima?
- (3) Pedagog faoliyatini tahlil qilish tartibini ochib bering.
- (4) Pedagog faoliyatini samaradorligiga qanday omillar ta’sir qiladi?

Yechim:

1. Hozirgi sharoitda xar bir yoshni o‘z kelajagini o‘zi qurishga tayyorlashga o‘rgatish;
 - har pedagog yoshlarga ta’lim beradigan darajada bilimga ega bo‘lishi;
2. Zamonaviy yetuk kadrlarni keljakda bilimli, to‘liq fikr yuritadigan, zamonaviy texnikani har tamonlama egallagan shaxslar qilib shakllantirish.
3. Pedagog faoliyatini taxlil qilish tartibi:
 - bilim saviyasi.
 - kasbiy mahorat
 - nutk madaniyati
 - auditoriyani boshkarish
 - odilona baholash.
 - informatsiyani tezda anglab yetish.
4. Pedagog faoliyatini samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar:
 - kasbiy bilimdonlik;
 - kasbiy mahorat;
 - boshqaruvchilik;

	<ul style="list-style-type: none"> - tashkilotchilik; - novatorlik; - yuksak madaniyat;
Xulosa: Ta'lim jarayoni va pedagog faoliyatini har tomonlama tahlil qilishda yoshlarni pedagoglarni bilim saviyasini, boshqaruvchilik, tashkilotchilik, novatorlik, pedagogik qobiliyatlarini oshirish va shakllantirish yo'nalishlariga katta e'tibor berish lozim bo'ladi.	
Ikkinchik kichik muammo: pedagog xodimlarni pedagogik mahorati shakllantirish va rivojlantirish zarurati	
<p>Kichik muammoni yechimini topishda yordam beruvchi muammoli savollar:</p> <p>(1) Pedagog qanday insoniy xislatlarga ega bo'lishi kerak?</p> <p>(2) Pedagog qanday kasbiy xususiyatlarga ega b'ylishi kerak?</p> <p>(3) Mahoratli pedagog bo'lishi uchun yana nimalarga ega bo'lish kerak?</p> <p>(4) Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun pedagogdan nima talab qilinadi.</p>	<p>Yechim:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagog - oljanob, insonparvar, odobaxloqli, madaniyatli, ma'naviyatli, e'tiqodli va barcha insoniy xislatlarga ega b'ylishi lozim. 2. Pedagog kasbiga sodiqlik, tashkilotchilik, pedagogik qobiliyatli, mahoratli shaxs bo'lishi lozim. 3. Mahoratli pedagog bo'lishi uchun kasbiy bilimga ega bo'lishi, novatorlik, innovatsiyalarini tezda o'zlashtira olishi lozim. 4. Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish uchun pedagogdan ta'limning innovatsion, zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish, ilg'or uslubiyotni yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish talab etiladi.

5-ilova


B-B-B- jadvalini to‘ldirish uchun tavsiyalar

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.
2. B-B-B jadvalini to‘ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqamidan foydalaning va

Tushuncha	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
Pedagogik faoliyat			
pedagogik mehnat			

6-ilova

6x6 texnikasi



7-ilova

O’qituvchi mehnatini ilmiy asosda to’g’ri tashkil etishda eng muhim talablar quyidagilar:

- pedagogik faoliyatni aniq rejalshtirish;
- faoliyatni qizg’in uyuştirish va unda ishtirok etayotgan ob’ekt va sub’ektlarning imkoniyatlarini yagona maqsadga yo’naltirish;
- tarbiyalanuvchilar yutuqlarini muntazam rag’batlantirib borish;
- ta’lim-tarbiyaviy nazoratni bir maromda olib borish kabilardir.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish tamoyillari:

1. Pedagogik mehnatning samaradorligi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra aniq bir yo'nalishni belgilash
2. Mutaxassislikka oid bilimlarni chuqr o'zlashtirib qizg'in pedagogik faoliyat uslubini belgilash.
3. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni mukammal bilish.
4. Ta'lif-tarbiya birligini ta'minlagan holda rejalashtirish.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda quyidagi **jihatlarga** e'tibor qaratish talab etiladi:

- umumnazariy tadqiqotni pedagogik turkum fanlarning qaysi yo'nalishlariga taalluqli ekanligi: tarbiya nazariyasi, didaktika, ijtimoiy pedagogika va boshqalar
- alohida mavzular yo'nalishi bo'yicha;
- tavsiyalar (yoki tavsiyalarni amalga tatbiqi bo'yicha).

Ilg'or pedagogik tajribalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlarni amaliy tajribalardan oldinda bo'lishi, ya'ni fan yangilikni yaratadi, ammo hali ta'lif amaliyotiga to'liq yetib bormagan bo'ladi.
2. Ilmiy bilimlarni amaldagi tajribalardan o'zib ketishi, nazariy tadqiqotlar va nazariy muammolarni hal etishga qaratiladi.
3. Keltirilgan tavsiyalar asosida pedagogik konsepsiylar va ilg'or tajribalarni turli sharoitda sinovdan o'tkazish.
4. "Ishonchli, ilmiy asoslangan" deb topilgan tajribalarni ommaviy ravishda ta'lif amalivotiga tathbia etish



Quyidagi ta’riflar o‘qituvchining qaysi toifasiga tegishli ekanini toping

?	O‘z kasbini sevadi, qobiliyatli, mahorati yetarli, bilimdon, pedagogika va psixologiya fanlarining rivojiga hissa qo‘shuvchi, o‘quv dasturi, darsliklardan, ko‘rgazmali qurollardan unumli foydalanish bilan birga ularni takomillashtirish uchun yangi fikrlar bildirib boradi. O‘z tajribasi asosida maqolalar, metodik qo‘llanmalar, darsliklar yozadi, ijod qiladi, o‘ylanadi
?	Kasbini sevgan, irodali, qiyinchiliklarga brdosh beradi, o‘quvchilar bilan ishlash qobiliyatini mukammal egallagan. U hech qachon nolimaydi, hech kimni yomon demaydi, tinch osoyishtalik bilan o‘tgan mazmunli kunllariga shukronalar aytadi. Bunday o‘qituvchi o‘quvchilarga namuna bo‘ladi
?	O‘quv dasturi, darslik va metodik qo‘llanmalarni talab darajasida amalga oshiradi. Ko‘rgazmali qurollar yasaydi, texnik vositalaridan, ilg‘or tajribalardan foydalanib, ularni hayotga tatbiq etishda tashabbus ko‘rsatadi. Maktabdagi ta’lim- tarbiya ishlarida o‘z tashabbusi bilan mакtab rahbarligiga yordam beradi. U doimo izlanuvchan, yangiliklar yaratuvchi hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil tayyorgarligi uchun topshiriqlar.

1-topshiriq. Turli yoshdagi o‘quvchilar (kichik yoshdagilar, o’smirlar, katta yoshdagilar) bilan odob-axloq masalalarini muhokama qilish uchun badiiy asar, kinofilmarni tanlang.

5, 6, 9 sinflar o‘quvchilari uchun etik suhbatlar sistemasini ishlab chiqing. O‘quvchilarning yoshini, axloqiy bilim darajasini, qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalarni hisobga olgan holda tanlangan mavzularni asoslab bering.

2- topshiriq. Kommunikativ ko‘nikmalingizni baholashni o‘zingiz o‘tkazing. Sinf o‘quvchilar guruhi va har bir o‘quvchi bilan yakka tartibda muloqot o‘tkazishga tayyorgarligingizni o‘zingiz baholashga urinib ko‘ring. O‘quvchilarning axloqiy pokligini ta’inlash bo‘yicha ular bilan yakka tartibda ishslashda pedagog-novatorlarning tavsiya qilgan kitoblaridan misollilar keltiring.

SHunga o'xhash vaziyatlarda siz qanday ish tutgan bo'lar edingiz? Siz o'quvchi kayfiyatini tushunishga, uning o'z kuchlariga qat'iy ishonch hosil qildirishga, birgalikda izlanishga kirishishga qodirmisiz?

3-topshiriq. Mutaxassislik faningiz, pedagogika va psixologiyaga oid yangi ilmiy materiallarni, maqola va adabiyotlarni yig'ing va tahlil qiling.

4- toppshiriq. O'rgangan ilg'or tajribalaringizdan namunalar keltiring.

5- topshiriq. O'z ustida ishslash va o'z-o'zini ishontirishning pedagogik mahoratni shakllanishidagi ahamiyati to'g'risida qarashlaringizni bayon eting.

6- topshiriq. Muammoli vaziyatni yeching

O'qituvchilar o'rtasida bahs-munozara boshlandi. Ulardan biri, yosh, tajribasiz o'qituvchi tajribali o'qituvchiga taqlid qilishi, uning ish tizimidan nusxa olishi kerak desa, boshqalari esa, taqlid qilish shaxsiy takomillashuvga xalaqit beradi deb uqtirdilar, chunki, mahorat faqatgina shaxsiy tajriba orqali keladi. Kimning nuqtai nazariga qo'shilasiz va nima uchun? O'zingizni shaxsiy fikringizni taqdim eting.

Mashg'ulotda foydalanish uchun materiallar

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart – sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq. O'qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi avvalo o'z mehnatini rejalshtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o'z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi axborot kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiyoti davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o'qituvchi tomonidan qay darajada o'zlashtirishiga ham bog'liq.

Shu bilan birga o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish uchun fanlar integratsiyasini, pedagogika va psixologiya fanlarining eng so'nggi yutuqlarini muntazam o'zlashtirib borish shart. Ushbu bilimlar axborot kommunikatsion texnologiyalari, matbuot, ilmiy журнallar, ilmiy adabiyotlar asosida o'zlashtiriladi.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda vaqtan unumli foydalanish, o‘zining keng imkoniyatlarini hamisha hisobga olish, o‘quv va tarbiya jarayonida har bir daqiqadan unumli foydalanish, vaqt ni bekorga o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik muvaffaqiyat garovidir. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda avvalo:

- o‘z ijodiy imkoniyatlariga ishonishi;
- ta’lim muassasasida olib boriladigan ta’lim – tarbiya jarayonini to‘liq tasavvur eta olishi;
- har bir tarbiyalanuvchining ruhiy holatini puxta bilishi;
- o‘z mehnati mexanizmini, qonunlarini, cheklangan imkoniyatlarini yaxshi anglashi;
- ta’lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilishi shart.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish bir maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy–foydali mehnat bo‘lib, u yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan tashqari, aql va diqqatni, jismoniy kuchni, shijoat va g‘ayratni talab etadi.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etishning quyidagi vositalarga e’tibor berish lozim:

1. Mehnat faoliyatini to‘g‘ri rejlashtirish.
2. Belgilangan vazifalarni tashkil etish va amalga oshirish.
3. O‘z mehnatini muntazam boshqarish va nazorat qilish.
4. O‘z – o‘zini nazorat qilishi (refleksiya).

O‘qituvchining mehnati ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko‘rsatishiga, o‘z fikr–muloqazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tamonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o‘z kasbini puxta o‘zlashtiradigan yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

O‘qituvchi mehnati ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishida o‘quvchilar bilan olib borilayotgan faoliyatning quyidagi yo‘nalishlariga e’tibor berish lozim:

- o‘qituvchi va o‘quvchining ikki tomonlama bir-biriga ta’siri natijalari;
- o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlay olish qobiliyati;

- sinf jamoasi faollari bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning ijobiy natijalari.

O‘qituvchi mehnatining ta’lim-tarbiyaviy mohiyati ijobiy natijalar berishi uchun, o‘qituvchi sinf jamoasi bilan o‘tkazilayotgan har qanday tadbirni belgilangan vaqtda amalga oshirishi, mahnat va dam olish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olishi, o‘z mehnati faoliyatida sog‘ligiga, ruhiy holatiga e’tibor berishi lozim.

Talabalar o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganib borishi pedagogik mahorat shakllanishining asosiy shartlaridan biri ekanligini anglab etishlari lozim. Bunda o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi bilan o‘z-o‘zini anglash va tarbiyalash o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligiga ham e`tibor qaratilishi kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalash uchun talaba dastlab o‘qituvchi shaxsining sifatlarini bilishi, shu sifatlarni o‘zida shakllantirishi kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalashda ruhiy to‘sislarni engib o‘tish yo‘llarini ham bilish kerak. O‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalashda o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini ishontirishdan ham foydalanadi. Ayniqsa, pedagogik mahoratni takomillashtirishda o‘z-o‘zini ishontirishning o‘rni kattadir. O‘qituvchi ruhiyatini, uning irodasi, his-tuyg‘usini tarbiyalash haqida ham to‘xtalib o‘tiladi.

Talabalar yuqorida ko‘rsatilgan va qo‘srimcha adabiyotlarni o‘rganib, turli mualliflarning shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash va ruhiyatini boshqarish haqidagi ta’limotlarini o‘rganib, ularni tahlil etadilar. Shu asosda talabalar o‘z ustida ishslashning eng ma‘qbul yo‘llarini tanlab oladilar.

Talabalarga o‘quv yili boshidayoq pedagogika, psixologiya va uz mutaxassisliklariga oid maqolalarni, xalq ta’limiga oid hujjatlar, qaror va farmonlarni yig‘ib, konsekt qilib borish, mutaxassisliklariga oid barcha yangi materiallarni o‘rganish vazifasi topshirilgan edi. Bu mashg‘ulotda esa talabalarning o‘quv yili davomida yig‘gan, tahlil etgan materiallari ko‘rib chiqiladi. Tahlillarning ilmiyligi, ijodiy yondashganligi baholanadi.

Shu bilan birga talabalar maktablarda kuzatgan va o‘rgangan ilg‘or tajribalari muhokama etiladi. Talabalar o‘quv yili davomida amaliy mashg‘ulotlar

davrida maktablardagi ilg‘or, mohir tajribali o‘qituvchilarning darslari va tarbiyaviy tadbirlarini kuzatib kelishgan bo‘lib, shu kuzatishlar tahlil etiladi.

Bu yerda talabalarining darslarni tahlil qilish mahorati ham namoyon bo‘ladi. Adabiyotlar, maqolalar, hujjatlar ustida ishlay olish ko‘nikmalari kuzatiladi va baholanadi. Bo‘lg‘usi o’kituvchilarga pedagogik mahoratni egallahshlariga yordam bo‘ladigan qator ko‘rsatmalarini ham berib o‘tishimiz mumkin. Masalan: Suhbatdoshingizni o‘zingizga moyil qilish uchun qo‘yidagilarni hisobga oling:

- ochiq ko‘ngilligingizni namoyon qiling, bunda «doimo yuzingizda tabassum bo‘lsin»;

- suhbatdoshingizni tez-tez nomini tilga olgan holda gapiring;

- suhbatdoshingizga nisbatan doimo hurmat va e’tiborda bo‘ling;

- suhbatdoshingizni diqqat bilan eshitishni o‘rganing;

- suhbatdoshingizni qiziqtirgan narsalarni hisobga olgan holda suhbatni olib borishga harakat qiling;

- doimo suhbatdoshingiz o‘zining ahamiyatga molik inson ekanligini his qilishiga yordam bering;

- suhbatdoshingizga komplement qilib turishni unutmang;

- suhbat davomida qat’iy qarshi poziciyaga o‘tib olmang;

- kishilar bilan munosabatda iloji boricha hamkorlik poziciyasida turishga harakat qiling.

Qanday qildib suhbatdoshni o‘z fikringizga qo‘shilishga majbur qilish mumkin:

- bahslashib qolgan paytda bir tomonning g‘olib chiqishi qiyin, shuning uchun babsda g‘olib chiqishning asosiy yo‘li uni chetlab o‘tishdir;

- suhbatdoshingizning aytgan fikrini doimo hurmat qiling, hech qachon uni yuziga «nohaqsan» deya ko‘rmang;

- agar biror kishining siz haqingizda salbiy fikr bildirmoqchi bo‘layotganini sezsangiz, undan oldinroq harakat qiling, ya’ni o‘z xatolaringizni qat’iy tarzda tan oling;

- suhbatni doimo do'stona ohangda boshlashga harakat qiling, ya'ni «shirin so'z jon ozig'i, yomon so'z jon qozig'i »degan maqolni unutmang;
- suhbat boshidanoq suhbatdoshingizning o'z fikringizga qo'shilganini tasdiqllovchi «ha» degan javobni olishga harakat qiling;
- suhbat davomida, iloji boricha, suhbatdoshingizga gapishtirish imkonini bergen holda, o'zingiz uni tinglashga harakat qiling;
- suhbatdoshingiz fikriga qat'iy qarshi bo'lsangiz ham hech qachon uning gapini bo'lman, balki uni tushunishga harakat qiling;
- vujudga kelgan muammoni suhbatdoshingiz nuqtai-nazaridan ko'rishShga harakat qiling;
- agar qat'iy irodali insonni o'z poziciyangizga o'tkazmoqchi bo'lsangiz, ko'pchilik o'rtasida uni qo'lidan ko'p narsa kelishini tan oling.

Talabalar tayyorlagan ishlar ko'rib bo'lingach, savol-javoblar o'tkaziladi. O'z ustida ishslash bo'yicha qo'shimcha maslahatlar beriladi. Talabalarning o'z ustida ishslashga oid bilimlari, tayyorlagan materiallari tahlil etilib, tegishli ballar qo'yiladi.

Ko'plab maktab rahbarlari, o'qituvchilar va o'zining metodik tajribalariga ega bo'lgan o'qituvchilarni ham ilg'or pedagogik tajribalarni o'rghanish va kasbiy pedagogik faoliyatlariga tatbiq etish masalasi bo'yicha yetarlicha tayyor deb bo'lmaydi. Chunki aksariyat o'qituvchilar pedagogik tadqiqot natijalari bilan tanishib borish imkoniyatiga ega emaslar. To'g'ri, bugungi globallashuv davriga xos axborot texnologiyasi rivoji, jumladan internet imkoniyatlari hamda masofaviy ta'lim tobora ommaviy tus olmoqda. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, pedagogik tadqiqotlar natijalari, ilmiy-amaliy tavsiyalar cheklangan doirada qolib kelmoqda. Qolaversa, pedagogik tadqiqotlar maktab ta'limi amaliyotidagi muammolarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lolan emas. Shunday bo'lsada innovatsion texnologiyalar tatbiqiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa interfaol metodlar tatbiqini keng qamrovda qo'llanilishi ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish omiliga aylanib bormoqda

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. O‘qituvchi mehnatida pedagogik mahoratning asosiy komponentlari nimalardan iborat?
2. O‘qituvchi o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil etishi uchun nimalarni bilishi shart?
3. O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan tashkil etish vositalariga ta’rif bering?
4. Yosh o‘qituvchilar mehnatini tashkil etishda qanday boshlang‘ich yo‘nalishlarni bilishi kerak?
5. O‘qituvchi mehnatini to‘g‘ri tashkil etishda uning “Kun tartibi” qanday ahamiyatga ega?
6. O‘qituvchining ob’ektiv shaxsiy xususiyatlari qanday omillarni o‘zida mujassamlashtiradi?
7. O‘qituvchi mehnatida iqtidor va qobiliyatning o‘rni nimalardan iborat?
8. O‘qituvchi o‘z mehnati faoliyatida kasbiy turg‘unlikning ta’siri haqida o‘z fikringizni bildiring?
9. O‘qituvchi mehnatida umumbashariy qadriyatlarning ahamiyati nimalardan iborat?
10. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlar tizimini belgilang?
11. Pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilgan pedagogik qadriyatlarga o‘z munosabatingizni bildiring?

GLOSSARY

O'zbek tilida	Ingliz tilida	Ma'nosi
Aksiolo-giya	Aksio-logiya	qadriyatlar to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati
Axloq	Morals	ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me’yorlar tizimi, ma’naviy xulq qoidalar
Axloq	Morals	(lotincha «moralis» - xulq-atvor ma’nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.
Axloqiy tarbiya	Moral education	muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
«Avesto»	«Avesto»	qadimgi qo‘lyozma asar. "Avseto"da O‘rtta Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda Yaqin va O‘rtta Sharq xalqlarining eng qadimgi (er.av. 2-ming-1-ming yil) davrdagi tarixi, ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, maishiy turmushi, axloqi, urf - odat, diniy qo‘sishlari, chorvachilik - dehqonchiligi, savdo - sotig‘i, qo‘shni xalqlar bilan iqtisodiy - madaniy munosabatlari yoritilgan manba
Avtoritar uslub	Authorita rian style	o‘qituvchi guruhning faoliyat yo‘nalishini shaxsan o‘zi belgilaydi, kim - kim bilan o‘tiradi, kim-kim bilan ishlaydi o‘qituvchi o‘zi hal qiladi. bunday uslubda ish yurituvchi o‘qituvchi o‘quvchilar tashabbusiga yo‘l bermaydi. hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko‘rsatma, instruksiya, ogohlantirish.
"An'ana"	Tradition	arabcha so‘z bo‘lib, uzoq zamonlardan beri avloddan - avlodga, otalardan bolalarga o‘tib davom etib kelayotgan urf - odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir
baynalmin allik	Internatio naly	(«inter» – orasida, o‘rtasida, aro, «natio» – xalq)– o‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.
Boshqarish	managem ent	tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektni o‘z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil

		qilish va yakun yasash.
Burch	duty	muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.
Bilim	knowledge	o‘quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma’lumotlari. o‘quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma’lumot.
Baholash mezonlari	the criteria of evaluation	o‘quvchi yoki talabaning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash.
Davlat ta’lim standarti	State education standarts	uzluksiz ta’limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablar.
davlat ramzları	National symbols	muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.
dars	lesson	uzluksiz ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’limning asosiy tashkiliy shakli
Didaktika	didactics	ta’lim va o‘qitish nazariyasi hamda o‘qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi ta’lim nazariyasi
Didaktik nazariya	didactic theory	pedagogikaning ta’lim va uning metodlari hamda tashkiliy shakllari haqidagi bo‘limi.
Didaktika tamoyillari	Didactics principle	(lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich, dastlabki holati) –ta’limni tashkil etishga qo‘yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.
Dunyo-qarash	outlook	shaxsning tafakkur tarzi va yo‘nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e’tiqod hamda fikr-o’ylar tizimi
ekologik tarbiya	education of ecology	o‘quvchi va talabalarga atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish me’yorlari va odobi, ilmiy, diniy, axloqiy qarashlar majmuasini singdirish jarayoni
ekologik ta’lim	environmental education	atrof muhitni asrab-avaylish mazmuni, shakli, usul va metodlarini o‘rgatuvchi, pedagogika fanining muhim tarmog‘i
ekologik tarbiya	environmental education	o‘quvchi va talabalarga atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish me’yorlari va odobi, ilmiy, diniy, axloqiy qarashlar majmuasini singdirish jarayoni
ekologik	environm	o‘quvchi va talabalarga atrof muhitga ehtiyyotkorona

madaniyat	ental culture	munosabatda bo‘lish me’yorlari va odobi, ilmiy, diniy, axloqiy qarashlar majmuasi
estetika	estetics	estetik - <u>nafosat tarbiyasi</u> (estetik tarbiya - lotincha «estezio» go‘zallikni his qilaman) - o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon
Faoliyat	function	muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ish, harakat, mashg‘ulot
fuqaro	Citizen	fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs
fuqarolik	Citizenship	huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik
fuqarolik tarbiyasi	Citizenship education	fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.
Hadis	hadith	(arabcha - rivoyat, naql, axborot yetkazish ma’nolari) - islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg‘ambarning faoliyati va ko’rsatmalar haqida rivoyatlar majmui.
huquqiy ong	Legal consciousness	muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega
huquqiy tarbiya	Legal education	shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.
Individ	Individ	1) alohida, mustaqil holda mavjud bo‘lgan organizm. 2) alohida inson, shaxs.
Individuallik	Individual	shaxsnинг betakror biosotsiologik xususiyatlari
Intellekt	intellect	shaxsnинг turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishini belgilaydigan tug‘ma va o‘zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to‘plami
Ijtimoiy tarbiya	Social education	ta’lim oluvchilardan ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlar va tajribalarni shakllantirish jarayoni.
Ilmiy-tadqiqot metodlar	scientific method	turli ko‘nikmalar va malakalar, ____ va usullar, xulq-atvor normalari va stereotiplari, insonlar bilan muomala tajtibasi, adaptatsiya, o‘z-o‘zini anglab olish tajribalari majmuasi.
ijtimoiy	Take	o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod hamda

ongni shakllantiruvchi metodlar	shape sociopolitical consciousness methods	dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, histuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari.
ijtimoyilas huv	socialization	1)inson tomonidan jamiyatda muayyan vaqt oralig‘ida qadriyatlar, axloqiy me’yor, namuna va ko‘rsatmalarining o‘zlashtirilishi; 2) shaxsning turli ijtimoiy umumiyligi (guruh, ijtimoiy institut, ijtimoiy tashkilot), ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvi. Shaxsning ijtimoiy o‘z-o‘zini aniqlashidan kelib chiqib, ijtimoiy munosabatlarning umimiy tizimida o‘z o‘rnini va nuqtaiy nazari.
Ijtimoiy adaptatsiya	Social adaptation	(yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.
jismoniy tarbiya	physical education	o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi
jarayon	process	muayyan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan o‘quv harakatlar majmui
Javonmardlik	bravely	yuksak axloqiy fazilatlar mujassami
kasb	profession	muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.
Komil inson	ideal person	bekamu-ko‘st, to‘liq kamolotga erishgan yetuk shaxs.
Ko‘nikma	habit	shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
koncepsiya	conceptuation	1)muayyan sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, dalil va hodisalarini tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2)pedagogika sohasidagi yetakchi g‘oya, nazariy fikr, hodisa va jarayonlarni turlicha tushunish, qarashlar tizimi; 3) adabiyotda biror asarning asosiy g‘oyasi.
Kompetensiya	“competence”	sohaga oid bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo‘lishi yoki ta’sir ko‘rsatish qobiliyati.
Kasbiy kompetentlik	Professional competence	mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi
“Kreativlik	“creative”	individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Mahorat	Proficiency	faqat tegishli tayyor ko'nikma va malakalarning yig'indisidagina ochilib qolmay, balki paydo bo'lgan masalani ijodiy tarzda yechish uchun zarur bo'lgan har qanday mehnat operatsiyasini amalga oshirish uchun psixologik tayyorgarlikdan iboratdir. Adolatli ravishda shunday deb yuritiladi: mahorat – bu shunday bir holki bunda qilish kerak va qanday qilish kerak degan muammo ayni bir vaqtning o'zida birdaniga hal qilinadi va shuning bilan birga, yana shu narsa ta'kidlanadiki, mahorat ijodiy masalaning mohiyatini anglash bilan uning yengish usullarini topish o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi
malakali mutaxassis	skilled specialist	o'quvchi yoki talabada muayyan o'quv materiali va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahoratli mutaxassis
metod	method	(yunoncha metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'lilot) – ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui.
Malaka	qualification	muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.
